


Bosh ilmiy-metodik
markaz

2022

O'quv-uslubiy majmua

**TA'LIM SIFATI
INNOVATSION
MENEJMENTI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMYIY - METODIK MARKAZI**

“Ta'lim sifati menejmenti” yo'nalishi uchun

**“TA'LIM SIFATI INNOVATSION MENEJMENTI”
moduli bo'yicha**

O'QUV - USLUBIY MAJMU'A

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ta’lim sifati menejmenti” qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **M.A.Maxkamova** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Dj.Kusharbaev – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Taqrizchi: **Sh.Dj.Ergashodjaeva** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

(2022 yil “24” dekabrda 6/4-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I. IShChI DASTUR.....	5
II.MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	20
III.NAZARIY MATERIALLAR.....	31
IV.AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI.....	116
V.GLOSSARIY.....	180
VI.ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	193

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Jahonning rivojlangan davlatlarida, xususan AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreyaning inson salohiyati taraqqiyoti, xususan aholi ta'lim darajasining oshishi va yosh kadrlarning professional tayyorgarligi bilan belgilanuvchi inson omilini kuchaytirishga qaratilgan investitsiyalash rivojlanish garovi hisoblanadi. Zamonaviy bosqichda aynan ta'lim sifatini oshirish mamlakat va mintaqalarning ustuvor iqtisodiy o'sishini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Ma'lumki, bugungi kunda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida ta'lim paradigmasi o'zgarib bormoqda. Osiyo ta'lim modeliga asosan o'quv jarayoni olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga, innovatsion texnologiyalar asosida talabalarda mustaqil ta'lim olish malakalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Shveysariya jahon iqtisodiy forumi «World Economic Forum» iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan mamlakatlar reytingini e'lon qildi. Jaxon bankining "Global iqtisodiy taraqqiyot" ma'lumotlariga asosan, 2015 yildan 2019 yilgacha bo'lgan davrda yillik o'sish darajasi eng yuqori bo'lgan davlatlar orasida O'zbekiston 5-o'ringa qayd etildi. O'zbekistondagi islohotlar istiqboli nafaqat mamlakatlardagi mavjud barcha tajriba, an'ana va qadriyatlar, balki ilg'or xalqaro tajribadan foydalanishga asoslangan.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, kadrlar tayyorlashni zamonaviy talablar asosida tubdan qayta ko'rib chiqish, raqobatbardosh oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash, hamda sohani jahon standartlari darajasida rivojlantirishda oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni boshqarishni takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ta'lim tizimi sifatini oshirishda innovatsion faoliyat, innovatsion texnologiyalar muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan ham innovatsion faoliyatni samarali qo'llash va boshqarish va ularni o'quv jarayoniga intensiv ravishda tatbiq etilishi ta'lim tizimida tom ma'nodagi ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Mazkur o'zgarishlar ta'lim tizimi tuzilmasi, o'qitish jarayoni metodologiyasi va texnologiyasigagina emas, balki uning strategik yo'nalishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Ta'lim tizimiga innovatsion menejmentni samarali qo'llash, yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish, o'z navbatida, ta'limga yangicha yondashishni, standart va talablarga o'zgartirishlar kiritishni, o'qitish usullari va strategiyasini takomillashtirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019

yilda mamlakatni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi parlamentga Murojaatnomasi, hamda 2017 yil 20 apreldagi 2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta'lim milliy tizimining sifati oshishiga alohida e'tibor berilgan va ustuvor vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

So'nggi yillarda innovatsion rivojlanish va modernizatsiyalash asosida ta'lim tizimining sifati va individual komponentlarini rivojlantirish bo'yicha turli ilmiy-tadqiqotlar, turli darajadagi va bosqichdagi o'quv jarayonlarini innovatsion boshqarish, innovatsion jarayonlarni modellashtirish; ta'lim tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish asosida ilmiy pedagogik kadrlarni va o'qituvchilarni kayta tayyorlash talablari paydo bo'ldi.

Shu jihatdan ushbu modul ta'lim sifatida innovatsion menejment, uning nazariy asoslari, zamonaviy ta'lim sifatini asosiy mezon va ko'rsatkichlari, ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion faoliyatning asosiy turlari, intellektual mulk va uni baholash, ta'lim sifatini oshirishda innovatsion marketing, ta'lim sifatini baholashda innovatsion faoliyatning jahon tajribasi, venchur moliyalashtirish, innovatsion loyiha, ta'lim biznes sifatida - innovatsion marketing ob'ekti, innovatsiyalar transferi, innovatsiyalarni tijoratlashtirish kabi masalalarini qamraydi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish va zamonaviy innovatsion menejment usullarini joriy etishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, farmonlar, qarorlar va buyruqlar kabi normativ hujjatlar qo'llanilmoqda. Ushbu qonunlar va farmonlarni bajarishda sohaga innovatsion menejment asoslarini qo'llash va tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini oliy ta'lim sifati innovatsion menejmenti asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy andozalarga javob beradigan innovatsion ta'lim menejmenti asoslarini tadbiiq etishda ta'lim sifatiga ta'sirini bilish, ularni amaliyotga tatbiiq etilishini ta'minlashda va mavjud bilimlarni yangicha asosda chuqurlashtirish hamda ularning malakalarini oshirish, ta'lim sifatini oshirishda innovatsion menejment masalalari bo'yicha ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- oliy ta'lim muassasalarida jahon standartlariga javob beradigan ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion menejmentning nazariy va amaliy ko'nikma, malakalarini rivojlantirish;

- ta'lim sifatini ta'minlashda oliy ta'lim muassasasining innovatsion faoliyati, innovatsion menejment samaradorligini ta'minlash vazifalarini o'rgatish;

- ta'lim sifatini ta'minlashda OTMlarda innovatsion faoliyatni tashkil etish, intellektual mulk ob'ektlarini tasnifi, ularni baholash masalalari bo'yicha malaka va ko'nikmalar berish;

- ta'lim sifatida innovatsion faoliyatning jahon tajribasi bilan tanishtirish, ta'limda innovatsion marketing mexanizmlarini amalga oshirishga yo'naltirish;

- ta'limni biznes sifatida – innovatsion marketing ob'ekti sifatida baholash, venchur moliyalashtirishning usul va mexanizmlari bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalarga yo'naltirish;

- ta'lim sifati, uning strategiyasini rejalashtirish va maqsadli loyihalarni ishlab chiqishga yo'naltirish;

- yangiliklarni ta'lim jarayonlariga joriy etish, hamda innovatsion va sifat ta'lim majmuasida menejment tuzilmasi va vazifalarini yoritgan holda ularning metodik ta'minotini kengaytirish;

-rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimidagi yangicha usullar, innovatsion pedagogik texnologiyalarning ijobiy tomonlarini o'rgangan holda xalqaro standartlar talablarini o'rganishda ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Ta'lim sifati innovatsion menejmenti” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

– ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion menejmentning asosiy omillarini;

- zamonaviy ta'lim sifatining mezon va ko'rsatkichlarini;
 - OTMlarda innovatsion tashkilotlarni tashkil etish – ta'lim sifatini oshirish tajribalarini;
 - innovatsion marketingni strategik va operatsion usullarini *bilishi*;
 - ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsiyalarni qo'llay olish;
 - ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion faoliyatning jahon tajribasi va ulardan foydalanish
 - innovatsiyalarni tijoratlashtirish, innovatsion loyiha va dasturlarni ishlab chiqish va venchur moliyalashtirish bilan bog'liq masalalarni yechish, tahlil etish, baholash va umumlashtirish bo'yicha *ko'nikma va malakalarga* ega bo'lishi;
- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion faoliyatni tashkil etish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi kerak.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Ta'lim sifati innovatsion menejmenti” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, innovatsion texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, blis-so'rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Ta'lim sifati innovatsion menejmenti” moduli “Ta'lim menejerining innovatsion kompetentligi”, “Universitet 3.0 modeli va ta'lim sifatini ta'minlash masalalari”, “Ta'lim sifatini ta'minlashda halqaro tajribalar” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim sifatini oshirish, ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va boshqarish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		jami	jumladan	
			Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	<p>Ta'lim sifati va innovatsion menejmentning nazariy-uslubiy asoslari.</p> <p>Ta'lim sifati ta'minlashda, innovatsiya, innovatsion faoliyatning mohiyati. Ta'lim sifati ta'minlashda innovatsion menejmentning asosiy omillari. Oliy ta'lim muassasasining innovatsion rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.</p>	2	2	
2.	<p>Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'limda innovatsion jarayonlar.</p> <p>Raqamli iqtisodiyot asoslari. Globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotni rivojlanish tendensiyalari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'limni tashkil etish xususiyatlari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion jarayonlarni tashkil etish va boshqarish.</p>	2	2	
3.	<p>Zamonaviy ta'lim sifatining mezon va ko'rsatkichlari.</p> <p>Xalqaro ta'lim sifati. Ta'lim sifati ta'minlashda innovatsiyalarning qo'llash yo'llari. Ilmiy-texnik mahsulot va innovatsiyalar transferi. Ta'lim sifati ta'minlashda innovatsion faoliyatning tashkiliy shakllari.</p>	2	2	
4.	<p>Ta'lim sifati ta'minlashda innovatsion faoliyatning asosiy turlari.</p> <p>Oliy ta'lim muassasalarida innovatsiyalarning ilm-fan samaradorligiga ta'sir etuvchi omillari. Ta'lim sifati ta'minlashda innovatsion menejmentning mexanizmi va uning asosiy yo'nalishlari.</p>	2		2

5.	Ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion menejment samaradorligi. OTMlarda ta'lim sifatini ta'minlashda samarali boshqaruv yo'llarini ishlab chiqish. Innovatsion marketing asosida OTM imidjini oshirish. Ta'lim xizmatlari marketingi.	2		2
6.	Ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion faoliyatning jahon tajribasi. Xalqaro sifat standartlarida innovatsion menejmentning ahamiyati. OTMlarda xalqaro sifat standartlarining zamonaviy boshqaruv uslubiyotlarini qo'llash. OTMlarda innovatsion tashkilotlarni tashkil etish tajribasi.	4		4
7.	Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion loyihalarni ishlab chiqish. Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va uni iqtisodiy baholash. Innovatsion loyihalarni boshqarish. Innovatsion loyihalarning samaradorligi.	2		2
	Jami:	16	6	10

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: TA'LIM SIFATI VA INNOVATSION MENEJMENTNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI. (2 soat)

Ta'lim sifati va innovatsion menejmentning nazariy-uslubiy asoslari. Ta'lim sifatini ta'minlashda, innovatsiya, innovatsion faoliyatning mohiyati. Ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion menejmentning asosiy omillari. Oliy ta'lim muassasasining innovatsion rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.

2-MAVZU: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TA'LIMDA INNOVATSION JARAYONLAR. (2 soat)

Raqamli iqtisodiyot asoslari. Globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotni rivojlanish tendensiyalari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'limni tashkil etish xususiyatlari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion jarayonlarni tashkil etish va boshqarish.

3-MAVZU: ZAMONAVIY TA'LIM SIFATINING MEZON VA KO'RSATKICHLARI. (2 soat)

Xalqaro ta'lim sifati. Ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsiyalarning qo'llash yo'llari. Ilmiy-texnik mahsulot va innovatsiyalar transferi. Ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion faoliyatning tashkiliy shakllari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA INNOVATSION FAOLIYATNING ASOSIY TURLARI. (2 soat)

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsiyalarning ilm-fan samaradorligiga ta'sir etuvchi omillari. Ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion menejmentning mexanizmi va uning asosiy yo'nalishlari.

2-MAVZU: TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA INNOVATSION MENEJMENT SAMARADORLIGI. (2 soat)

OTMlarda ta'lim sifatini ta'minlashda samarali boshqaruv yo'llarini ishlab chiqish. Innovatsion marketing asosida OTM imidjini oshirish. Ta'lim xizmatlari marketingi.

3-MAVZU: TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA INNOVATSION FAOLIYATNING JAHON TAJRIBASI. (4 soat)

Ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion faoliyatning jahon tajribasi. Xalqaro sifat standartlarida innovatsion menejmentning ahamiyati. OTMlarda xalqaro sifat standartlarining zamonaviy boshqaruv uslubiyotlarini qo'llash. OTMlarda innovatsion tashkilotlarni tashkil etish tajribasi.

4-MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI ISHLAB CHIQISH. (2 soat)

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni iqtisodiy baholash. Innovatsion loyihalarni boshqarish. Innovatsion loyihalarning samaradorligi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.:O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgust «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 343-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

16. Maxkamova M.A. Ta’limda innovatsion menejment. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019 – 164 b.

17. Teoriya innovatsionnogo menedjmenta. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019. – 178 b.

18. Maxkamova M.A. Innovatsion menejment. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2013.

19. Maxkamova M.A. Innovatsion texnologiyalar boshqaruvi. Monografiya. – T.: Aloqa, 2011.

20. Peregudov L.V., Saidov M.X. “Menedjment i ekonomika vysshego obrazovaniya”. Uchbebnoe posobie. – T., 2008.

21 Innovatsionnyy menedjment. Uchebnik. Pod. red, prof. V.Ya. Gorfinkelya. – M.: “Vuzovskiy uchebnik ”, 2009.

22. J. Tidd and J.Bessant. [_Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change.](#) Wohn Wiley and Son’s Ltd, Fourth edition, 2012.

23. V. Govindarajan and C. Trimble. [The Other Side of Innovation: Solving the Execution Challenge.](#) Harward Business School Publishing, 2010.

IV. Internet saytlar:

24. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

25. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

26. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.

27. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet.

28. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

«Blum kubigi» metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun “Ochiq” savollar tuzish va ularga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

1. Ushbu metodni ko‘llash uchun, oddiy kub kerak bo‘ladi. Kubning har bir tomonida ko‘yidagi so‘zlar yoziladi:

- **Sanab bering, ta’rif bering (oddiy savol)**
- **Nima uchun (sabab-oqibatni aniqlashtirovchi savol)**
- **Tushintirib bering (muammoni har tomonlama qarash savoli)**
- **Taklif bering (amaliyot bilan bog‘liq savol)**
- **Misol keltiring (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)**
- **Fikr bering (tahlil kilish va baxolash savoli)**

2. O‘qituvchi mavzuni belgilab beradi.

3. O‘qituvchi kubikni stolga tashaydi. Qaysi so‘z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

“KWHL” metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Izoh. KWHL:

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o‘rganib oldim?.

“KWLH” metodi	
1. Nimalarni bilaman: -	2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak: -
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	4. Nimalarni bilib oldim: -

“W1H” metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda? (joylashgan, qaerdan olish mumkin)	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• xavflar

“VEER” metodi.

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Muammoli savol

1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi.

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod taʼlim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, oʻzlashtirish koʻrsatkichi va amaliy koʻnikmalarini tekshirishga yoʻnaltirilgan. Mazkur texnika orqali taʼlim oluvchilarning bilish faoliyati turli yoʻnalishlar (test, amaliy koʻnikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) boʻyicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



Test

Muammoli vaziyat

Tushuncha tahlili (simptom)

Amaliy vazifa

“Insert” metodi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“V” – tanish ma’lumot.	


“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.	
“- ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

“Nima uchun?” texnologiyasi.



Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoni yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va yo‘qotish talab etiladi. Tinglovchilarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema tinglovchilarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Tinglovchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

***NIMA
UCHUN?***




muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish jarayonida qo‘llash mumkin

“Nima uchun”? sxemasiga asosan tinglovchilar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi




2-bosqich


Yakka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi. Nima uchun? so'rog'i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi. Qayta-qayta "nima uchun" degan savol berib boriladi. Muammoni keltirib chiqargan ildiz yashiringan sababi topilguncha davom ettiriladi.

**3-bosqich**

Tinglovchilar kichik guruhlariga birlashtiriladi, o'z sxemalarini taqqoslashga va qo'shimcha kiritishga imkon yaratiladi. Umumiy sxema jamlanadi.

**4-bosqich**

Natijalar taqdimoti uyushtiriladi. Faoliyat natijalari baholanadi.

«Nima uchun?» texnologiyasining sxemadagi ko'rinishi.**“Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari.**

1. Qanday piktogrammadan foydalanishni o'zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalarning sxematik ko'rinishi qanday bo'lishini o'zingiz hal etasiz.
3. Har bir strelka fikr yo'nalishini ko'rsatishi lozim.

FSMU texnologiyasi.

(F) - fikringizni bayon eting.

(S) - sababini ko'rsating.

(M) - misol (dalil) keltiring.

(U) - umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs- munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarning, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o'rgatadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dallillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich.

-o'qituvchi tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni, yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;

-o'qituvchi o'quv mashg'ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma'lumot beradi:

-mashg'ulot davomida har bir talaba o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2- bosqich.

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayon etishga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qozozdagi FSMU ning 4 bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'latadi.

3 - bosqich.

-Har bir tinglovchi o'z qog'ozlarini to'latib bo'lgach, O'qituvchi ularni kichik guruhlarga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlarga bo'lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlarga bo'lib yuboradi:

-o'qituvchi har bir guruhda FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan katta

formatdagi qog'ozlarni tarqatadi:

-o'qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog'ozlardan fikr va dallillarni katta formatdagi umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

4 - bosqich.

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-guruh a'zolari FSMUning 4 bosqichini har biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar:

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5- bosqich.

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar:

Guruh vakili har bir bosqichni alohida o'qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba'zi bo'limlarni isbotlash ya'ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

6 - bosqich.

-o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:

-ushbu texnologiyadan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?

-ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?

-ushbu texnologiyani qo'llanilishi tinglovchilarda qanday hislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

-ushbu texnologiyaning o'quv jarayonining qaysi bosqichida qo'llanilgani ma'qul va nima uchun?

-ushbu texnologiyani dars jarayonida qo'llanilishi tinglovchilarga nima beradi va nimaga o'rgatadi?

-ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tkazish mumkin?

-ushbu treningda asosiy vazifa nimadan iborat va hokazolar.

III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU: TA'LIM SIFATI VA INNOVATSION MENEJMENTNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI (2 soat)

Reja:

1. Ta'lim sifati va innovatsion menejmentning nazariy-uslubiy asoslari. Ta'lim sifatini ta'minlashda, innovatsiya, innovatsion faoliyatning mohiyati.
2. Ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion menejmentning asosiy omillari.
3. Oliy ta'lim muassasasining innovatsion rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.

Tayanch so'zlar: *ta'lim, sifat, ta'lim sifati, innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion muhit, innovatsion soha, innovatsion infratuzilma, innovatsion salohiyat, menejment, ta'lim, ta'limda innovatsion menejment.*

Key words: *innovation, innovation activity, innovation environment, innovation sphere, innovation infrastructure, innovation potential, management, education, innovation management in education.*

Innovatsion menejment – O'zbekiston iqtisodiyoti uchun nisbatan yangi tushuncha bo'lib, fan-texnika taraqqiyotini boshqarish jarayonlari va ilmiy-texnik yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy etishning asosiy jihatlarini qamrab oladi.

Innovatsiya – mavjud tizimlar rivojlanishini boshqarish jarayoni bo'lib, unda innovatsion mahsulot amaliy qo'llanilish bosqichigacha olib kelinadi va bozor muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Mamlakatlar raqobatdoshligini baholashning ko'rsatishicha, korxonalar rivojlanishining asosiy strategiyasi bo'lib, quyidagi tamoyillarga asoslangan boshqaruv siyosatini amalga oshirish xizmat qiladi:

- tabiiy va iqlim resurslardan oqilona foydalanish;
- jamg'arilgan boyliklardan o'z o'rnida foydalanish;
- investitsiyalarni faol jalb qilish;
- innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash.

Shu munosabat bilan, innovatsion menejmentning tashkilot samarali rivojlanishi va raqobat ustunliklarini shakllantirish omili sifatidagi roli yanada oshadi.

Innovatsiyalarni boshqarishda innovatsion menejmentning eng muhim amaliy vazifalaridan biri - innovatsion jarayonlarni boshqarishning samarali tizimini shakllantirishdir va u quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- innovatsion menejmentning tegishli nazariy bazasini ishlab chiqish;
- innovatsion menejment sohasida mavjud muammolarni yechish uslublarini asoslash;
- innovatsion jarayonlar samaradorligini baholash uslubiyoti va ularga ta'sir ko'rsatish vositalarini ishlab chiqish.

Korxonada ro'y berayotgan innovatsion jarayonlarning samaradorligi, innovatsion strategiyani shakllantirishda qo'llaniladigan usul va uslublarga, innovatsion mahsulot kategoriyasiga, ishlab chiqilayotgan innovatsiyalar turlariga, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarining ishlab chiqarishda qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi. Ular orasida eng muhim elementlar bo'lib quyidagilar sanaladi:

- innovatsion xarakterdagi yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirishning samarali strategiyalari;
- muayyan tashkiliy tuzilmada bunday strategiyani amalga oshirish jarayonini boshqaruv mexanizmi.

Tadbirkorlik, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va marketing strategiyalari bilan bir qatorda yuqorida qayd etilgan innovatsion strategiya, tashkilot umumiy iqtisodiy strategiyasining muhim bo'g'ini sifatida qaraladi.

Boshqaruvning innovatsion nazariyasi va innovatsion strategiyasini uslubiy jihatlarini o'rganish davri o'tgan asr boshlariga to'g'ri keldi va ko'pgina yirik olimlar tomonidan amalga oshirildi.

Hozirgi kunda ilmiy-texnik taraqqiyot va bozor ehtiyojlari, mahsulot nomenklaturasi va sifatiga yangi talablarni shakllantirgan holda, talab va taklif kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ishlab chiqaruvchilarning bunday o'zgarishlarga nisbatan loqaydligi, raqobatchilarning ilgari ketishidan dalolat

beradi. Korxonalar ushbu o'zgarishlarga kech moslashuvining salbiy iqtisodiy oqibatlarini, tanazzul holatga va hattoki bankrotlikka olib kelishi mumkin. Ushbu munosabat bilan, ishlab chiqarish faoliyatining deyarli barcha sohalarida, innovatsiyalarga, istiqbolli rivojlanish vositasi sifatida, qiziqish oshadi. Korxonalarni boshqarish amaliyotida bunday strategiyaning shakllanishi, innovatsion jarayonlarni samarali boshqaruv tizimlarini yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitlarida, innovatsiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlarida turli xil resurslarni optimallashtirish, innovatsion jarayonlarni majmuaviy boshqarish va innovatsion rivojlanishning samarasiz variantini tanlash tavakkalchiligini pasaytirish uchun xaridorlarning o'zgaruvchan innovatsion ehtiyojlarini hisobga olish lozim bo'ladi. Bunda innovatsiyalar va ularni boshqarish korxonalar rivojlanishining asosi va uzoq muddatli muvaffaqiyatining kafolati hisoblanadi.

Innovatsion menejmentning asosiy qoida va kategoriyalarini o'rganish uchun «innovatsiya» tushunchasining iqtisodiy mazmuni va mohiyatini to'liq anglab yetishimiz lozim. Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsiya (ingl. *innovation*) – potensial ilmiy-texnik taraqqiyotni (ITT) yangi mahsulot va texnologiyalar ko'rinishida real taraqqiyotga aylanishi, deb ta'riflanadi.

Bozor iqtisodiyotida innovatsiyalarni tizimli taqdim etish uslubiyoti xalqaro standartlarga asoslangan, va ularga muvofiq *innovatsiya* deganda, bozorga kirib kelgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliyotda qo'llanilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan yangicha yondashuv ko'rinishidagi innovatsiya faoliyati natijasi tushuniladi.

Bugungi kunda jamiyatda va iqtisodiyotda innovatsiyani rivojlantirish iqtisodiy o'sish hamda aholi turmush darajasini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. XXI asr tarixga innovatsiya asri bo'lib kirdi. Innovatsiya, fan va texnikaning bugungi kundagi yangi texnologiya, mahsulot, axborot va kommunikatsiya vositalarida, texnik va tashkiliy boshqarishning yangi usullarida, yangi xizmat turlarida gavdalangan yutug'idir.

Innovatsion menejment harakatlar majmuini, samarali mehnatni ta'minlashga yo'naltirilishini ifodalaydi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni innovatsiya asosida rivojlantirishning iqtisodiy siyosatiga ustuvor strategik yo'nalish sifatida qaraladi.

Ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy turi bo'lib *ta'lim xizmatlarini yaratish* sanaladi. Bu ta'lim xizmatlarini ta'riflashning yetarlicha keng doiradagi miqdorlari mavjuddir.

Birinchi, *ta'lim xizmati* – bu o'quv-pedagogik faoliyatdir.

Ikkinchi, esa, *ta'lim xizmati* – bu ta'lim muassasasi tomonidan iste'molchining ishchi kuchi qiymatini oshiruvchi va uning mehnat bozorida raqobatbardoshligini yaxshilovchi ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatlarini taqdim etishdir.

Uchinchi, *ta'lim xizmati* – bu shaxs, jamiyat va davlatning turli xildagi ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida foydalaniladigan bilimlar, axborotlar, mahorat va ko'nikmalarning tizimidir.

Sifat – bozor iqtisodiyoti sharoitida firmani, muassasani avtoriteti, foydani ortishi, uning raqobatbardoshligini gullab yashnashini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichdir. **Maxsulot sifati** – korxonalar, tashkilot va firmalarning faoliyatini baholovchi asosiy ko'rsatkich.

Ilmiy adabiyotlarda mahsulot **sifati** – mahsulot yoki tovarning shunday xususiyatlari yig'indisiki, u ma'lum talablarni bajara oladigan, iste'molchini talablarini qondirishga yaraydigan va undan samarali foydalanish uchun ishlab chiqilgan (tayyorlangan) xususiyatlar yigindisidir.

Sifatning asosiy ko'rsatkichlari - to'g'ri ishlashi, belgilangan vazifalarni bajara olishi (pokazatel naznacheniya), ishonchlilik, saqlanuvchanligi, uzoq muddat ishlay olishi (dolgovechnost), saqlanuvchanlik (soxranyaemost), Texnologikligi (texnologichnost), standartlarga va boshqa talablarga javob berishi kabilardir.

Sifat - umumiy tushuncha sifatida insonlarning ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan asoslanuvchi mahsulot, material, ish turi, mehnat, xizmatlar va shu kabilarning xususiyatlari hamda xususiy belgilarining majmui bo'lib, ularni

qo'yilgan talablar va o'z vazifalariga to'liq mos kelishi bilan baholanadi. Bunday moslik asosan standartlar, shartnomalar, kelishuvlar, iste'molchilarning talablari bilan aniqlanadi.

Sifatga e'tibor va uning rivojlanish bosqichlarini mantiqan quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

1.XX asrning 60-yillari - bozor raqobatbardoshligi sharoitida asosiy omil - mahsulot sifati.

2.XX asrning 70-yillari – mahsulot sifatidan shlab chiqarish texnologiyasi sifatiga o'tish bosqichi.

3.XX asrning 80-yillari- sifatni boshqarish tizimi bosqichiga o'tish davri.

4. XX asrning 90-yillaridan boshlab **ta'lim sifati**, intellektual resurslar sifati, inson hayoti sifati - asosiy omil sifatida namoyon bo'la boshladi.

Ta'lim sifati – ijtimoiy kategoriya hisoblanib, jamiyatda ta'lim jarayonining holati va natijasini hamda shaxsning kasbiy, maishiy va fuqarolik kompetentligini shakllanishi va rivojlanishini jamiyat talabi va ehtiyojiga mos kelishini aniqlaydi. Ta'lim sifati ta'lim muassasasining o'quv-tarbiyaviy faoliyatini turli qirralarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar majmui orqali baholanadi.

Ushbu ko'rsatkichlarga ta'lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim mazmuni, o'qitish shakli va uslublari, material-texnik baza, xodimlar tarkibi kabilar kiradi.

Ta'lim sifati -inson hayot-faoliyati sifatini oshirish va aniq maqsadga erishishda foydalanish uchun zarur bo'ladigan, aniq sharoitlarda talab etilib olingan bilimlar majmuidir.

Oliy ta'limda ta'lim sifati - ta'lim modelining zamonaviy talabga, xalqaro standartlarga, tayyorlangan yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarini yetarlicha o'zlashtirilgan, institutsional maqsad va vazifalari hamda ta'lim tizimining aniq standartlari, ta'lim muassasalari, o'quv dasturlari va fanlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali, ko'p darajali dinamik tushunchadir.

Bilim sifati - o'quv jarayonini tugatgandan so'ng olingan bilimlarning

fundamentalligi, yuqoriligi, ish jarayonida qanchalik kerakliligi va ish beruvchining qo‘ygan talablariga mos kelishi bilan belgilanadi.

«**Ta’lim sifati**» atamasi quyidagi omillarga bog‘liq holda turlicha ahamiyat kasb etadi:

- * oliy ta’lim ishtirokchilarining manfaatlari;

- * kirish ma’lumotlari, ta’lim-tarbiya jarayonlari, chiqish ma’lumotlari, maqsad va vazifalar kabi tushunchalarning o‘zaro nisbati;

- * baholanadigan akademik sohaning xususiyatlari yoki tavsifi;

- * oliy ta’limning tarixiy rivojlanish davri.

Shuningdek, ta’lim sifati atamasi quyidagi turli darajadagi aniqlanishlarga ham ega:

- * sifat - eng yuqori ko‘rsatkich sifatida;

- * sifat - maqsadga to‘liq erishilgan faoliyat shaklida;

- * sifat-yaxshilangan va takomillashtirilgan faoliyat shaklida. Yuqorida keltirilgan «ta’lim sifati» to‘g‘risidagi aniqlanishlar

- * ta’lim sohasidagi islohotlarning tarixiy davriga bog‘liq holda o‘z afzalliklari va kamchiliklariga egadir.

Ta’lim sifati absolyut va nisbiy tushuncha sifatida qaralishi ham mumkin.

- * Ta’lim sifatining absolyut tushunchasida ta’lim muassasasining statusi, mavqei va ustunligini aks etishi nazarda tutiladi. Bunday ideal tushuncha ta’lim muassasasi imidjining rivojlanishi va mustahkamlanishiga sharoit yaratadi va ta’lim sifati ko‘rsatkichi bo‘yicha eng yuqori darajadagi ta’lim standartiga intilishini ifodalaydi.

- * Ta’lim sifati nisbiy tushuncha sifatida ham qaralishi mumkin. Bunda sifat ta’lim xizmatning asosiy atributi (ajralmas qismi, asosiy xususiyati) deb hisoblanmaydi va ta’lim jarayonini davlat ta’lim standartiga mos kelishi bilan baholanadi. Shu sababli ta’lim

- * sifati nisbiy tushuncha sifatida ikki xil ma’noda belgilanishi mumkin:

- * ta’lim standartiga mosligi;

- * ta’lim xizmati iste’molchilarining rasmiy talablariga mos kelishi.

Birinchi tushuncha ishlab chiqaruvchi (ta'lim muassasasi) nuqtai nazaridan sifatni belgilasa, **ikkinchisi esa iste'molchi**, ya'ni ishlab chiqarish korxonalarini tomonidan sifatni baholaydi.

Ta'lim sifati birinchi navbatda bilim sohiblari, tarqatuvchilarining sifati, saviyasi va malakasi bilan belgilanadi. **Bilim sohiblari deganda** muayyan oliy o'quv yurtining professor-o'qituvchilar tarkibi va ularning ilmiy salohiyati tushuniladi. Ular turli xil pedagogik texnologiyalar va uslublar yordamida bilim oluvchilarga bilim berishadi. Shu sababli bilimni uzatish texnologiyasining zamonaviyligi, u yordamida ta'lim oluvchilarni o'zlashtirish darajasi, olingan bilimlarni mustahkamligi, asoslanganligi ham muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim sifati aniqlashda sifat ko'rsatkichlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin;

- * professor-o'qituvchilar tarkibi sifati;
- * o'quv yurtining material-texnik bazasi;
- * o'qituvchilar tarkibining asoslanganligi;
- * o'quv dasturlarining sifati;
- * talabalar sifati;
- * infratuzilma sifati;
- * bilim sifati;
- * rahbariyatning innovatsiya faolligi;
- * innovatsion jarayonlarni tadbiq etilishi;
- * bitiruvchilarga talab;
- * bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi;
- * bitiruvchilarning yutuqlari.

Hozirgi zamonda «innovatsiya» tushunchasi biron bir turdagi faoliyatni tapkibiy jixatdan yangilanishini, tubdan o'zgartirilishini ifoda etadi.

Innovatsiya tushunchasi - keng qamrovli bo'lib, u ishlab chiqarish jarayoniga mukammal, yangi, ilgari bo'lmagan texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi.

Innovation¹ is: production or adoption, assimilation, and exploitation of a value-added novelty in economic and social spheres; renewal and enlargement of products, services, and markets; development of new methods of production; and establishment of new management systems. It is both a process and an outcome.

Innovatsion muhit - innovatsiyalarni yaratilishi, amalga oshirilishi va ilgari surilishini o‘rab turuvchi holat

Innovatsion potentsial - deganda, o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan turli xil resurslarning umumiy yig‘indisi tushuniladi.

Innovative potential - understood as the sum of the different types of resources in relation to the total.

Innovatsion soha – innovatsion mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarni, o‘z ichiga innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni oluvchi faoliyat sohasidir

«**Innovatsion faoliyat**» - deganda, iqtisodiy faoliyat sohasidagi jarayonlarni radikal tarzda o‘zgartirishga yordam berishi mumkin bo‘lgan biron bir yangilikni yaratish.

Innovation activities² are all scientific, technological, organisational, financial and commercial steps which actually, or are intended to, lead to the implementation of innovations.

Innovatsion loyiha – bu loyiha maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan texnik, tashkiliy, rejaviy va hisoblash – moliyaviy hujjatlarning yig‘indisidir.

Innovatsion menejment – tashkiliy boshqaruvchilikning o‘ziga xos turi bo‘lib, unda innovatsion faoliyat rejasi va dasturlarini ishlab chiqish va joriy etishni boshqarish amalga oshiriladi.

¹ This definition was given by Crossan and Apaydin and it builds on the Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) manual's definition.

² OECD, 2005, “The Measurement of Scientific and Technological Activities: Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data: Oslo Manual, Third Edition” prepared by the Working Party of National Experts on Scientific and Technology Indicators, OECD, Paris, para. 149.

Qator olimlarning fikricha³, innovatsiya, bu:

- innovatsiya g'oyasiga ega bo'lgan muayyan axborot to'plami (innovatsiya axborotning bir ko'rinishi tarzida va shu ma'noda faraziy yangilik);
- tegishli qaror qabul qilinishi jarayoni orqali o'tgan va moddiylashgan innovatsiya g'oyasi (innovatsiya uni o'zlashtirish, joriy etish jarayoni tarzida yoki amalga oshadigan, ro'yobga chiqadigan yangilik);
- olingan natija yoki joriy qilingan yangilik.

Innovatsion faoliyatni yuritish jamiyatda fan-texnika taraqqiyotiga olib keladi. Innovatsion faoliyat, chunonchi, quyidagi yo'nalishlardagi yangiliklarni ixtiro qilish va joriy qilishni o'zida mujassamlashtiradi:

yangi mahsulot; yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni tashkiliy shakli; yangi boshqaruv jarayoni va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning hal etilishi, ularga mos ravishda, yangi moliyaviy dastaklar va tashkiliy tuzilmalar.

Shunday qilib, innovatsiyalarni joriy qilishning eng optimal darajalarini e'tiborga olgan holda innovatsion faoliyatga quyidagicha ta'rif va tavsiflarni berish mumkin bo'ladi .

Innovatsionnyy menedjment⁴ - eto itogovyy rezultat sozdaniya i osvoeniya (vnedreniya) prinsipialno novogo ili modifitsirovannogo sredstva (novshestva), udovletvoryayushiy konkurentnye obshchestvennye potrebnosti i dayushiy ryad effektov (ekonomicheskiy, nauchno-texnicheskiy, sotsialnyy, texnologicheskiy).

Innovation Management - the final result is the creation and development of (implementation) of a fundamentally new or modified products (innovation), satisfying the needs of a competitive society and giving a number of effects (economic, scientific, technical, social, technological)

Innovatsion faoliyat – bu ishlab chiqarishni, uning moddiy-texnika bazasini

³Ф.Эргашев, Д.Рахимова ва бошқалар. Инновацион менежмент. –Т.: Академия, 2005.

⁴Д.В. Соклов, А.Б. Титов, М.М. Шабанова. Предпосылки анализа и формирования инновационной политики. — 2015.

yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tadbiiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasi.

Innovatsion nazariyani asosiy rivojlanish bosqichi V.Zombart, V.Mitcherlix, Y.Shumpeter ishlariga to'g'ri kelgan. Innovatsiyalar nazariyasini shakllanishi va rivojlanishiga avstriyalik olim Y.Shumpeter katta hissa qo'shgan. Y.Shumpeter kon'yunktura siljishlari manbalarini tahlil qilish natijasida, ishlab chiqarish va bozor rivojlanishidagi o'zgarishlarning *yangi omillarini* ajratdi⁵ va ularga quyidagilarni kiritdi:

- yangi xususiyatlarga ega mahsulotni ishlab chiqarish;
- yangi ilmiy kashfiyot yoki tijoratlashtirish usuliga asoslangan ishlab chiqarishning yangi uslubini joriy etish;
- sanoatning mazkur tarmog'i taqdim etilmagan, yangi savdo bozorlarini o'zlashtirish;
- xom-ashyo yangi manbasidan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tegishli tarzda qayta tashkil etilishini amalga oshirish, masalan, monopollikni ta'minlash.

Muayyan yangilik darajasini baholash va kon'yunktura siljishlarining amplitudasi va davomiyligini aniqlash uchun Y.Shumpeter *yangilik* mezonini kiritdi, va ushbu mezon mazkur turkumlashtirish asosini tashkil etdi.

Keyinchalik, 1930-yillarda Y.Shumpeter tomonidan *innovatsiya* tushunchasi kiritildi, va u mahsulot ishlab chiqarish, sotish, yetkazish jarayonlarida yangi yoki takomillashtirilgan texnik, texnologik, tashkiliy xarakterdagi qarorlarni qo'llash oqibatida mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bildirar edi. Innovatsiyaning ushbu ta'rifi va Y.Shumpeterning ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalari to'g'risidagi konsepsiyasi innovatsiyalar nazariyasiga bo'lgan ikkita eng tarqalgan yondashuvdan birining asosini tashkil etadi. Birinchi yondashuv – yangi omillar to'g'risidagi tushunchaga asoslangan, ikkinchisi – yangi mahsulot va/yoki texnologiyaga asoslangan. Birinchi yondashuvning rivojlanishi o'z aksini topgan ishlar sharxi 1-jadvalda keltirilgan.

⁵ Шумпетер Й. Теория экономического развития, М.: Прогресс, 2002. – С.255.

1-jadval.

**Yangi omillar to'g'risidagi tushunchaga asoslangan birinchi yondashuv
bo'yicha innovatsiyalar ta'riflarining sharxi**

Mualliflar	Innovatsiya ta'rifi
X.Barnet	Mavjud shakllardan yangi sifat jihati bilan farq qiluvchi har qanday g'oya, faoliyat yoki moddiy natija
P.T. La Peerre	Boshlang'ich holatdan yangi holatga o'tish yo'li bilan xo'jalik ichki tuzilmasida sodir bo'lgan har qanday o'zgarish
P.Vitfild	Ijodiy g'oyani rivojlanishi va uni tayyor mahsulot, jarayon yoki tizimga aylanishi
L.Vodachek O.Vodachkova	Korxonaning tizim sifatida faoliyat ko'rsatishining maqsadli o'zgarishi
P.F.Druker	Tadbirkorlarning shunday vositasiki, uning yordamida har qanday o'zgarish yangi biznes turi yoki xizmatni amalga oshirish imkoniyati sifatida qo'llaniladi
K.Nayt	Tashkilot yoki uning bevosita atrof-muhitiga nisbatan biror yangilikni joriy etish

«Innovatsiya» tushunchasini tushunishga bo'lgan ikkinchi yondashuv ishlab chiqarishda muayyan turdagi texnika, texnologiya va boshqa yangi mahsulotlardan foydalanishga asoslanadi. Ushbu yondashuvga sodiq ayrim olimlar ishlab chiqarish faoliyatining innovatsion va ilmiy-texnik jihatlari teng deb biladi, ammo bu har doim ham to'g'ri emas.

Ammo, ushbu yondashuv yetarlicha keng tarqalgan, chunki uning asosida yotgan innovatsiyalarni ilmiy-texnik nuqtai nazardan ajratish tamoyili, innovatsiyalarning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati va maqsadlarini aks ettiradi. Bunda «innovatsiya» tushunchasi ham jarayon, ham natija sifatida tushuniladi.

Ushbu yondashuv tushunchalarining sharhi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

**Yangi mahsulot va/yoki texnologiyaga asoslangan ikkinchi yondashuv
bo'yicha innovatsiyalar ta'riflarining sharhi**

Mualliflar	Innovatsiyalar ta'rifi
Jarayonli yondashuv	
A.Xarman	Innovatsiya deganda yangi yoki ancha takomillashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etish tushuniladi
R.Djonson	Ayrim korxonalar xo'jaliklarida yangi yoki takomillashtirilgan eski jarayonlar va mahsulotlarning paydo bo'lishi
B.Santo	G'oya va kashfiyotlarni amaliy qo'llash orqali o'z xususiyatlari bo'yicha yaxshiroq mahsulot va texnologiya yaratilishiga olib keladigan jamiyat – texnik-iqtisodiy jarayon
P.Lemerl	Xarajatlarni tejavchi yoki unga sharoit yaratuvchi har qanday yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, xizmat, texnologiya va h.k.
T.Brayton	Kashfiyot yoki g'oyaga iqtisodiy mazmun beruvchi jarayon
F.Nikson	Bozorda yangi va yaxshilangan sanoat jarayonlari va uskunalari paydo bo'lishiga olib keladigan texnik, ishlab chiqarish va tijorat tadbirlari yig'indisi
Natijaviy yondashuv	
N.K.Moiseeva, Yu.P.Aniskin	Individ tomonidan yangi sifatida qabul qilinadigan g'oya, amaliyot yoki mahsulot
G.Ya.Kiperman	Jahon bozorida raqobatdosh bo'ladigan mahsulot, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish, yaratish va tarqatishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat natijasi
D.Sokolov A.Titov M.Shabanova	Muayyan jamiyat ehtiyojlarini qondiradigan va bir qator samara (iqtisodiy, ilmiy-texnik, ijtimoiy va h.) beradigan, prinsipial yangi yoki takomillashtirilgan yaratish va o'zlashtirishning yakuniy natijasi

Innovatsiyalar iqtisodiy samaradorligini ta'minlash zaruriyatini hisobga olgan holda, bir qator MDH iqtisodchilari (M.Ionov, A.Kulagin, V.Loginov), innovatsiyani «xarajatlar tejalishini yoki bunday tejash uchun sharoit yaratilishini ta'minlovchi yangi mahsulot yoki xizmat, ishlab chiqarish uslubi, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-tadqiqot va boshqa sohalardagi yangilik»⁶ sifatida ko'rishgan.

A.Utkin esa bozor sharoitida korxonalar muvaffaqiyatli iqtisodiy faoliyati uchun innovatsiyalar muhimligini ta'kidlagan holda, innovatsiyalarni korxonalar iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy zaxiralardan biri sifatida tavsiflagan⁷.

⁶ Ионов М. Инновационная сфера: состояние и перспектива // Экономист. 1993. №10. -С.62-67.

⁷ Уткин Э.А., Морозова Г.И., Морозова Н.И. Инновационный менеджмент. – М.: АКАЛИС, 1996. – С.192.

Shunday qilib, innovatsiya va yangiliklar innovatsiya faoliyati natijasida yuzaga keladi, ular o'zaro bog'liq va biri ikkinchisiz mumkin emas. Ularning asosiy farqi shundaki birinchi holatda – yangi mahsulot shakllanishi jarayoni ro'y bersa, ikkinchisida – uni tijoratlashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi juda ko'p innovatsiyalar tadbiq qilinadigan sohaga aylandi.

Ta'limdagi innovatsiyalarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Bevosita ta'lim jarayoni innovatsiyasi;

2. Oliy ta'lim muassasalari va boshqa munosabatlar innovatsiyasi.

In education innovation can be divided into two groups:

1. Directly innovation of educational process.

2. High education organizations and innovation of other relations

Bevosita ta'lim jarayoni innovatsiyasiga dars jarayonini interfaol usullar bilan o'tkazishda kompyuter texnologiyalari, multimediya, elektron darslik, slayd taqdimotlar, talabalar bilimni elektron tarmoq orqali nazorat qilish, elektron test savollari o'tkazish kabi innovatsion jarayonlar kiradi.

Bunday ta'lim jarayonida talabalar tomonidan darsni o'zlashtirish darajasi, darsga qiziqish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uzviy bog'lash, amaliy misollar asosida taqdimotlar tayyorlash orqali ularda ma'lum ko'nikmalar hosil qilinadi. Ma'ruzachi monoton ma'ruza o'qish sub'ektidan talabalar bilan faol ishlaydigan, ularni mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradigan, nutq qobiliyatini oshiradigan dars jarayonining boshqaruv sub'ektiga aylanadi.

Oliy ta'lim muassasalariaro munosabatlar integratsiyasi bugungi kunda zamonaviy axborot vositalaridan keng foydalanilgan holda amalga oshirilmoqda.

Ta'lim jarayonining globallashuvi, oliy ta'lim muassasalari aro integratsiyaning nafaqat mamlakat ichkarisida, balki xorijiy mamlakatlar bilan shakllanishi albatta eng taraqqiy etgan innovatsion usullarni tadbiq etishni taqozo etadi. Bunday integratsiya asosida video konferensiyalar, pochta konferensiyalar,

masofaviy ta'lim turlarini amalga oshirish mumkin. On-Layn rejimida o'tkaziladigan bunday faol muloqot jarayonida ikki tomondagi olimlar o'rtasida dolzarb muammolar buyicha baxs-munozaralar, ularning yechimlari, ma'lum bilim sohalari buyicha tajriba almashish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Video konferensiyalarda ikki tomon vizual ravishda aktiv muloqot olib borishi bu zamonaviy informatsion axborot tizimlarining yutuqlaridir.

Ta'limda innovatsion menejment – ta'lim muassasasini zamonaviy menejment nazariyasiga axborot-kommunikatsiya, pedagogik va boshqa innovatsion texnologiyalari vositalarini qo'llagan holda tashkiliy boshqaruv tizimining o'ziga xos turidir. Unga ko'ra, boshqaruv, iqtisodiy, psixologik va ilmiy-texnik faoliyatning alohida yo'nalishlari belgilanadi.

Innovative management in education - is a special kind of administrative activity through the application of information and communication and educational and other innovative technologies in the modern theory of management of the educational institution.

Ta'limda innovatsion menejment mazmuni:

- Ta'lim jarayonida innovatsion faoliyat rejasi va dasturlarini ishlab chiqish;
- Ta'lim texnologiyalarining taraqqiy etgan davlatlardagi usullarini qo'llash;
- Ta'lim jarayoni samaradorligini oshishiga ta'sir etadigan axborot vositalarini qo'llash;
- Oliy ta'lim tizimida umumiy innovatsion siyosat yurg'uzilishini ta'minlash;
- Boshqaruv organlari va boshqaruv bo'g'inlari o'rtasida masofaviy munosabatlarni elektron axborot vositalari o'rnatish;
- Innovatsion jarayonlarni moliyaviy va moddiy resurslar bilan ta'minlash;
- Innovatsion jarayonlarni amalga oshirish vazifalarini bajaradigan

malakali kadrlar bilan ta'minlash.

■ Xorijiy ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni boshqaruv, ta'lim, bilimlarni nazorat etish, o'quv uslubiy ko'rsatmalar yaratish, darsliklarning elektron mul'timediya avlodini yaratishga tadbiriq etish.

Ilmiy tadqiqot ishlarida innovatsiyalar ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirilgan bo'lish ilozim. Bu sohadagi innovatsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

Radikalligi (yangililigi) darajasi bo'yicha turlari:

- **bazaviy (fundamental) innovatsiyalar** - yirik kashfiyotlarni amalga oshiradi va texnika rivojlanishining yangi avlodi va yo'nalishlari shakllanishining asosi bo'ladi;

- **kuchaytirilgan (takomillashgan) innovatsiyalar** - odatda kichik va o'rta kashfiyotlarni amalga oshirishda, ilmiy-texnik siklni tarqatish va barkaror rivojlanish davrida ustunlik qiladi;

- **psevdoinnovatsiyalar** - texnika va texnologiyaning eskirgan avlodini qisman kuchaytirishga qaratiladi.

Jahon iqtisodiy adabiyotida "innovatsiya" tushunchasi ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi⁸.

Innovatsiyalar yoki «yangi kombinatsiyalarni amalga oshirish» tushunchasiga Shumpeter tashkilot, mahsulot yoki ishlab chiqarish jarayonini doimiy takomillashtirish yo'li bilan olinuvchi strategik afzallik va yutuqlarni kiritgan. U quyidagi besh holatni ko'rsatib o'tgan:

-yangi ne'mat tayyorlash;

-ishlab chiqarishning yangi usulini joriy qilish;

-yangi sotuv bozorini o'zlashtirish;

-xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar yangi manbasiga ega bo'lish;

-tegishlicha qayta tashkil qilish, masalan, monopol holatni ta'minlash⁹.

⁸Ковалёв Г.Д. Основы инновационного менеджмента. –М.: 1999. –С. 192.

⁹Шумпетер И. Теория экономического развития (исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры).-М.: Прогресс, 1982. - С. 159.

Innovatsiyalarni yaratilish omili (manbasi) bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

- fan va texnika rivojlanishi oqibatida yaratilgan (vujudga kelgan) innovatsiyalar;

-ishlab chiqarish oqibatida yaratilgan (vujudga kelgan) innovatsiyalar;

-bozor talabi oqibatida yaratilgan (vujudga kelgan) innovatsiyalar.

Boshqaruv faoliyatining mohiyati to'g'risida g'oyalar, tushunchalar, mulohazalar, uni madaniy tarzda amalga oshirish tamoyillari, shakllari va usullari haqida tizim mavjuddir. Insoniyat tomonidan fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy Muvaffaqiyatlar tobora oshirilib borishiga ko'ra boshqaruv faoliyatining **ilmga bo'lgan talabi** ham to'xtovsiz o'sib boradi. Bir tomondan, fan boshqaruv faoliyatini konseptual boyitishdan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomondan amaliyotchi boshqaruvchilar o'z faoliyatini ilmiy idrok etish, uni nazariy asoslashga intiladilar.

Management¹⁰ – the process of planning, organizing, leading, and controlling the work of organization members and using all available organizational resources to reach stated organizational goals

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim tizimining samaradorligi uning rakobatbardosh bo'lishi juda kup omillarga bog'liq bo'lib ular ichida boshqaruv funksiyalari aloxida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan xolda ta'lim tizimida innovatsion menejment oldidagi vazifalar quyidagilardan iborat;

- Ta'lim tizimdagi islohatlarni «ta'lim» to'g'risidagi va kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to'g'risidagi qonunlarda belgilangan vazifalar asosida bajarish uchun malakali kadrlarni tayyorlash;

- Ta'lim tizimini innovatsion boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish va amaliyotga tadbiiq etish;

¹⁰ James A.F.Stoner, R.Edward Freeman. Management fifth edition.Prentice-Hall International limited.

- Ta'lim sohasi boshqaruv stukturasini, boshqaruv bo'g'inlari va boshqaruv zvenolarini innovatsion menejment, va ular funksiyalarini o'rganish;
- Jahon oliy ta'limi tajribalaridan kelib chiqqan xolda ularning ilg'or usullarini innovatsion boshqaruv tizimiga joriy etish va ta'lim tizimini raqobat bardoshligini ta'minlash;
- Oliy ta'lim tizimi yuqori va o'rta bo'g'in kadrlarini mehnat bozorida raqobat bardoshligini ta'minlash va talabga ega bo'lishini muvofiqlashtirish;
- Ta'lim tizimi sifatini halqaro standartlarga mos kelishini belgilaydigan me'zonlarni tahlil va ular asosida Davlat ta'lim standartlarini zamonaviylashtirish;
- Ta'lim menejmentini takomillashtirish asosida kadrlar mobilligi va raqobat bardoshligini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion vazifalarni izchil amalga oshirish.

Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat quyidagi mexanizm asosida amalga oshiriladi.

OTMda har qanday yangilik kiritish asosiy maqsadi ta'lim sifatini yaxshilash deb ta'kidlash lozim. Ta'lim sifati qoidalariga emas mavzu sifatida baxolash xos usullari bor toifadir, texnik yangiliklar qo'llaniladi. Zamonaviy ta'lim muhiti 2 turdagi pedagogik jarayondan iborat - **an'anaviy va innovatsion**.

Pedagogik innovatsiyalar – ta'lim xizmatlarida makro, mikro va mezodarajada qo'llaniladigan nazariy asosga ega, maqsadli, amaliy asoslangan yangi ta'lim berish usullaridir.

Ta'lim xizmatlarida innovatsiyalar 5 bosqichda rivojlanadi:

Birinchi bosqich – ta'lim xizmatlarini taqdim etishda ma'lum turdagi innovatsiyalarni qo'llash tao'abbusi va yoki yangiliklarni qo'llash zarurati yuzaga chiqadi. Bunda OTM rahbariyati, yoki jamiyat ta'lim xizmatlarini yangi turlariga extiyoj sezganda, tashkilotni istiqbolli rejalarini tuzilganda yoki modernizatsiya qilish dasturi asosida 1-bosqich yuzaga keladi.

Ikkinchi bosqich – nazariy bo'lib, u ko'pincha pedagogik-psixologik taxlil asosida innovatsiyalarni o'zlashtirish yoki asoslash asosida boradi. Ushbu bosqich eng qiyin va ma'suliyatli bo'lib, aynan shu bosqichda innovatsiyalarni qo'llash yoki

qo'llamaslik masalasi hal bo'ladi. Shu bilan birga bu bosqich qo'llash rejalashtirilayotgan innovatsiyalarni axborotiy ta'minotini ta'minlab beradi. Aynan shu bosqichdagi muhim qarorlar pedagogik faoliyatga innovatsiyalarni qo'llashning muvaffaqiyatini ta'minlab beradi.

Uchinchi bosqich - tashkiliy-amaliy bosqich bo'lib, unda oliy ta'limda innovatsiyalarni qo'llash uchun kerakli tashkiliy va amaliy muhitni shakllantirish va yangilikni qo'llash imkonini beradi. Bunda tashkiliy ishlardan ko'pincha tajriba guruxlari, laboratoriya va eksperimental xonalar, kerakli asbob-uskunalar, o'quv jixozlari va texnika vositalari bilan ta'minlanadi.

To'rtinchi bosqich – taxliliy bosqich bo'lib – qo'llanilayotgan yoki tajriba qilinayotgan innovatsion loyixa yoki modelni taxlil qiladi va dastlabki natijalarni taxlilini qiladi. Ushbu bosqichda innovatsion jarayon qanday amalga oshayotgani, uni qaysi darajada – bir fan darajasida, yo'nalish yoki butun bir OTM o'quv jarayonida qo'llash ishlari aniqlanadi.

Beshinchi bosqich – tatbiq etish bosqichi bo'lib, bu balki tajribaviy bo'lishi, so'ng dastlabki natijalardan so'ng to'liq amalga oshirilishi mumkin. Ushbu bosqich *innovatsiyalarni samaradorligini* va yutug'ini belgilab beradi va u quyidagi **3 omillarga** bog'liq bo'ladi:

-innovatsion texnologiyalar qo'llayotgan ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi xolatiga bog'liq bo'ladi;

-rahbarlar va pedagoglarning kvalifikatsiyasi, ularning innovatsion moyilligi, yangiliklarga bo'lgan munosabati va ijodiy faolligiga bog'liq bo'ladi;

-ta'lim muassasasini jamoasini ma'naviy va axloqiy muhiti bilan bog'liq bo'ladi.

Ta'lim tizimi menejmentining funksiyalari. Boshqarishning o'ziga xos aniq funksiyalari deganda muayyan boshqaruv organiga va uning boshqaruvchisiga konkret biriktirilgan. Boshqarishning asosiy funksiyalari tushuniladi.

• **Rejalashtirish (planning):** asosiy va dastlabki funksiyasidir. Har qanday boshqarish reja tuzishdan boshlanadi.

Bu rejada:

- boshqaruv maqsadlari va vazifalari, ularni realizatsiya qilish muddatlari belgilanadi;

- vazifalarni amalga oshirish usullari ishlab chiqiladi;
- xalq xo'jaligi bo'g'inlarining o'zaro aloqalari o'rnatiladi;

Rejalashtirishning umumiylik xususiyati shundaki, bunda har bir boshqaruv xodimi o'zining shaxsiy ishini rejalashtiradi, o'z ish joyining faoliyati ko'rsatkichlarini ishlab chiqadi, rejalarni qanday bajarayotganini nazorat qilishni uyushtiradi.

Tashkil qilish (to organize): Bu funktsiya boshqaruv ob'ekti doirasida barcha boshqariluvchi va boshqaruvchi jarayonlarning uyushqoqligini ta'minlaydi. Shu no'qtai nazardan tashkil qilish ichki va tashqi shart-sharoitlarning o'zgarib turishiga qarab amaldagi tizim tarkibini takomillashtirish yoki yangisini tuzish demakdir. Bu funktsiya joriy va strategik rejalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha birinchi qadamdir.

Muvofiqlashtirish va tartibga solish (coordination and order): Rejalashtirish boshqarishning strategiyasi hisoblansa, muvofiqlashtirish boshqarishning taktik masalalarini hal qilib beradi. Bu funktsiyaning asosiy vazifasi oqilona aloqalar o'rnatish yo'li bilan boshqariladigan tizimning turi qismlari o'rtasida kelishib ish olib borishni ta'minlashdir.

Muvofiqlashtirish mablag'larni tejash maqsadida boshqaruvdagi paralelizm va bir-birini takrorlashni bartaraf qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, u turli tarmoqlar o'rtasida resurslarni taqsimlash yo'li bilan nisbat va mutanosiblikni, ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi munosabatni o'rnatadi.

Nazorat (control): Bu funktsiyaning maqsadi "tutib olish", "aybini ochish", "ilintirish" emas, balki boshqaruv ob'ektida sodir bo'layotgan jarayonlarni hisobga olish, tekshirish, tahlil qilish va ma'lum tartibda shu ob'ekt faoliyatini o'z vaqtida sozlab turishdir. Nazorat o'rnatilgan me'yoriy hujjatlardan, rejalardan og'ishlarni, ularning joyi, vaqti, sababi va xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Ta'sirchan nazoratni tashkil qilish har bir rahbarning funksional ishidir. Muntazam nazorat yo'q joyda yuksak pirovard natijalarga erishib bo'lmaydi.

Boshqarish faoliyatining turlariga ko‘ra, funksiyalar quyidagicha bo‘ladi:

1.boshqarishning iqtisodiy funksiyalari; ya’ni:

- mablag‘larning doiraviy oborotini amalga oshirish;
- mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish;
- marketing xizmatini uyushtirish;
- foyda olishni ta’minlash va h.k.

2.boshqarishning ijtimoiy funksiyalari, ya’ni:

- mehnat sharoitini yaxshilash,
- xodimlarning uy-joyga ehtiyojini, sotsial madaniy-ma’naviy ehtiyojlarni qondirish;

- moddiy rag‘batlantirishni ta’minlash;

- ijtimoiy himoyani ta’minlash va h.k.

3.boshqarishning ma’naviy - ma’rifiy funksiyalari, ya’ni:

- xodimlarni insoniylik, yaxshilik, mehr-shafqatli va o‘zaro munosabatlarda sabr-toqatli bo‘lish ruhida tarbiyalash;

- xodimlarni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, halollikni, adolat tuyg‘usini, bilim va ma’rifatga intilishni tarbiyalashga xizmat qilish va h.k.

4.boshqarishning tashkiliy funksiyalari, ya’ni:

- ishlab chiqarishni tashkil qilish;

- o‘zaro aloqalarni o‘rnatish va muvofiqlashtirish;

- barcha bo‘g‘in va bo‘limlar o‘rtasida vazifalar taqsimoti, huquq berish va boshqarish apparati xodimlari o‘rtasida mas’uliyatlarni belgilash;

- ***boshqarishning aniq uslubini tanlash va qaror qabul qilishda*** ish tartibi izchilligi, axborotlar oqimini tashkil qilish va h.k.

Qayd qilingan funksiyalar bir-biri bilan bog‘liq va ma’lum darajada tartibga solingan ko‘p unsurlardan, komponentlardan iborat bo‘lib, ular yaxlitlikka ega. Shuning uchun ham ta’lim tizimini ham boshqarish jarayonida ularning birortasi ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

Innovatsiya global raqobatning harakatlantiruvchi omili ekanligi M.Porter¹¹ tomonidan ko'rib chiqilgan va keyinchalik quyidagi asosiy mulohazalar keltirilgan.

Xalqaro masshtabda yetakchilikka ega bo'lgan kompaniyalar bir-biridan har jihatdan farq qiladigan strategiyadan foydalanadilar. Har bir muvaffaqiyatli kompaniya o'zining strategiyasidan foydalansa, ularning xarakteri va jamiyatning chuqur ildizi bir xil bo'lib qolaveradi. Kompaniya raqobat ustunligiga innovatsiya yordamida erishadi. Ular raqobatdoshlikka ega bo'lishi uchun yangi usullarni o'zlashtiradilar yoki samarali usullardan foydalanish raqobat kurashining yaxshi mahsuloti dizayn, yangi ishlab chiqarish jarayoni, marketing, yangicha yondashish yoki ishchilar malakasini oshirishning yangi usulida namoyon bo'ladi. Ko'pincha innovatsiya – yirik texnologik sakrashlardan emas, balki ahamiyatsiz bo'lgan yangiliklar yig'indisidan iborat bo'lgan oddiy va kichik ko'rinishda bo'ladi. Bu jarayonga ko'pincha g'oyalar jalb etiladi, yangilik bo'lmasa-da, biror-bir maqsadga yo'naltirilmaydi. Bunda doimo ishchilarning malakasi va bilimlarini jismoniy aktivlarga hamda savdo markazining obro'si oshirishga sarflash yuz beradi.

Ayrim innovatsiyalar bozorlarda yangi imkoniyatlar yaratib, raqobatda ustunlik yoki boshqa raqiblar e'tibor bermagan bozor segmentlarini to'ldirishga imkoniyat yaratadi. Agar raqiblar unga e'tiborlarni sekin qaratsalar, bunday innovatsiyalar korxonalar uchun raqobatda ustunlikka olib keladi. Masalan, Yaponiya kompaniyalari avtomobilsozlik va maishiy elektronika kabi tarmoqlarda kichik o'lchamli, kam energiya sarf qiladigan kompakt modellarga e'tiborni qaratish bilan ustunlikka ega bo'ldilar. Xalqaro innovatsiya bozorida raqobatda ustunlikka ega bo'ladiganlar ichki va tashqi talabni aniqlay oladilar. Masalan, Shved kompaniyalari Volvo, Atlas Copco va AS kabi jahonda xavfsiz mahsulotlarga bo'lgan xalqaro talabning oshishini anglagan holda, shu sohada bozorda qulay sharoit vujudga kelishini oldindan bilib, jahon bozorida muvaffaqiyatga erishdilar. Shu bilan birga ichki bozorda innovatsiya o'ziga xos hisoblansa ham, xalqaro raqobatda muvaffaqiyatga erishishga xalaqit berishi mumkin. Masalan, AQSh qudratli harbiy bozorining o'ziga tortishi Amerika kompaniyalarining

¹¹ Портер М.Е. Конкуренция. – СПб., М., Киев: Изд. дом«Williams», 2000.

jahon bozoriga materiallar, asboblari va mexanizmlarni ishlab chiqarishga jalb qiluvchi korxonalarini jahon savdo bozoridan e'tiborini chalg'itgan.

Yangilikni joriy etish jarayonida va unga o'zgarishlar kiritilganda axborotga ega bo'lish muhim rol o'ynaydi, raqobatchilar axborotlarga ega bo'lishi qiyin yoki ularda axborotga ehtiyoj bo'lmaydi.

M.Porterning fikricha¹², millatning raqobatbardoshligi quyidagi omillarga bog'liq:

- millat aniq yangiliklarni sanoatga tatbiq etish va modernizatsiyalash qobiliyati bilan;

- raqobat kurashining asosining bilimlarni yaratish va o'zlashtirish tomoniga ko'proq siljiganini anglash;

- kompaniyalarning raqobat kurashida innovatsiya asosida afzallikka erishish qobiliyati;

- raqobat afzalligiga innovatsiya yordamida erishish;

- raqobat kurashida erishilgan afzallikni saqlash uchun yagona imkoniyat doimo yangiliklarni takomillashtirish kerakligini anglash;

- raqobatda afzallikka ega bo'lishning to'rtta Romb qoidasi mavjudligi;

- boshqa davlatlarning "Romb komanda"sini o'zgartirgan holda, uning afzalliklardan foydalanishga to'g'ri yondashishi;

- globalashuvga boshqa millatlar rombini afzallik manbalardan tanlab foydalanish orqali to'g'ri yondashish;

- nima uchun chet el kompaniyalari yuqori malakali mutaxassislardan o'zlarining faoliyatlarini o'rganishda foydalanadilar, degan savollarning afzal javoblarini izlash qobiliyatiga ega bo'lish;

- raqobatdagi 13 ustunlik uzoq muddatli takomillashtirishning natijasi ekanligini anglash (sirlarni himoya qilish yashirish bilan emas).

Shunday qilib, M.Porter kompaniyaning raqobatdagi ustunligini global raqobatning kaliti innovatsiyani olib borish va tatbiq etish, ya'ni innovatsiya birjasini tashkil etishda, deb hisoblaydi¹³. U jahon bozorida yetarli darajada ta'sir o'tkaza olgan o'ndan ortiq

¹² Портер М.Е. Конкуренция. – СПб., М., Киев: Изд. Дом «Williams», 2000.

¹³ Портер М.Е. Конкуренция. – СПб., М., Киев: Изд. Дом «Williams», 2000.

davlat (Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya, Italiya, Koreya, Singapur, AQSh, Shveysariya, Shvesiya va Yaponiya) larning raqobatbardoshligini tadqiq etdi. Millatning raqobatbardoshlik qobiliyatini saqlab qolgan sharoitlarni tushuntirishni shubha ostiga oldi:

- makroiqtisodiy budjet tanqisligi va bank krediti stavkasining pastligi (Janubiy Koreyada aksincha);

- eksport qiluvchi tarmoqlarda mahalliy ish kuchining arzonligi (Germaniya, Shveysariya, Shvesiyada bunday emas):

- tabiiy resurslarning serobligi (Janubiy Koreya va Yaponiyada bunday emas);

- davlatning iqtisodiyotga aralashuvi (Italiya va Tayvanda aksincha).

Ayrim millatlar raqobatbardoshlik qobiliyatini oqilona tushuntirish o'zining alohida imkoniyatlariga ega bo'lgan firmalarning mavjud ekanligidir.

Bu afzalliklardan foydalanishning eng istiqbolli usuli innovatsiya faoliyati, ayniqsa, uning strategik qirrasidir. Davlatning roli dastavval quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

Aksariyat hollarda innovatsiyalar sodda va kichik hajmlarda, yagona yirik texnologik o'sishga nisbatan, biror kichikroq jarayon ko'rsatkichlarini yaxshilash va rivojlantirish tadqiqoti yoki bozorni o'rganish mahsuli bo'ladi. Ko'pincha innovatsiyalar maqsadli harakat, kashfiyot, to'g'ri qarorlar, izlanishlar natijasidir. Shu sababli yangiliklarni (novatorlar) ishlab chiqaruvchilar sanoatning ma'lum tarmog'i yoki davlatdan ajralib qoladilar. Yangilik yangi kompaniyadan (u an'anaviy ravishda ish yuritmagan yoki mashhur bo'lmasligi mumkin) kelishi mumkin. Yoki yangi kompaniyaga qo'shilishi bilan (shu sohada ish boshlagan, yangi imkoniyatlarni sezayotgan va uni amalga oshirishga harakat qilayotgan katta menejerlar orqali amalga oshirish mumkin) innovatsiya, shuningdek, kompaniya aktivligi doirasining kengayishi, yangi resurslarni jalb etish, yangi tarmoqqa ko'nikmalar bilan yangi istiqbol ham vujudga keladi. Ular shuningdek, boshqa millat va boshqa sharoitlardan yoki raqobat kurashining boshqa usullaridan o'zlashtirishdan kelib chiqishi mumkin.

Kamdan-kam istisnoli hollarda innovatsiya noodatiy harakat natijasi bo'ladi. Kompaniya o'z raqobat kurashida yoki kuchli vositalarining muvaffaqiyatli tatbiq etayotganida maqsadiga ikkilanmasdan intiladi, jiddiy to'sqinliklardan chekinmaydi.

Haqiqatda yangilikni joriy etish, muvaffaqiyatga erishish uchun bosim zarurligini anglash, hatto ayrim agressivlik, yo'qotishdan qo'rqish ko'pincha muvaffaqiyat qozonishda umidga nisbatan yetarli, qudratli harakatlantiruvchi kuch bo'lib qoladi. Kompaniyalar yangiliklar asosida raqobatda ustunlikka erishgandan so'ng, ularni takomillashtirish yordamida saqlab qolish mumkin. Amalda har qanday muvaffaqiyatni takrorlash mumkin. Koreya kompaniyalari rangli televizor va videomagnitofonlarni ommaviy tarzda ishlab chiqish bilan raqobatdoshlari imkoniyatlariga erishdilar. Braziliyalik kompaniyalar teridan poyafzalning alohida turlarini ishlab chiqadigan raqobatbardosh italiya firmalariga teng keladigan darajada texnologik jarayonlarni shakllantirdilar va dizaynini ishlab chiqdilar.

Raqobatchilar innovatsiyani takomillashtirish va uni joriy etishni to'xtatgan kompaniyalarni darhol aylanib o'tadilar. Ba'zan iste'molchilar bilan bo'lgan munosabatlarida mavjud texnologiyalari mahsulotlarni sotishni kafolatlaganda harakatsiz kompaniyalar ham uzoq vaqt raqobatbardoshlikka ega bo'ladilar.

Ba'zi davlatlardagi yetakchi kompaniyalarning yangilikka erishish va unga ega bo'lishga intilishining sababi nimadan iborat? Nima uchun ular raqobat kurashida ustunlikka erishishning murakkab manbalarini qidirishdan to'xtamaydilar?

Bu savollarga davlatchilikning to'rt xususiyatidan kelib chiqib javob berish mumkin. Javoblar birgalikda mamlakat raqobatbardoshlikda ustun ekanligining isbotlaydi. Har bir davlat o'z xususiyatlarini o'zi vujudga keltiradi va uni qo'llab-quvvatlaydi. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:


1) omillar uchun shart-sharoitlar. Davlatning tarmoqda raqobat kurashini amalga oshirishda, ishlab chiqarish omillarining qanday shaklidan foydalanishi (malakali ish kuchi infratuzilmasining mavjudligi);

2) talabning holati. Ichki bozordagi tarmoqda mahsulot va xizmat ko'rsatishga talab;

3) xalqaro darajada raqobatbardosh bo'lgan davlatlarda, mahsulot yetkazib beruvchi hamda unga yordam beradigan tarmoqlarning mavjudligi va mavjud emasligi;

4) barqaror strategiyaga, tarkibga va raqobatbardoshlikga ega bo'lgan kompaniyalarining yaratish va uni boshqarish uchun mamlakatdagi mavjud sharoit, shuningdek, ichki raqobat tavsifi.

Bu omillar kompaniyalarning vujudga kelishi va raqobatni o'rganishda qulay milliy muhit yaratish sharti bo'lib qoladi (1-rasm).



**1-rasm. Mamlakatning raqobatda ustunligi omillari
(Porter rombi)**

1-rasmida ko'rsatilgan har bir cho'qqi va ularning barchasi birgalikda xalqaro miqyosdagi raqobatda muvaffaqiyatga erishishning muhim elementlarini tashkillashtirishni tasvirlaydi. Tarmoqda raqobat ustunligiga erishish uchun kerak bo'lgan axborotlarning mavjudligi; malakali xodimlarni jalb etish uchun resurslarni sarflash yo'nalishini bexato aniqlash; mulk egalari, menejer va kompaniya ayrim xodimlarining kompaniya faoliyatiga yangiliklarni kiritishga bo'lgan intilishini anglagan holda unga mablag' sarflash.

Mamlakat ichidagi vaziyat, ixtisoslashtirilgan holat aktivlarini juda tezlikda to'plash va amaliy hal qilish hamda, qo'llash holatida ayrim hollarda katta harakat va majburiyatlar sababli kompaniyalar raqobat ustunligiga erishadilar. Mamlakat ichida muhim axborotlar oqimi bilan yaxshi ta'minlanganlik, ishlab chiqarish jarayonida ma'lum bir mahsulotga bo'lgan ehtiyojni to'g'ri tushunish ham kompaniyani raqobatda ustunlikka erishtiradi. Va nihoyat, mamlakatdagi vaziyat muntazam ravishda yangiliklarni kiritish va investitsiyalarni sarflashga majbur etsa, kompaniya nafaqat

raqobat ustunligiga erishadi, balki keyinchalik ham mavjud ustunlikni kuchaytirib boradi.

Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, ichki raqobat kurashini hisobga olish butunlay ortiqchadek: u harakatlarni takrorlashga olib keladigan kompaniyalar faoliyatini xalqaro miqyosda o'rganilganda uning muvaffaqiyatiga xalaqit bergandek bo'lib ko'rinadi, shu nuqtai nazardan qaraganda yechim bitta yoki ikkita ilg'or kompaniyalarning katta miqdorda mahsulot ishlab chiqarishi va chet el raqobatchilariga qarshi turish uchun yetarli kuchga ega bo'lganini tanlash va ularni kerakli bo'lgan resurslar bilan ta'minlash va qo'llab-quvvatlashdan iborat. Ko'p holda davlatning yetakchi milliy kompaniyalarni yirik iqtisodiy omillar hamda subsidiyalar bilan ta'minlashi ham ularning raqobatbardoshligini ta'minlay olmaydi. Mamlakat yetakchi tarmoqlarida: faqat birgina aerokosmik agentlik yoki telekommunika-siyalar markazi bo'lsa, raqobat yemiriladi.

Statistik samaradorlik ichki raqobatni past darajada rag'batlantiradigan dinamik takomillashtirishga nisbatan kamroq ahamiyatga ega. Ichki raqobat har qanday raqobat kabi kompaniyalarga yangiliklarni kiritish va uni takomillashtirishga majbur etadi. Mahalliy raqobatchilar bir-birlarini baholarni tushirishga, mahsulot sifati va xizmatlarni yaxshilashga, shuningdek, yangi mahsulotlar va jarayonlarni yaratishga majbur qiladilar. Chet el kompaniyalari bilan bo'ladigan raqobat kurashiga qaraganda, mahalliy raqobat ko'pgina sof-iqtisodiy musobaqa doirasidan chiqib yetarli darajada mustaqil bo'lib qoladi. Bir mamlakat doirasida raqobatchilar o'z faoliyatiga meros bo'lib qolgan yetarli faol raqiblarni jalb qiladilar. Ular nafaqat bozorni, balki kishilarni, texnik yutuqlarni bo'lib olish uchun kurashadilar. Bitta raqobatchi milliy kompaniyaning muvaffaqiyati boshqalarga shu sohada yutuqqa erishishi mumkinligini isbotlaydi va ko'pgina yangi xodimlarni jalb etadi. Kompaniyalar ko'pincha chet el kompaniyalarining yutug'ini ularning o'ziga xos bo'lgan ayrim maxsus afzalliklariga bog'laydilar. Ichki raqobatda yutqazgan kompaniyalarning aybi yo'q. Kompaniyalar-ning bunday joylashuvida ularning konsentratsiyasi ham ichki raqobatni kuchaytiradi. Ichki raqobatdan keladigan yana bir yutuq tazyiqdan iborat bo'lib, muntazam ravishda ustunlikka erishish manbaini doimiy takomillashtirish uchun sharoit yaratadi. Ichki bozorda raqobatchilarning mavjudligi barcha ustunlik turlari omillar xarajatining milliy bozorga kirish imtiyozlari

chet elliklarning harakatlariga imtiyozlarni (import) bekor qiladi. Kompaniya yuqorida aytib o'tilgan afzalliklardan voz kechishga majbur bo'lib, natijada barqaror afzallikka erishadi. Shu bilan birga ichki raqobat kompaniyalarni davlatning qo'llab-quvvatlashiga erishishga yuqori mas'uliyat bilan qarashga majbur qiladi.

Kompaniyalarning davlat shartnomasi bilan chegaralanib qolishi yoki tarmoqda yopiq savdo siyosati qo'llash ehtimolidan holi. Buning o'rniga har bir tarmoq davlat qo'llab-quvvatlashining foydali shakllarini yani tashqi bozorni o'zlashtirishda yordam, malum bilim olish tizimiga investitsiyalarni sarflash va boshqa mahsus omillarni izlaydi. Aynan kuchli ichki raqobat kompaniyani tashqi bozorga chiqishda muvaffaqiyatga erishishga sabab bo'ladi. Ko'pincha iqtisodiyotning keng qamrovli tarmoqlarida mahalliy raqobatchilar tashqi bozorga e'tibor qaratishiga majbur bo'ladilar. Rentabellikni oshirishda kuchli raqobat kurashida sinalgan kompaniyalar chet ellarda ham muvaffaqiyatga erishish qobiliyatiga ega. Muvaffaqiyatga erishishda har to'rtta kompaniyaning biri rombning raqobat kurashida ustunlikka ega bo'lish nuqtalariga mos keladi. Bu – bo'g'inning holatiga bog'liq. Masalan, mehnat resurslarining sifati kompaniyaga xaridorlar talabiga moslashish imkoniyatini bermasa,, xaridorlarning talabi mahsulotlarni o'z-o'zidan yaratishga olib kelmaydi. Raqobat yetarli darajada kuchli bo'lmasa va kompaniya oldiga qo'ygan maqsadi kerakli investitsiya bilan ta'minlanmasa, ishlab chiqarish omillaridagi aniq kamchiliklar yangilanishni rag'batlantirmaydi. Umuman, bo'g'indagi har bir kamchilik tarmoqning rivojlanishi va yangilanish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga Rombdagi holatlar bir-birini kuchaytirish xususiyatiga ega, chunki ular yaxlit tizimni tashkil etadi. Ichki raqobatda ikkita element hududiy to'planuv va rombning yagona tizimga aylanishida, ayniqsa, kuchli ichki raqobat barcha taraflarning holatlarini takomillashtirish kaliti hisoblanadi. Xududiy to'planuv to'rt alohida omillarning yig'indisining yanada rivojlanishini rag'batlantiradi. Ichki raqobat, shuningdek, mahalliy va bir-biriga yordam beradigan sanoat tarmoqlarining vujudga kelishiga imkoniyat yaratadi. Masalan, jahon miqyosida yarim o'tkazgichli texnologiyalar sohasida ilg'or bo'lgan Yaponiya, ushbu asboblarni ishlab chiqarish bilan shug'ullangan ishlab chiqaruvchilarni turli yo'llar bilan rag'batlantirgan va natijada yetakchi o'rinni egallagan. Bu samara hamma yo'nalishlarda ham

ishlashi mumkin: ayrim vaqtlarda transmilliy darajadagi ta'minotchilar, o'zlari ta'minlaydigan tarmoqning hamkorlariga aylanib qoladilar yoki strategik ahamiyatga ega ekanligiga ko'zlari yetsa, o'zlari mol yetkazib beruvchilar qatoriga kiradilar. Rombning tizimli tavsifga egaligining yana bir tomoni unda raqobatbardosh tarmoqlarning har biri bilan munosabatlarni amalga oshirish muhitining vujudga kelishini ifodalaydi. Raqobat-bardosh tarmoqlar iqtisodiyotda tartibsiz tarqoq joylashmagan, ular odatda bir-biri bilan vertikal (xaridor-sotuvchi) yoki gorizontaal (umumiy iste'molchilar, texnologik kanallar vositalari) tarzda bog'langanlar. Bu guruhlar jismoniy jihatdan bo'linib tashlanmaydi. Ular geografik jihatdan bir-biriga intiladi. Bitta raqobatbardosh kompaniya o'zaro kuchayishi natijasida ikkinchisining vujudga kelishiga yordam beradi. Masalan, maishiy elektronika ishlab chiqaruvchi Yaponiya kompaniyalari o'zlarining yarim o'tkazgichli texnologiya sohasidagi yutuqlarini xotira planti va integral sxemalar ishlab chiqarishga ko'chirdilar. Laptop kompyuterlarini ishlab chiqaruvchi Yaponiya kompaniyalari nisbatan afzallikka ega bo'lmasalarda, kompakt ixcham buyumlar, kalkulyator va soatlar, suyuq kristalli displeylar ishlab chiqarishda bilim va tajribaga ega bo'lgan kompaniyalarga nisbatan kuchli ishlab chiqaruvchilar hisoblanadilar. Klaster vujudga kelishi bilan guruhdagi tarmoqlar o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlashga o'tadi. Ustunlik oldinga, orqaga va gorizontaal yo'nalishda tarqaladi. Bir tarmoqdagi kuchli raqobat boshqa tarmoqlarga texnologiyalarni uzatish, bozor pozitsiyasining rivojlanishi va mavjud kompaniyalarning diversifikatsiyalashuvi orqali klaster chegarasida tarqaladi. Klaster ichidagi boshqa tarmoqlarning bozorga kirishi ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini rag'batlantirib, yangi strategiya hamda ko'nikmalarni kiritishga yordam beradi va modernizatsiyani jadallashtiradi. Iste'molchilar va ta'minotchilar orasidagi kanal orqali ko'plab raqobatchilar bilan aloqada bo'lgan kompaniyalar o'rtasida axborot va innovatsiyalar erkin tarqalishi kelib chiqadi. Guruh atrofidagi o'zaro aloqalar, odatda, kutilmagan yangi raqobat kurashi va yangi imkoniyatlardan foydalanish kerakligini keltirib chiqarishni anglatadi. Klaster har xillikni qo'llab-quvvatlash, qarashlarni tor fikrlash, sustligi yetarli darajada bo'lmagan egiluvchanlikni bartaraf qilish vositasi bo'lib qoladi. Klasterning yangiliklarni kiritish va unumdorlikni oshirishdagi afzalligi bu yerda xavf-xatar yuqori

bo'lsa-da, alohida joylashganlarga nisbatan muhimroq bo'lishi mumkin. Birgina ustaning unumdorlikni oshiradigan ayrim fazilati yangilikni kiritishda eng muhim omil bo'ladi. Ko'pincha klasterga kirgan firmalar xaridorlarning ehtiyojlariga tezlikda e'tibor berishga qodir. Klaster tarkibidagi firmalar xaridor ehtiyojlarini, ular bilan mustahkam aloqalarni o'rnatgan firmalar haqida maxsus axborotlar to'plash strukturasi hamda buyurtmachilar-ning talabini o'rganuvchi kompaniyalarning to'planuvidan naf ko'radilar. Klasterga kirgan firmalar ko'pincha talab tendensiyasini ular bilan raqobatda bo'lgan alohida firmalarga nisbatan tezroq aniqlashlari mumkin. Klaster yangi texnologiya, usul yoki ta'minotni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Klasterga kirgan firmalar texnologiyadagi taraqqiyotdan, yangi komponentlar va asbobolarni qo'llash muhimligidan, xizmat ko'rsatish va marketing haqidagi yangi konsepsiyadan tezda xabardor bo'ladilar va uni muntazam kuzatadilar, chunki bu vazifalar klasterda boshqa a'zolar va shaxslar o'rtasidagi o'zaro aloqalarda amalga oshadi. Klasterga a'zolik boshqa firmalar faoliyatini bevosita kuzatishni yengillashtiradi. Bunga qarama-qarshi holda yakkalangan firmaning axborotlarga kirishi qiyin va unga ko'proq haq to'lashga majbur. Uning uchun o'z strukturasi doirasida yangi bilimlarga erishish uchun qo'shimcha resurslarni ajratish zaruriyati oshadi. Klasterning yangi innovatsiyalar uchun imkoniyatlar yaratish kerakligini anglashdagi salohiyati yuqori bo'lib, bu ularning mazkur ehtiyojga tez e'tiborni qaratishdagi egiluvchanligida ifodalanadi. Ko'pincha klaster chegarasidagi firmalar yangi xizmatlar, asbob-uskunalar uchun tezkorlikda manbalarni topishi mumkin.

Innovatsiyaning elementlarini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan elementlar qanday bo'lishidan qat'i nazar, yangi ishlab chiqarish jarayoni yoki ta'minotning yangi modeli bo'lishi mumkin. Mahalliy ta'minotchilar va sheriklar haqiqatan ham qobiliyatli bo'lib, ular yangilanish jarayoniga jalb etiladilar va bu bilan firmalarning ehtiyojiga mos keladigan mahsulotlar bilan ta'minlaydilar. Yangicha yondashish natijasida kerakli bo'lgan xodimlarni shu joyning o'zida tanlab olish mumkin. Yangiliklarni kiritish jarayonida bir-biriga o'zaro yordam beruvchi ishtirokchilarning bir-biriga yaqin joylashishi foydali bo'ladi. Klasterdagi firmalar yangi buyum, jarayon yoki xizmat ko'rsatishni kam xarajatlar bilan sinovdan o'tkazib, undan foyda olishga ishonch hosil

qilmagunlaricha, o‘zlariga katta majburiyat olmaydilar. Bunga qarama-qarshi firmalar uzoq joydagi resurslarni tashish tizimida yuk ortishni ta’minlash, texnikaviy qo‘llay olish va servis xizmatini amalga oshirish, shuningdek, faoliyat jarayonida ko‘p sonli boshqa tizimlar bilan kelishishga ko‘proq e’tibor berishga majbur bo‘ladilar. Manbalarga ko‘ra zarur innovatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan savdodagi qiyinchilik ichki kapital qo‘yilmalar qadrini tushiradi, bunda yangiliklarni rivojlantirish davrida mavjud bo‘lgan mahsulotlarni va jarayonlarni qo‘llash zaruriyati vujudga keladi. U yoki bu afzallikning innovatsiya bilan asoslanishi geografik jihatdan birlashgan klasterda, ayniqsa, raqobat moslashtirishga yo‘naltirilgan va muntazam taqqoslash olib boriladigan bosim ostida yanada kuchayadi.

Mavjud bo‘lgan firmalarning (keskin raqobatchilik sharoitida) bir-biriga o‘xshashligi (masalan, ish kuchi qiymati, yordamchi vositalar) ularning o‘z faoliyatlariga ijodiy yondashishni talab etadi. Klasterdagi ayrim firmalar uzoq vaqt davomida ilg‘or bo‘lib qolishi qiyin, lekin ko‘pgina firmalar boshqa xududlarda joylashgan o‘xshash firmalarga qaraganda tezroq rivojlanadi. Bozor raqobatbardoshligi uning bugungi kundagi muhim xislati bo‘lishi uchun innovatsiyalarning rolini yanada oshirish kerak. Tashqi muhitdagi holatning o‘zgarishi kompaniya faoliyatida innovatsiyaning roli va o‘rnini qaytadan ko‘rib chiqishni talab etadi. Jahon bozorlarining XX asrdagi rivojlanish tendensiyalaring tahlili uning asosiy xususiyatlarini keltirib chiqardi. Bozor rivojlanishining to‘xtovsiz o‘zgarishi nomuvofiqlik va kutilmagan joyda vujudga kelishida ifodalanadi. XX asrning oxirlarida quyidagi tendensiyalar kuzatildi:

- bozorning baynalmilallashuvi;
- kompyuter tarmoqlarining rivojlanishi, marketing va savdoning real vaqt mobaynida tutashib ketishi;
- biznesning strategik tavsifga ega bo‘lishi (innovatsiya biznesining globallashuvi, servis xizmati va axborotlar bilan ta’minlanishi);
- kompaniyalar o‘rtasidagi raqobat yangi darajaga ko‘tariladi va global tavsifga ega bo‘ladi;
- xalqaro hamkorlik texnologiyalarni natural holda almashtirish yoki “nau-xau”dan iborat bo‘lib qoladi. Hozigi davrda jahon bozori va mintaqaviy inson faoliyatining barcha

sohalarida iqtisodiyotda tizimli integratsiya amalga oshmoqda, natijada jadallashgan iqtisodiy o'sish, zamonaviy texnologiya va boshqarishning yangi usullarini joriy etish amalga oshmoqda. Hozirgi davrda quyidagilar kuzatilmoqda:

- davlatlarning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyasi;
- kommunikatsiya vositalarining globallashuvi;
- yangi xalqaro moliyaviy oqimning o'sishi va moliyaviy bozorlar globallashuvi;
- kompaniyalar faoliyatining globallashuvi va axborotlar bozori hamda, ilg'or texnologiyaga asoslangan holda ularning transmilliy korporatsiyalarga aylanishi;
- raqobatda ustunlik endilikda inson kapitalining sifati, bilim olish va ishlab chiqarishda, fan va texnikani ishlab chiqarishda qo'llash darajasi bilan aniqlanadi.

Ish kuchi va xomashyoning ko'pligi raqobat ustunligi deb atalmaydi. Jahon iqtisodiy tizimining eng muhim xususiyati kompaniyalarning jahon miqyosida to'planuvi va xo'jalik faoliyatining globallashuvi bo'lib qoldi. Transmilliy kapitalning konsentratsiyasi ishlab chiqarish va yangi sifat darajasiga ko'tarildi. Dunyo xalqaro moliyasi yangi tartiblarini shakllanishida xalqaro kapital, transmilliy kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Hozirgi davr iqtisodiy o'sishida fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish asosiy omillarining aqliy salohiyatidan foydalanish yuqori ahamiyatga egaligi bilan tavsiflanadi. Rivojlangan davlatlarda YaIMni yaratishda, texnologiya uskunalarda aks etgan bilimlar va ishlab chiqarishni tashkil etishdagi bilimlar ulushi 80 – 95 foizni tashkil etadi. Bozor raqobatida muvaffaqiyatga erishishda yangi texnologiyalar asosiy kalit bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot, tovarlar va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda asosiy vosita bo'lib qolmoqda. Yangiliklarni kiritish raqobat kurashining asosiy sharti bo'lib, bunda ilg'or korxonalariga yangi texnologiya va mahsulotlarni o'zlashtirish, yuqori foyda olish hisobiga intellektual rentaga monopol egalik qilish imkonini beradi. Hozirgi davrda iqtisodiy o'sishning muhim xususiyati, uzluksiz innovatsion jarayonlarga o'tish bilan tavsiflanadi. Bugun ITTKning sur'ati ko'p holatlarda iqtisodiy o'sishni aniqlaydi. Global iqtisodiy raqobat kurashida ilmiy tadqiqot va ilmiy-texnika taraqqiyotiga davlatlar tamonidan qulay sharoitlar yaratilsagina jamiyatda iqtisodiy samara yuzaga keladi. Shuning uchun korxonaning global raqobat kurashidagi muvaffaqiyati, davlatning ilmiy-texnikaviy

bazani yaratish sohasida olib boradigan siyosatiga bevosita bog‘liq. XXI asrda global raqobat faqat mamlakatlar o‘rtasidagina emas, balki har bir aholi tizimi kapitalining jamg‘arilishi, ishlab chiqarish tadbirkorlik strukturasi bilan bilimlarni qo‘llashni tashkil etish asosida takror ishlab chiqarishni amalga oshiradigan transmilliy tizimlar o‘rtasida amalga oshadi. Jahon global iqtisodiy rivojlanish jarayonlari, uning to‘xtovsiz harakatini amalga oshiradigan qator shunday tizimlardan tashkil topadi. Kompaniyalarning jahon iqtisodiy tizimidagi faoliyati, ularning xalqaro bozorlarga chiqishi yoki jarayonga jalb etilishi ularning globallashtirishidan darak beradi. “Transmilliy” deganda, faoliyatning ko‘p qismi mamlakatning va milliy bozor manfaati chegarasining tashqarisida amalga oshadigan kompaniya tushuniladi.

Bu kompaniyalar faoliyatining ko‘lami juda keng va ular xilma-xil: uning tarkibini turli tarmoqlarda turlicha strategiya bilan faoliyat yuritayotgan tashkilotlar tashkil etadi. Mazkur tashkilotlar o‘zaro raqobat kurashida multilokal yoki global tarmoq yo‘lini tanlaydilar. Ular bir-birlaridan iqtisodiy imkoniyatlari va yutuqlarga erishish yo‘llari bilan farqlanadilar. Multilokal tarmoqlardagi kompaniyalar chet el bozorlaridagi mavjud mustaqil strategiyalarni kuzatadilar, raqobat muammolarini aniqlashda bir bozorga nisbatan hal qilmaydilar. Chet eldagi har bir filial strategik mustaqil bo‘lim hisoblanadi. Uning tezkor faoliyati ham mohiyati jihatidan avtonom bo‘ladi. Transmilliy kompaniyalarning qarorgohi global ko‘lamda boshqarishning moliyaviy tayanchi hisoblanadi va marketing siyosatini muvofiqlashtiradi, ular ITTKIning va kompaniyalar ishlab chiqarishining bir qismini markazlashtiradilar, lekin uning ishlab chiqarish strategiyasi va tezkor faoliyati to‘liq markazlashtirilmagan bo‘lib qoladi. Har bir filial foyda olish markazi hisoblanadi, uning kompaniyalar rivojiga qo‘shadigan ulushi aniq bozor imkoniyatiga mos kelishi kerak deb mo‘ljallanadi. Kompaniya mahalliy menejerlari ITTKIning ishlab chiqarishda, marketing va mahsulotlarni sotishda muvaffaqiyatga erishishda barcha zarur ishlarni qilish, oxirgi natijalar uchun javobgarlikni oshirishni afzal deb hisoblaydilar. Boshqacha aytganda, kompaniya boshqa transmilliy kompaniyalar, mahalliy raqobatchilar bilan alohida bozorlarda ham raqobat qiladi. Multilokal kompaniyalardan farqli ravishda, global tarmoq butun dunyo ishlab chiqarish va bozor tizimini xuddi shu kompaniya tizimi bilan raqobatda bo‘lishga majbur

qiladi. Bu holda turli mamlakatlardagi shu'ba korxonalari bir-biri bilan tezkor faoliyat yuritish strategiyasi bilan bir-biriga juda bog'liq bo'ladi. Shu'ba korxonalar bir mamlakatda kompaniya mahsuloti assortimentining ma'lum qismini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lishi mumkin, uni tizimning boshqa filiallari mahsuloti bilan ayirboshlash mumkin. Har bir davlatning foyda olish yo'llari jahon xo'jaligi tizimida tutgan o'rniga bog'liq. Kompaniyalar har bir davlatdagi mahsulot bahosini ikkinchi davlatdan oladigan xohlagan samaraga qarab belgilashi mumkin.

Global biznes sharoitida kompaniya rahbarlari jahon bozorida kam sonli boshqa transmilliy kompaniyalar bilan har yerda raqobatda bo'ladi. Strategiya markazlashgan holda ishlab chiqiladi, tezkor faoliyat qirralari markazlashgan markazlashmagan bo'lishi mumkin. Barisi iqtisodiyot talabi va samaradorligiga bog'liq. Kompaniya mahalliy bozorning talablariga e'tibor bergan holda, global tizimda umuman samaradorlik pasayib ketmasligiga harakat qiladi. Global kompaniyalar (millatiga bog'liq bo'lmagan holda) o'zlarining xorijiy raqobatchilariga ta'sir etishning asosiy tayanchlarini – xalqaro ishlab chiqarish iqtisodiyotidan pul oqimlarigacha nazorat qilishga harakat qiladi. Andozaga tushmaydigan harakatlar (masalan, muhim bo'lgan mahsulotlar bahosini tushirib yoki bozordagi baholarni tushirish) bilan kompaniya o'zining raqobatchilari javob realizatsiyasini qiyinlashtiradilar va qimmatlashtiradilar. Asosiy maqsad o'zining shaxsiy samaradorligini oshirish va raqobatchilarning samaradorligini pasaytirish bo'lib qoladi. Lekin har bir kompaniyada raqobat strategiyasini ishlab chiqish shart emas. Global raqobatdan olinadigan yutuq katta bo'lsa-da, uning xavfi ham shunga yarasha katta bo'ladi. Global raqobat strategiya va tezkor faoliyatga murakkab jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Global raqobat transmilliy kompaniyalarning korporatsiyalarni boshqarishda qator nostandart yondashishlardan foydalanishini talab etadi, masalan;

- investitsiya kapitalidan nol yoki manfiy foyda oladigan investitsiya loyihalari;
- turli xorijiy shu'ba kompaniyalarda moliyaviy faoliyatning turli-tumanligi;
- mahsulotlar assortimentining mustahkamligi ataylab haddan tashqari mustahkamlik zonasi bilan loyihalalanadi yoki ayrim bozorlarda past bahoda sotiladi;

- Har bir davlatning xalqaro bozor portfelidagi bir biriga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan, daromadligiga ko‘ra ko‘paytirish yoki kamaytirish mumkin bo‘lgan mavqei(o‘rni) haqidagi tasavvurlar;

– Ish kuchining arzon yoki qimmatligiga ko‘ra mamlakatlarda ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish.

Hozirgi kunda global hisoblanayotgan tarmoqlarning deyarli barchasida (masalan, avtomobil va televizorlarni ishlab chiqarishda) ilgari bunday holat bo‘lmagan. Har bir kompaniya o‘zining salohiyatini anglagan va baholagan holda multilokal raqobatdan globaliga o‘ta olishi, unga bunday o‘tish samarali ekanligini tushunishi kerak. Agar hech qanday kafolat bo‘lmasa, biznes global bo‘lishi uchun global raqobat kurashi bilan bog‘liq bo‘lgan katta miqdordagi kapital mablag‘larni xavf-xatar ostida sarflashga tayyor bo‘lishi kerak.

Xeksher-Olinning xalqaro savdo nazariyasi tashqi savdoning shakllanishi va taraqqiyoti yo‘nalishlarni tushuntirib berdi. Resurslari ko‘p bo‘lgan davlatlar o‘z mahsulotlarini jahon bozoriga nisbatan arzon bahoda sotish imkoniga ega bo‘ladilar. Lekin XX asr o‘rtalarida Xeksher Olin nazariyasini AQSh iqtisodiyotining 1947 yildagi ma’lumotlari asosida empirik tekshirish natijasida amerikalik iqtisodchi V.Leontev qarama-qarshi xulosaga keladi: Kapital hajmi yuqori bo‘lgan AQSh importida, kapital sarfi yuqori bo‘lgan tovarlarning ulushi katta bo‘lganligini ta’kidlaydi va mahsulotlarning yashash davri nazariyasi asosida jahon savdosining rivojlanishini tushuntirib berdi. Tovarining yashash davri arzon ishlab chiqarish omilining rivojlanishiga qarab, ishlab chiqargan mamlakatlarga ko‘chadi. Bunda xarajatlar qanchalik kam bo‘lishi raqobatda yengishning asosiy sharti hisoblanadi. Xalqaro savdoning yangi integratsiyasi bozorlarni shakllantiradi va shunday qilib iste’molchilarga ko‘plab tovarlarni ancha arzon baholarda taklif qilish imkonini beradi. Lekin ko‘lam samarasini amalga oshirish, takomillashgan raqobat kurashining yemirilishiga olib keladi, chunki ko‘lam samarasi amalda korxonalarining yiriklashuvi va konsentratsiyalashuvi bilan bog‘liq. Bunday holda savdo xalqaro gigant korxonalar, transmilliy korporatsiyalar qo‘liga to‘planadi, natijada korxonalarining savdo hajmi

oshadi. Buning sababi nisbiy afzallik yoki ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlashdagi farqda emas, balki korxonaning strategik maqsadida namoyon bo'ladi.

1991 yilda M.Porter innovatsiya va innovatsion faoliyatning global raqobatdagi roliga yangicha izoh berdi¹⁴. Yaqqol ko'zga tashlanayotgan haqiqat shuki, hozirgi sharoitda jahon tovar oqimining harakati katta tabiiy ustunlik emas, balki raqobat kurashi natijasida yangidan egallangan ustunlik bilan bog'liq. Natijada jahon bozorida raqobat kurashi mamlakatlar o'rtasida emas, balki korxonalar o'rtasida amalga oshmoqda. M.Porterning tarifi milliy darajadagi raqobatbardoshlikni tushuntirishda, mehnat yoki kapital birligining sarflanishi natijasida vujudga kelgan mahsulot hajmining yagona konsentratsiyasini isbotlaydi. Uning fikricha unumdorlik, aholi turmushi uzoq muddatli standartining determinanti, aholi jon boshi uchun yaratilayotgan milliy daromadning asosiy manbaidir. Aslida aholi va davlatning yagona daromad manbai, aholi turmush darajasi va mamlakat farovonligini oshiruvchi alohida kompaniyalar bo'lib, ular daromad generatorlari bo'lib xizmat qiladilar. Agar mazkur davlatda mehnat unumdorligini oshirish va xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lish uchun barcha ichki shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, omillar xarajatining kam ekanligi (masalan: mehnat, xomashyo, kapital yoki infratuzilma) yoki hajmining avvalgidek mavjudligi nisbatan ustun bo'lsa-da, u endi ko'pgina tarmoqlarda raqobat ustunligini ifoda etmaydi. Globalizatsiya endi korxonalariga nisbiy ustunlikka erishish uchun xomashyo, kapital va xatto kamyob ilmiy bilimlarni xohlagan joyda, ba'zi bir faoliyat turlarini har xil davlatlarga joylashtirish bilan arzon ish kuchi va kapitalga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Geografik joylashganlikda raqobat ustunligiga erishish, aynan ishlab chiqarish omillari miqdori arzon bo'lganidan emas, balki bu resurslardan oqilona foydalanish oqibatida unumdorlikning yuqori darajasida yuzaga keladi. Ular omillardan foydalanib, ishlab chiqarish hajmi va eskicha ishlash bilan muntazam ilg'or bo'lib kelayotgan kompaniyalardan o'zib ketadilar.


Bugungi kunda kompaniyaning faqat innovatsiya yordamida raqobat ustunligiga ega bo'lishi tan olgan haqiqat bo'lsada, muvafaqqiyatli kompaniyalarning o'ziga xos

¹⁴Портер М.Е. Конкуренция. – СПб., М., Киев: Изд. Дом «Williams», 2000.

strategiyasi, faoliyatining individual tamoyillari, tavsifi va evolyusiyasi mohiyatan bir xil bo‘lib qolaveradi. Faoliyatini muntazam yangilash va takomillashtirish vositasida u yuqori unumdorlikka erishadi va vaqt o‘tishi bilan samaraga erishadi. Innovatsiyaning manbai kompaniyaning o‘z faoliyati davomida erishgan bilimi hisoblanadi. Aynan ITTKI natijasida ega bo‘lingan bilimlar innovatsiya, yangiliklar va yangi patent ko‘rinishiga kiradi, patentlar, ixtirolar va mualliflik guvohnomalari ko‘rinishida ro‘yxatga olinadi. Bilimlarga ega bo‘lish kompaniyalar uchun innovatsiyalarni amalga oshirishni boshqarish nuqtasi hisoblanadi. Umumiy holda bilimlarni boshqarish jarayoni bilimlarni olish, umumlashtirish, jamg‘arish, saqlash, himoya qilish va qo‘llashdan iborat. Bilimlarni boshqarish strategiyasi, bilimlarga nisbatan uni o‘zlashtirishga asoslangan qobiliyat va resurslar balansi sifatida tushunilishi mumkin. Bu kompaniyalarning mahsulotlar ishlab chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatishda raqobatchilardan o‘zib ketishini ifodalaydi. Qanday bilimlarga asoslangan aqliy resurs va qobiliyat ahamiyatli hisoblanadi? Bunday resurslar va qobiliyatlarning korxonani yangi xaridorgir mahsulot bilan ta‘minlash imkoniyatlari qanday? Bu mahsulotlarning bozordagi o‘rni qanday bo‘ladi? Shu kabi bir-biriga o‘xshash bo‘lgan savollar, bilimlar menejmenti strategiyasining asosini tashkil etadi. Bilimlarni boshqarish strategiyasining shakllanishida ananaviy SWOT sxema tahlilidan (Strengths-weaknesses- opportunities-thrests) foydalanish mumkin.

SWOT: Strength-Weaknesses-Opportunities Threats (kuch – zaiflik, imkoniyat, xatar)

Manfaatdor korxonada SWOTni u yoki bu bilimlarni yoki qobiliyatni o‘zining raqobat ustunligi va zaif tarafini yaxshiroq tushunish uchun kerak bo‘lgan tahlilni amalga oshirish xaritasiga aylantirishga harakat qiladi. Korxonada xaritadan bilimlarni boshqarish, bilim olish jarayonida o‘zining ustunligini mustahkam-lash, zaif tomonlarini bilim vositasida himoya qilish yoki undan qo‘llanma sifatida foydalanishi mumkin. Bilimlar dinamik holatda bo‘lsa, strategik bilimlar xaritasi korxonaning bugungi holatining ifodasini, shuningdek, uning tayyorlash strategiyasini va raqobatchilar istagan profilini ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Kompaniya yoki muassasalar lar undan qo‘shimcha ravishda bilimlar tarixini tiklash va kelajakdagi traektoriyasini yaratishda foydalanishlari mumkin (2-rasm).



2-rasm. Muassasa strategik bilimlari xaritasi.

Asosiy fundamental bilimlar minimum bo‘lib, tarmoqqa chiqish uchun ma’lum to‘siqlarni vujudga keltiradi, uni egallashda tashkilotning ishtirokini ta’minlaydi. Lekin bu korxonaning uzoq muddatli raqobat qiymatini ta’minlay olmaydi. Muvaffaqiyatni ta’minlaydigan bilimlar korxonaning raqobatbardoshlik quvvatini yanada mustahkamlaydi.

Kompaniya raqiblari kabi o‘z darajasiga, dunyoqarashiga, bilim sifatiga ega bo‘lishi mumkin, lekin maxsus bilimlari unga diversi-fikatsiya strategiyasidan foydalanishga yordam beradi va strategik bilimlar xaritasidan foydalanib faoliyatini takomillashtirayotganida ega bo‘layotganda o‘z nuqsonlarini aniqlashga yordam berishi mumkin. U bilimlar asosida resurs va qobiliyatlari-ning takomil-lashgan strategik evolyusiyasiga ega bo‘lgan holda, qanday bilimni ishlab chiqish yoki unga ega bo‘lishi kerakligini aniqlashi mumkin. Kompaniya bilimlar menejmenti strategiyasi qirralarini hisobga olgan holda, bilimlarni boshqarish yordamida o‘z strategik nuqson-larini yo‘qotishga intilishi kerak.

“Bilim olish – foydalanish” uyg‘unligi va bilim olish manbaini aniqlash korxonaning bilimlarini boshqarish uslubini ifodalaydi.

Bilim talab qiladigan korxonalarda bilimlarni targ‘ib qiluvchilar juda konservativ uslub qarashlarga nisbatan raqiblardan o‘zib ketadilar. Agressiv strategiyadan kompaniyalar raqobat kurashida orqada qolayotganda ham foydalanadi. Agressiv korxonalar yangi bilimlarni eskilarining buzilishi jarayoni natijasi deb hisoblaydilar. Ular o‘zlari ega bo‘lgan bilimlar raqobatchilarining qiymatini buzishini kutmaydilar.

Agressiv korxonalar bilimlarni almashinuvi yoki tarqalishiga to'siq yaratishga alohida e'tibor beradilar. Ular bilimlarga ega bo'lish yo'lidagi o'z intilishlarini, ilg'or ziyolilar, kasbiy ko'nikmalari va ma'suliyat hissi yuksak bo'lgan bilimdon va intizomli ishchilarni tanlash va tarbiyalash, korxonaning umumiy ilmiy va madaniy salohiyatini oshirish yordamida amalga oshiradilar. Eskicha boshqarish usulidan foydalanagan tarmoqlarda bilimlar sekin tarqaladi, o'rganish imkoniyati esa ko'pincha cheklangan.

Bu korxonalarining raqiblarga nisbatan afzalligi, tashqi bilimlarni tezlikda yutib yuborish qobiliyatiga ega ekanligi, bu bilimlarni maqsadlariga qo'shib va tezlikda yangilikni amalga oshirishda ifodalanadi. Sanoatni an'anaviy tarmoqlar va sektorlarga bo'lish va iqtisodiyotni Klaster orqali kuzatish kompaniyalarga innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish va raqobatda o'z afzalligining ustun tamonlari vujudga kelishining tashqi omillarini chuqurroq tushunish imkoniyatini beradi.

Korxonalar Klasterini o'z faoliyatida o'zaro aloqador va xududan bir joyda joylashgan korxonalar va tashkilotlarning tizimi sifatida ifodalashi mumkin va ularning birgalikdagi ahamiyati, uning bo'laklari yig'indisiga nisbatan yuqoridir. Klasterning ko'pgina ishtirokchilari bir-birlari bilan bevosita raqobatlashmaydilar, ular tarmoqning har xil bo'laklari (segmentlari)ga xizmat ko'rsatadilar.


Klaster vujudga kelishi bilan guruhdagi barcha tarmoqlar bir-birini qo'llay boshlaydi. Qo'llash gorizontal yo'nalishda bilimlar va axborotlarni erkin almashtirish hisobiga tarqaladi. Tajovuzkor raqobat bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa Klaster chegarasida texnologiyalarni uzatish, bozor holatini rivojlantirish va amaldagi korxonalar turini ko'paytirish bilan tarqaladi. Klaster ichidagi boshqa tarmoqlardan bozorga kirish modernizatsiyani tezlashtirib, ilmiy yondashishni rag'batlantiradi, yangi strategiya va ko'nikmalarni kiritishga ko'maklashadi. Ta'minotchi va iste'molchilar kanali orqali bir-birlari bilan munosabatda bo'lgan ko'pgina raqobatchi kompaniyalar o'rtasida axborotlar va innovatsiyalar erkin tarqaladi. Guruh ichidagi o'zaro aloqalar ko'pincha yetarli kutilmagan raqobat kurashining yangi turlarini va imkoniyatlarini anglashga sabab bo'ladi.

Bunday Klaster tor fikrlashni bartaraf etib, fikrlar rang-barangligi, integratsiya bilimlari va innovatsiyaning tarqalishi mexenizmi yetarli darajada egiluvchan bo'lishiga,

innovatsiya harakati va raqobatda ustunlikni vujudga keltirish vositasi bo'lib hizmat qiladi. Innovatsiya natijasida raqobat ustunligi shakllanishiga faqat realizatsiya yordamida erishish mumkin. Bu yangi tovarlar va texnologiyalarni qo'llashda aks etadi. Shu bilan birga kompaniya raqobatchilarga nisbatan yangi texnologiya darajasiga erishadi, nanotexnologiyada ustunligini ta'minlaydi va raqobatda ustunlikga erishadi.

Global raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishish uchun bu ustunlik kamlik qiladi. Bunda to'g'ri raqobat strategiyasini tanlash va to'g'ri strategiyani shakllantirish muhim. Bunda mazkur kompaniya strategiyasi va strategik boshqaruvi zanjirning oraliq bo'g'ini bo'lib qoladi.

Bilimlar, innovatsiya, texnologiya ustunligi, raqobatda ustunlik, strategiya, kompaniyani strategik boshqarishdagi ketma-ketlik, global raqobatda muvaffaqiyatga erishishning bosqichlarini aks ettiradi, raqobat kurashida bilimlar va innovatsiyaning muhimligini asoslaydi, bilimlar menejmenti, innovatsion texnologik va strategik menejmentlarini uzviy bog'laydi. Bu – global kompaniyalarni boshqarishda yangi tushunchalar paydo bo'lishiga, tanlangan va amalga oshirilayotgan strategiyani yuqori rahbarlik tomonidan raqobat kurashidagi yutuqlarini ko'ra olishiga bog'liq bo'ladi.



3-rasm. Global raqobatda yutuqqa erishish bosqichlari

3-rasmda global raqobat kurashida ustunlikka erishishning bosqichlari keltirilgan, bunda boshlang'ich bosqich bilimlardan iborat. Kompaniya qanday bilimlarga ega ekanligi, uning u yoki bu innovatsiyalarga yangilik kiritishida yoki yaratayotgan yangiliklarida aks etadi va g'oyalarni raqobatchilari bo'lmagan texnologiyalarda amalga oshiradi. Bu texnologiyalar raqobatdagi ustunlikni shakllantiradi va unga mos

bo‘lgan strategiya asosida, raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishishini taminlaydi. O‘z navbatida bunday strategiya ITTKI natijalariga moslangan texnologiyalarini talab etadi. Texnologiyaning ilmiy sig‘imini aniqlaydi. Shunday qilib, innovatsiyaning global raqobatdagi roli, kompaniyalarning to‘g‘ri strategiyaga asoslangan holda bozorda texnologik ustunlikka erishishiga imkoniyat yaratishidan iborat. Global raqobatda muvaffaqiyatga erishish, kompaniya rahbarlarining to‘g‘ri ishlab chiqilgan strategiyani izchil amalga oshirishlari va uning ustunlik omillaridan samarali foydalana olishlariga bog‘liq.

Nazorat savollari:

1. Sifat qanday ko‘rsatkich va uning xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Ta‘lim sifati nima, qanday ko‘rsatkichlar asosida baholanadi?
3. Ta‘lim xizmatlarining qanday ta‘riflarini bilasiz?
4. Sifatning rivojlanish bosqichlari qaysilar?
5. Ta‘lim sifatini aniqlashda sifat ko‘rsatkichlarini qanday guruhlariga ajratiladi?
6. Innovatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat iboralarining iqtisodiy mohiyati nimalardan iborat?
7. Innovatsion menejmentning boshqaruv usullaridan asosiy farqi qiluvchi xususiyatlari nimalar?
8. Innovatsion ta‘limning asosiy xususiyatlari?
9. Oliy ta‘lim muassasasining innovatsion faoliyati nimalardan iborat?
10. Ta‘lim sifatini ta‘minlashda innovatsion menejmentning asosiy omillari nimalar?
11. Innovatsiyalarning raqobat kurashidagi o‘rni va ahamiyati qanday?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5.Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

6.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2018.

7.O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

14.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 343-sonli Qarori.

15.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi “343-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

16.Maxkamova Ta’limda innovatsion menejment. Monografiya. - Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2019 – 164 b.

17. Teoriya innovatsionnogo menedjmenta. Monografiya. - Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2019 – 178 b.

18. Maxkamova M.A. Innovatsion menejment. O‘quv qo‘llanma. – T: Fan va texnologiya, 2013.

19. Maxkamova M.A. Innovatsion texnologiyalar boshqaruvi. Monografiya. – T.: Aloqa, 2011.

20. Maxkamova M.A. Organizatsiya i upravlenie innovatsionnoy deyatelnostyu. – T.: Iqtisodiyot, 2007.

21. Peregudov L.V., Saidov M.X. “Menedjment i ekonomika vysshego obrazovaniya”. Uchb.pos – Tashkent. 2008 g.

22. Innovatsionnyy menedjment. Uchebnik. Pod. Red, prof. V.Ya. Gorfinkelya. – M.: “Vuzovskiy uchebnik ”, 2009 g.

23. J. Tidd and J.Bessant. [Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change](#). Wohn Wiley and Son’s Ltd, Fourth edition, 2012.

24. V. Govindarajan and C. Trimble. [The Other Side of Innovation: Solving the Execution Challenge](#). Harward Business School Publishing, 2010.

IV. Internet saytlar:

25. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

26. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

27. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

28. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet

29. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

2-MAVZU: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TA'LIMDA INNOVATSION JARAYONLAR (2-soat)

Reja:

1. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotni rivojlanish tendensiyalari.
2. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'limni tashkil etish xususiyatlari.
3. Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion jarayonlarni tashkil etish va boshqarish.

Tayanch soʻzlar: raqamli iqtisodiyot, yangi texnologiyalar, platformalar, biznes modellar, dasturlar, aqlli texnologiyalar, innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion muhit, innovatsion soha, innovatsion infratuzilma, innovatsion salohiyat, menejment, ta'lim, ta'limda innovatsion menejment.

Key words: digital economy, new technologies, platforms, business models, programs, smart technologies, innovation, innovation activity, innovation environment, innovation sphere, innovation infrastructure, innovation potential, management, education, innovation management in education.

O'zbekiston o'z oldiga kuchli demokratik, ilg'or rivojlangan davlatlar safidan mustaxkam o'rin egallashni maqsad qilgan. Dunyoning rivojlangan 50 mamlakati qatoriga kirish — bosh vazifa. Bu boradagi islohotlar esa xalkimizga munosib sharoit yaratib berish maqsadida amalga oshirilyapti. E'tibor berayotgan bo'lsangiz, keyingi yillarda O'zbekistonning shahdam odimlari xalqaro ham jamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda. Xususan, nufuzli "The Economist" jurnali dunyoning ikki yuzga yaqin davlatlari orasidan O'zbekistonni "Yil mamlakati", deb topgani fikrimiz tasdig'idir. Ya'ni ushbu nashr O'zbekistonni 2019 yili dunyoda eng ko'p yaxshi tarafga o'zgargan mamlakat, deb topdi. E'tiborlisi, yangilik O'zbekistongacha Markaziy Osiyoning biror-bir davlati bunday e'tirofga loyiq ko'rilmagani bilan ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Vaxolanki, respublikamizga yaqin-yaqingacha, aksariyat tahlilchilar tomonidan jahonning "eng yopiq" davlatlaridan biri sifatida qiyos berib kelinardi.

Ochig‘ini aytganda, mamlakatimiz xaqidagi bunday nekbin mujda xalkaro miqyosda katta aks sado berdi. Bu, albatta, yurtimizda qisqa vaqt davomida oqilona yo‘lga qo‘yilgan ichki va tashqi siyosatning amaliy ifodasidir, desak, ayni xaqiqat.

Dolzab mavzu. Mintaqada eng ko‘p aholiga ega mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish, chetdan ko‘prok sarmoya jalb etish sa’y-harakatlari uzluksiz olib borilyapti. Bu kabi o‘zgarish va yangilanishlar, asrlarki, iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligiga asoslangan O‘zbekistonda kambag‘allik va ishsizlikka qarshi kurashish asnosida ro‘y berayotgani bilan ham dolzarbdir.

O‘n yillar davomida tirikchiligi tashki mehnat migratsiyasi orqasidan o‘tayotgan millionlab fuqarolarini ishli qilish — mamlakatning o‘zida yangi bandlik manbalarini yaratishga kog‘ozda emas, amalda e’tibor qaratilmokda.

Davlat raxbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2020 yilning “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb e’lon qilinishi hamda shu bo‘yicha “Yul xaritasi” ishlab chiqilgani ham yuqoridagi ustuvor yo‘nalishlar ro‘yobida salmoqli rol o‘ynamokda. Chunonchi, kelasi besh yil ichida raqamli iqtisodiyotga o‘tish vazifasi kat’iy maqsad sifatida belgilab qo‘yilgani nafaqat xalqaro ekspertlar hamjamiyati tomonidan qizg‘in kutib olindi, balki bugungi pandemiya davrida ham nihoyatda ratsional qaror bo‘lganini ko‘rsatmokda. Shunday ekan, yaqin yillarda biznes yuritish muhiti bo‘yicha dunyoning eng oldi ellik davlati safiga kirsak, ajabmas.

Kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan maxsus dastur ishlab chiqilishi, hali-hanuz eng og‘riqli nuqtalardan biri bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus idora tashkil etilishi ham bu borada alohida ahamiyatga ega. Chunki aynan korrupsiya O‘zbekiston iqtisodiyotini taraqqiy toptirish, mamlakatga yirik miqdordagi chet el sarmoyalarini jalb qilish va ularni harakatga solish yo‘lidagi eng asosiy to‘siqlardan biri sifatida ko‘riladi. U tufayli chorak asrdan ortiqroq vaqt davomida yurtimizdagi biznes yuritish muxiti izdan chiqib ketgandi. Shu bois o‘tgan qisqa davrda mavjud vaziyatni o‘zgartirish harakatlari tom ma’noda kuchaytirildi.

Ko‘pchilikka yaxshi ma’lum, tilga olinayotgan illatlarga qarshi kurashda, unga barham berishda raqamlashtirish zaruriyati yanada oshadi. Bu, o‘z navbatida, juda

ko'p resurslarni talab qiladi. Shunday ekan, hozirdan raqamli iqtisodiyotga o'tish muhim vazifaga aylandi.

Raqamli iqtisodiyotning o'zi nima?

Raqamli iqtisodiyot yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish hamda ularni kundalik xayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirishdir. Raqamli iqtisodiyot — iktisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish mumkin bo'lgan tizimdir. Dastlab bu iborani amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte 1995 yilda muomalaga kiritgan bo'lsa-da, u bugungi kunda barcha sohada keng qo'llanilmoqda. Raqamli iqtisodiyot insonlarsiz boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish orqali korrupsiyani kamaytiradi, solik tushumlarini "aqlli" shartnomalar tuzish orqali ko'paytiradi, budjet xarajatlarining ochiqligini oshiradi, yagona elektron platforma orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatini beradi. Hozirgi kunda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar — deyarli barcha qo'llamokda. 2016 yilda Jahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning axvoli xaqida ilk marta "Raqamli dividendlar" nomli ma'ruza e'lon qildi.

Raqamli iqtisodiyotning yangi konsepsiyasi inson faoliyati doirasidagi barcha informatsiyani raqamlashtirish texnologiyalari-ni qo'llab saklash, ishlov berish va uzatishning yagona tizimidir. Iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali ijodiy yondashib yangi iqtisodiyotni barpo etish imkoniyati tug'iladi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish kelajakda real raqobatbardoshlikni uzoq muddatga saqlab qolish imkoniyatidir. Ayniqsa, quruqlik bilan o'ralgan va jahon portlariga chiqish yo'li uzoq bo'lgan O'zbekistondan davlat uchun bu muxim masala.

Raqamli iqtisodiyot elektoral madaniyatning yuksalishi hamdir. U taraqqiy etsa, biz ana shu aqliy qoloqlikdan qutulamiz. Aqliy qoloqlikdan qutulish orqali vaqtdan, og'ir yoki ortiqcha mehnatdan xalos bo'lamiz, sifat ko'rsatkichiga ega chiqamiz, ilg'or davlatlar va xalqlarga yaqinlashamiz, jumladan, kambag'allik ham kamayadi. Aqlni o'stirishning eng asosiy yo'li esa ta'lim tizimini yuksaltirishdir. Xullas, bunday islohotlar kimga yokmaydi, deysiz?! Barchaga manzur narsaga ega bo'lish uchun hamma intilishi kerak.

Shunday ekan, davlat rahbari tomonidan joriy yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb nom berilishi ham bejiz emas. Raqamli iqtisodiyotga o’tish kelgusi besh yildagi eng ustuvor maqsadimiz bo’lishi xaqidagi ta’kid esa bevosita ilm-ma’rifatni rivojlantirish bilan chambarchas bog’lik. Binobarin, bugungi tezkor zamonda jahon bo’ylab globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan sharoitda raqamli iqtisodiyot ilg’or davlatlar iqtisodiyotining barcha tarmog’ida keng joriy etilmokda. Xattoki, ayrim mamlakatlar ushbu sohaning eng yuqori cho’qqisi hisoblangan sun’iy intellektdan faol foydalanishga o’tganiga guvoh bo’lyapmiz.

Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan taxlillar natijalariga ko’ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o’stirish, shuning barobarida, xufiyona iqtisodiyotga barham berish hamda korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini berar ekan. Ko’rinib turibdiki, mazkur soha yurtimizda barcha soha va tarmoqning yuksak rivojiga jiddiy turtki bo’ladi.

Shu o’rinda alohida ta’kidlash joiz, raqamli iqtisodiyot korrupsiya va “yashirin iqtisodiyot”ning asosiy kushandasidir. Chunki raqamlar hamma narsani muxrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma’lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma’lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat xaqida to’liq axborot bermaslikning iloji yo’q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo’yadi.

Ma’lumotlar ko’pligi va tizimliliigi yolg’on hamda qing’ir ishlarga yo’l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada, iborali aytganda, pullarni “yuvish”, mablag’larni o’g’rilash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yo yashirib ko’rsatish imkoni qolmaydi. Bu esa iqtisodiyotga legal mablag’lar oqimini oshiradi, soliqlar o’z vaqtida hamda to’g’ri to’lanadi, budjet taqsimoti ochik bo’ladi, ijtimoiy sohaga yunaltirilgan mablag’lar o’g’rilanmaydi, maktablar, shifoxonalar, yo’llarga ajratilgan pullar to’liq yetib boradi va hokazo.

Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo’lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron xujjatlar aylanmasida yangi yo’nalishlar ochib beradi.

Raqamli texnologiyalar tomon burilishga esa butun jahon internet tarmog'i hamda sifatli aloqaning rivojlanishi sababchi bo'lgani ayni haqiqat.

Soha qanday rivojlanmoqda?

Bugungi kunda odamlar oziq-ovqat mahsulotlariga buyurtma berish uchun ijtimoiy tarmoklar, messenjerlar, ayniqsa, Telegramm botlaridan faol foydalanmoqda. Shuningdek, turli internet-do'konlar, elektron to'lov tizimlari ham faol rivojlanib bormoqda. Demak, fuqarolarimiz elektron bitimlarni amalga oshirishga ishoniyapti. Faqat hozirgi kunda foydalanuvchilar katta xarajatlar talab qilmaydigan kichik bitimlarni amalga oshirayotgani, o'rtacha harid xajmini oshirishga esa unchalik tayyor emasligi ham rost. Demak, endigi masala o'rtacha va yirik iqtisodiy bitimlar hamda moliyaviy operatsiyalarni raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirishni rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning o'z valyutasi (kriptoalyuta, bitkoin), pul saklaydigan karmoni (blokcheyn), hisoblash usullari (mayning) kabi atamalari mavjud.

Shu o'rinda raqamli iqtisodiyotning oddiy iqtisodiyotdan farqini kundalik, maishiy misollar bilan tushuntirib o'tsak. Aytaylik, xaridorga kiyim yoki poyabzal kerak. Uni bozorga tushib o'zi bevosita tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu an'anaviy iqtisodiyot. Ijtimoiy tarmoqlardagi yoki Telegrammdagi biron savdo boti orqali o'ziga ma'kul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to'lov tizimi orqali to'lash va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olish — raqamli iqtisodiyot deyiladi. Bu masala-ning eng sodda maishiy misol orqali tushuntirilishi.

Aslida, hammamiz, allaqachon raqamli iqtisodiyot ichidamiz, uning qulayliklaridan foydalanamiz. Masalan, oyligimiz plastik kartalarga tushadi, elektron to'lov orqali kommunal xizmatlar, telefon, internet va boshka mahsulot hamda xizmatlarga to'lov kilamiz, elektron tarzda soliq deklaratsiyasi topshiramiz, kartadan kartaga pul o'tkazamiz va hokazo.

Raqamli iqtisodiyot, bu, noldan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari ishlab chikish hamda ularni kundalik xayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir. Ya'ni yukori darajada

avtomatlashtirilganlik; elektron xujjat almashinuvi; buxgalterlik va boshkaruv tizimlarining elektron integratsiyala-shuvi; ma'lumotlar elektron bazalari; CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi; korporativ tarmoqlar.

Raqamli iqtisodiyot tufayli to'lovlar uchun harajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira hamda boshka resurslar tejaladi), tovarlar va xizmatlar xaqida ko'prok hamda tezroq ma'lumot olinadi, raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta, fidbek (iste'molchi fikri)ni tez olish xisobiga tovar hamda xizmatlar jadal takomillashtiriladi.

Xalkaro amaliyotga yuzlanadigan bo'lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki xayotning xar bir jabhasiga, xususan, sog'likni saqlash, fan-ta'lim, qurilish, energetika, qishloq hamda suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshka sohalarga jadal kirib bormokda hamda ularning xar birida o'zining yuqori samaralarini bermoqda.

Fuqarolarning davlat organlari bilan aloqasini elektron platforma orqali aloqaga o'tkazish, ya'ni davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi xisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bizdagi eng asosiy og'rikli muammolardan biri — korrupsiya illatiga barham beradi. Prezident Shavkat Mirziyoev 2020 yil 5 fevral kuni tashqi iqtisodiy faoliyat tizimini isloh qilish bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilishda tashqi savdo bilan bog'lik nazorat tizimi va infratuzilmani yaxshilash, jumladan, xorijiy tajribadan kelib chiqib, bojxona postlarida nazoratni amalga oshiradigan bojxona, sanitariya, karantin, veterinariya hamda boshqa idoralar faoliyatini isloh qilish lozimligini ta'kidlagan edi. Bu sohada uzoq yillardan buyon samarali ishlar olib borilmagani, korrupsiyaning mavjudligi tashqi savdo amaliyotida muayyan kiyinchiliklar tug'dirmokda. Jahon bankinging "Biznes yuritish" reytingida "Xalqaro savdo" yunalishi bo'yicha mamlakatimiz 190 ta davlat orasida 152-o'rinda qayd etilgani ham shundan dalolat beradi.

Gap shundaki, ko'plab davlatlarda yuklar chegaraga yetib kelmasidan oldin ular xaqida axborot berilib, yukning tez chiqib ketishi ta'minlanadi. O'zbekistonda esa o'tgan yili 416 mingta deklaratsiyadan 344 tasi yuk chegaraga kelguncha rasmiylashtirilgan. Yuk to'g'risida oldindan ma'lumot berish avtomobil transportida 98 foizni tashkil etsa, temir yo'lda, umuman yo'lga qo'yilmagan. Shu bois nazoratni chegarada emas, balki yuklar kirib kelishidan oldin yoki mamlakat ichkarisida erkin muomalaga chiqarilgandan keyin amalga oshirish tizimini yo'lga qo'yish muhim. Bugungi kunda 1 ming 836 ta turdagi tovar bir vaqtda uchta idora tomonidan tekshirilishi, oqibatda import-eksport xujjatlarini rasmiylashtirish xaftalab cho'zilayotgani achinarlidir. Vaholanki, bojxona, veterinariya, karantin, sanitariya, standart, ekologiya idoralari ish uslubini o'zgartirishi, ularning asosiy vazifasi mahsulotlar eksportini qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lishi zarur emasmi?

Mana shunday to'siqlar tufayli Prezidentimiz raqamli texnologiyalarni joriy qilib, inson omilini maksimal qisqartirish orqali korrupsiya va noqonuniy tovar aylanmasiga barham berish zarurligini ta'kidlamoqda.

Import mahsulotlarining chegaradan to yakuniy iste'molchigacha bo'lgan harakati bojxona hamda soliq idoralari tomonidan yagona elektron tizim orqali nazorat qilinishi kerak.

Shundan kelib chiqib, mutasaddilarga ruhsatnoma va laboratoriya tekshiruvlari xujjatlarini to'liq raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan "risk-analiz" tizimini joriy etish bo'yicha topshiriqlar berildi. Aytish joiz, raqamli iqtisodiyotga tadbirlari doirasida 143 ta davlat xizmati elektron shaklga o'tkazilib, 35 ta idorada talab qilinadigan hujjatlar soni hamda xizmat ko'rsatish vaqti ikki xissa qisqardi. Budget xarajatlari, davlat xaridlari, yer, bino va inshootlar oldi-sotdisi jarayonlariga oshkoralik hamda ochiqlik tamoyillari joriy etildi. Ayni paytda qishloq xo'jaligi, sog'likni saqlash, qurilish, davlat xizmatlari ko'rsatish, xullas, ijtimoiy xayotning barcha sohasida raqamli iqtisodiyotga o'tish sari salmoqli qadamlar tashlanmoqda.

Dunyodagi ahvol qanday?

Xalkaro tajribaga nazar tashlasak, ko'pgina davlatlar hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot sohasiga jiddiy e'tibor karatmokda. Masalan, 2017 yilning 28 iyulida

Rossiya Federatsiyasi xukumati Raqamli iqtisodiyot dasturini qabul qildi. Estoniya, Belarus Respublikasi va Ukraina raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirmoqda. O‘z navbatida, ayrim davlatlarda aynan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zaruriy infratuzilmani yaratishga harakat qilinmoqda. Jumladan, Avstraliya xukumati fuqarolarga yukori tezlikdagi raqamli aloqani takdim etish choralari ko‘rmoqda, ya’ni milliy keng polosali tarmoq (National Broadband Network) ushbu mamlakat aholisining 93 foizini 1 Gbit/s tezlikdagi internet bilan ta’minlash majburiyatini olgan.

Hozirgi davrda biz texnologiyalar qanday qilib ommaviy xizmat ko‘rsatish sohasini tubdan o‘zgartirayotganini ko‘ryapmiz. Vositachilarni olib tashlaydigan, mijoz va ta’minotchi o‘rtasidagi aloqalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirilishiga olib keladigan Uber kabi yangi biznes-modellar paydo bo‘lmoqda. Avvalroq xuddi shunga o‘xshash o‘zgarishlar moliya sektori hamda telekommunikatsiyalarda ham ro‘y bergan edi. Sanoatda ham bir qancha prinsipial o‘zgarishlar kuzatilmoqda, chunki raqamli korxonalar va insonning raqamli qiyofadoshi — robotlar paydo bo‘lishi butun insoniyat funksional modelini jiddiy ravishda o‘zgartirib yuborishi mumkin. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalari asta-sekinlik bilan odamlarning o‘rnini egallab boradi. Xuddi mana shu holat raqamli iqtisodiyot xisoblanadi.

Raqamli platformalarning rivojlanish sohasidagi yorokin misollardan biri sifatida “Alibaba” elektron savdo tizimiga ega bo‘lgan Xitoy kompaniyasini keltirib o‘tish mumkin. Undan foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlar to‘plash jarayonida iqtisodiyotning turli sektorlariga ekspansiya uchun o‘ta raqobatli ustunliklar yaratiladi. “Alibaba” oddiygina raqamli platforma emas, balki platformalar ekotizimidir. Tushunarliki, bunday ekotizim qudrati alohida platformalar kuchidan katta bo‘ladi. AQSh hozirgi kunda bu poygada yutqazmoqda, chunki u yerda turli platformalarni integratsiya qilishga to‘g‘ri keladi, Xitoyda esa bu sohada rivojlanish samaradorlikni oshirish hisobiga — bir platformadan boshqa platformaga karab o‘tish asta-sekinlik bilan ro‘y berdi.

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish kabi global ishda ko‘p narsa davlatning tutgan pozitsiyasiga ham bog‘liq, albatta. Barchasi hamma narsani birlashtiradigan va “raqam”ga o‘tkazadigan yagona davlat platformasiga borib taqalmasligi muxim, ya’ni

davlatning vazifasi biznesning o'rniga biron-bir narsa qilish emas, balki biznesga xalal bermaslikdir. Xitoyda ham "Alibaba" tizimi davlat uning uchun qandaydir platforma yaratgani tufayli paydo bo'lmagan. U bunday platforma paydo bo'lishi uchun sharoit yaratdi, xolos. Garchi davlat "Alibaba"ga yordam bergan bo'lsa-da, buni davlat korporatsiyasi sifatida emas, balki tijorat korxonasi sifatida yordam berdi va uning xizmatlaridan u raqobatbardosh ekanligi uchungina foydalaniladi. Davlatning vazifasi — umumiy qoidalar yaratish, biznes esa shu umumiy qoidalar asosida o'zgarib, rivojlanib boradi, chunki qonunlar ta'sirida ishbilarmonlik muhiti va raqobat o'sadi.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlar ro'y berishi lozim bo'lgan o'zgarishlar muqarrarligini tushunib, iqtisodiyotni raqamlash-tirish tomon harakatni ongli ravishda boshladi. Bu yunalishni birinchilardan bo'lib ma'lum qilgan AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya hamda Xitoy bugungi kunda raqamli poygada norasmiy yetakchilar sanaladi. Ulardan keyingi o'rinlarda Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Avstraliya, Belarus va boshqalar turadi. Raqamlashtirish jarayonining ba'zi yetakchi mamlakatlari esa qarama-qarshi yondashuvlarni, xususan, AQSh bozor yunalishini, Xitoy esa rejali iqtisodiyotni tanlab olgan. Qolgan mamlakatlar ma'lum bir oraliq variantlarga rioya kiladi.

Raqamli iqtisodiyot platformalari tuzishda rivojlangan davlatlar transport, telekommunikatsiya, energetika, ma'lumotlarni qayta ishlash, sog'liqni saqlash, dori-darmonlar logistikasi, turizm, tashqi iqtisodiy faoliyat, ko'chmas mulk va ishlab chiqarish yo'nalishlariga e'tibor qaratmokda. Aynan shu sohalarning rivojlanishi infratuzilma hamda texnologik bazis yaratishga imkon beradi, ularni boshqa sohalarga ko'chirgan xolda O'zbekiston yetuk raqamli iqtisodiyotni maksimal darajada tez rivojlantirishi mumkin. Ilg'or mamlakatlar raqamli iqtisodiyoti ko'plab dasturlari (AKSh, Avstriya, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va boshqalar) asosiy e'tiborni "raqamli tibbiyot" hamda "aqli shaxar" ijtimoiy yo'nalishlariga qaratmokda. "Raqamli tibbiyot" va "aqli shaxar" ijtimoiy loyihalarini amalga oshirish ko'prok murakkablik hamda xilma xillikni talab qiladi va bunday loyixalar keng xalq ommasi tomonidan e'tirof etiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining internetga hamda u bilan bog‘liq AKTga ulanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun sharoitlar yaratish, jumladan, bulutli texnologiyalarni rivojlantirish IXTT tomonidan 2016 yil bu tashkilotga a‘zo bo‘lgan 32 mamlakat va yana 6 ta hamkor mamlakatda o‘tkazilgan so‘rov ma‘lumotlariga ko‘ra, ularda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi, rejasi yoki dasturi mavjud. 2017 yilning sentabr oyida Avstraliya hukumati raqamli iqtisodiyot strategiyasini ishlab chiqish boshlangani xaqida e‘lon qildi. AQShda 2015 yili raqamli iqtisodiyot rejasini shakllantirish haqida ma‘lum qilindi, 2016 yilda xususiy biznes tomonidan amalga oshiriladigan internetni rivojlantirish, axborot xavfsizligi, innovatsiyalarni ilgari surish va boshka funksiyalarni bajaradigan Savdo vazirligi koshida raqamli iqtisodiyot bo‘yicha maslaxatchilar kengashi tashkil etildi.

Jahon bankining “Raqamli dividendlar” nomli tadqiqoti natijalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarb va muhimligini ko‘rsatdi. Xususan, internet tezligining 10 foizga o‘sishi, mamlakat YaIMning o‘shishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 1,21 foizni, rivojlanayotgan davlatlarda 1,38 foizni tashkil etayotir. Demak, internet tezligi ikki barobarga oshadigan bo‘lsa, YaIM xajmining karyib 15 foizga oshishiga erishish mumkin. Jahonda amalga oshirilayotgan globallashuv sharoitida tashqi migratsiya, xalqaro savdo va kapitallar harakati, turizm, xorijiy investitsiyalar, AKT rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga ta‘sir etadi.

Demak, biz ham asosiy e‘tiborni faqat mahsulotlar eksportiga qaratmasdan, balki “nou-xau”, blokcheyn texnologiyalar faoliyatini zamonga hamohang o‘rganib, shular qatorida, raqamli iqtisodiyotdan foydalanishni yangi bosqichga olib chiqishimiz maqsadga muvofiq. Yurtimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlanti-rishning ustuvor vazifasi – O‘zbekiston iqtisodiyotining yuqori sur‘atlarda o‘shishini ta‘minlash bilan birgalikda, aholi ongi, ilmi va qarashlarini zamon bilan uyg‘unlashtiradi, mamlakatimiz-ning xalqaro maydonda integratsiyasini tezlashtirishadi. Va, pirovardida, O‘zbekistonning huquqiy-demokratik, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish muddati jadal qisqaradi.

Xorijiy tajribaning ko'rsatishicha, milliy fan-ta'lim majmualarining institutsional tuzilishi ko'p jihatdan davlat tuzumining xususiyatlariga bog'liqdir. Masalan, AQShda fan-ta'lim majmuasining rivojlanishi uchun federal hukumat mas'ul bo'lib, bu hukumat mazkur sohada yagona milliy siyosatni amalga oshiradi, unga salmoqli budjet mablag'larini yo'naltiradi va ularning taqsimotini nazorat ostiga oladi. Germaniyada bu jarayon yerlar (hududlar, viloyatlar) miqyosida amalga oshiriladi. Har bir ma'muriy bo'linma o'z siyosatini, shu jumladan, fan-ta'lim tuzilmalarini moliyaviy va boshqa yo'nalishda qo'llab-quvvatlash bo'yicha muayyan chora-tadbirlar majmuasini amalga oshiradi.

Mazkur majmuaning samaradorligini va uni boshqaruv amaliyotini oshirish bilan bog'liq umummilliy vazifalarni hal qilish uchun uning taraqqiyoti haqida, shu jumladan, fan va ta'lim sohalarining integratsiya jarayonlari haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish lozim. Integratsiyaning xorijiy mamlakatlarda qabul qilingan zamonaviy shakl va mexanizmlarini tatbiq qilish imkoniyatlari ko'p jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy, institutsional, ma'muriy va boshqa sohalardagi o'zgarishlarning umumiy yo'nalishi bilan belgilanadi. Ta'kidlab o'tish joizki, zamonaviy integratsion jarayonining ayrim elementlari amaldagi huquqiy maydonda ham rivojlanishi mumkin.

Bunda eng muhim ustuvor jihat – davlat ilmiy tashkilotlari va oliy ta'lim muassasalarini ular asosida ilmiy bilimlarni ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish va ularni xo'jalik aylanmasiga jalb qilish jarayonining samaradorligini ta'minlay oluvchi korporativ-integratsiyalangan tuzilmalar tashkil qilish yo'li bilan restrukturizatsiyalash zaruratidir. Bu masalani yetakchi ta'lim va fan bo'linmalari asosida gumanitar, tabiiy va texnik sohalardagi fan-ta'lim innovatsion majmualarini tashkil qilish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lib, bunday majmualar o'zida fan va ta'lim jarayonini rivojlantirish va bilimlarni ulardan biznes va ishlab chiqarish sohasida foydalanish uchun uzatish vazifalarini mujassam etgan bo'lishi lozim.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda tarmoqlangan innovatsion infratuzilmaning tashkil etilishi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

O‘z ishtirokida tashkil qilinadigan qo‘shma tadqiqot laboratoriyalarini, kichik konsalting va startap korxonalarini integratsiyalay oluvchi va ularning faoliyatini muvofiqlashtira oluvchi rivojlangan infratuzilmaga ega bo‘lgan fan-ta’lim innovatsion majmualarining tashkil etilishi milliy innovatsion tizimning kerakli asosiy elementlarini ta’minlash, innovatsiya sohasiga sarmoyalar oqimining kirib kelishini rag‘batlantirish, mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini ishlab chiqarish korxonalarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yo‘naltirish imkonini beradi.

Bunday majmualar ilmiy faoliyat, ta’lim va innovatsiya jarayonini ta’minlashdan tashqari:

texnologiyalar transferi markazi;

davlat budjeti hisobiga amalga oshirilgan va xarid qilingan ilmiy-texnik faoliyat natijalarining depozitariysi;

o‘z tasarrufiga o‘tkazilgan davlat mol-mulkiga, shu jumladan davlat budjeti hisobiga amalga oshirilgan ilmiy-texnik faoliyat natijalariga nisbatan mulkdorlik vakolatlarini amalga oshirish; intellektual mulkni sanoatda o‘zlashtirishdan olingan qaytim mablag‘larni vujudga keltiruvchi;

innovatsion loyihalar hamda innovatsion faoliyat sohasiga ixtisoslashgan tadbirkorlarni boshqarish uchun kadrlar tayyorlash va menejerlar malakasini oshirish funksiyalarini ham bajara olishi lozim.

Ilmiy ishlanmalarni tatbiq qilishning eng samarali yo‘li qisqa muddatda, minimal sarf-xarajatlar bilan raqobatbardosh ilmiy mahsulotni ishlab chiqara oluvchi kichik innovatsion firmalar tarmog‘ini barpo etishdir. Bu jihatdan, O‘zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni keng rivojlantirish bozor o‘zgarishlari va mamlakat iqtisodiyotini jonlantirish jarayoniga ulkan ilmiy-texnik salohiyatni jalb qilish imkonini beradi.

Intellektual mulkni muhofaza qilish va himoyalashning me’yoriy-huquqiy bazasini doimiy takomillashtirib bormay turib, uni xo‘jalik aylanmasiga kiritmay turib, mahsulotlarni sertifikatlash me’yori, standartlari va tizimlarini bu sohadagi jahon andozalariga muvofiqlashtirmay turib innovatsion faoliyatni rivojlantirib


bo'lmaydi. Bu masalalarning katta qismi ilmiy-texnik sohada innovatsion faoliyatni jonlantirishning idoralararo va tarmoqlararo dasturlari doirasida hal qilinadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar tajribasidan olinishi kerak bo'lgan eng muhim jihat shuki, iqtisodiyotning yuqori innovatsion faolligi davlatning ilmiy-texnik bozordagi yetakchi roli bilan, milliy ustuvor yo'nalishlarning belgilanishi bilan, davlatning innovatsion taraqqiyot jarayoniga iqtisodiy rag'batlantiruvchi tizim orqali faol ta'sir ko'rsatishi bilan ta'minlanadi.

Innovatsion jarayonni rag'batlantirishning kompleks mexanizmini barpo etish, jumladan, ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchilarga tegishli imtiyozlar belgilash lozim. Davlat resurslarning cheklanganligini va ustuvor yo'nalishlarni hisobga olgan holda ilmiy-texnik taraqqiyotning fundamental tadqiqotlardan boshlab ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etishgacha bo'lgan butun zanjirini rag'batlantirishi lozim.

Milliy iqtisodiyotda bozor islohotlarini amalga oshirish sharoitlarida innovatsion ko'rsatkichlar eng muhim raqobatli ustunlik sifatiga ega bo'ladi, tarkibiy nisbatlarni innovatsion yo'nalishda takomillashtirish esa davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining maqsadli yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Bularning barchasi innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish, maqsadga yo'naltirilgan va muvozanatlashgan innovatsiya siyosatini ishlab chiqish zaruratini belgilab beradi. Bunday innovatsion siyosatni amalga oshirish imkoniyati avvalo mamlakatda yuzaga kelgan shart-sharoitlar va omillarga muvofiq iqtisodiy strategiyani va uning innovatsion tarkibiy qismini ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Ilmiy-texnik soha bilan ilmiy mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlab chiqish va tayyorlash va uni bozorga olib kirish o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in innovatsion infratuzilmadir. Innovatsion infratuzilma deganda innovatsion faoliyatga moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-metodik, axborot, maslahat va boshqa turdagi xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi sub'ektlar, resurslar va vositalar majmuasini tushunish lozim (4-rasm).



4-rasm. Innovatsiya faoliyati infratuzilmasi sub'ektlari.

Bizning fikrimizcha, **innovatsiya faoliyati infratuzilmasi bu** – innovatsiya faoliyati sub'ektlariga xizmat ko'rsatuvchi yoki ularning ishini ta'minlovchi, shu jumladan innovatsiya faoliyati sub'ektlariga boshqaruv, moddiy-texnik, moliyaviy, marketing, axborot, maslahat, tashkiliy, kadrlarga oid va boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi yordamchi tashkilotlar yig'indisidir.

O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishning ustuvor strategik yo'nalishi milliy innovatsion mexanizmni barpo etishdan iborat bo'lib, mazkur mexanizm tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy chora-tadbirlar va muayyan innovatsion loyihalarni amalga oshirish tizimidir. U yangi bilimlarni ishlab chiqarish, tadqiqotlar natijalarini iqtisodiyotni real sektoriga tezkor tatbiq etish va yangi mahsulotlarni iste'molchilarga sotish jarayonini ta'minlashi lozim.

Investitsion strategiyamizning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda ilg'or texnologiya bilan jihozlangan va xom ashyo resurslarimizni chuqur qayta ishlash imkonini beradigan yangi yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni yaratishga, mamlakatning eksport salohiyatini yuksaltirish va yangi ish joylarini barpo etishga qaratilgan investitsiya loyihalari afzal ko'riladi.

Shu munosabat bilan innovatsiya faoliyati infratuzilmasini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mamlakatdagi korxonalarining ham ichki, ham tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi uning faoliyat samaradorligiga bog'liqdir.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror innovatsion taraqqiyotini ta'minlash nafaqat tegishli miqdordagi tadqiqot va ishlanmalarning mavjud bo'lishini, balki ularning amalda qo'llanilishini ham taqozo etadi. Iqtisodiyotning sanoat va ilmiy sektorlari o'rtasida aloqaning sustligi, sanoat korxonalarining fundamental va amaliy fan natijalarini o'zlashtirish darajasining pastligi, fan yutuqlaridan foydalanishda rag'batlantirish va imkoniyatlarning yetishmasligi, innovatsion g'oyalarning bozor ehtiyojlariga muvofiq emasligi iqtisodiyotdagi innovatsion jarayonlarning rivojlanish samaradorligining pastligiga sabab bo'lmoqda.

Ho'jalik yuritish sub'ektlarining innovatsion faolligini oshirish uchun innovatsion siklning barcha tarkibiy qismlari va bo'g'inlarini shakllantirish zarur. Buning yo'nalishlaridan biri innovatsiya jarayonida bevosita ishtirok etuvchi sub'ektlarning o'zaro hamkorlik mexanizmlarini yaratishdir. Shu munosabat bilan innovatsiya faoliyati infratuzilmasini shakllantirish va uning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish zarurati vujudga keladi. Innovatsion infratuzilmani shakllantirishning xorij tajribasini tizimlashtirish uning ayrim elementlarini yaratishning bazaviy modellarini belgilab olish va ulardan milliy iqtisodiyotda foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Ularning umumiy xususiyati – xususiy sektor menejerlarini jalb qilish hisobiga byurokratik bosimni kamaytirishga intilish, moliyalashtirish va boshqaruvning bozor vositalaridan foydalanishdir. Infratuzilmani rivojlantirish nuqtai nazaridan eng istiqbolli yo'nalishlardan biri xususiy sektor va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari jalb

qilinadigan modellardan foydalanishdir. Ushbu modellar investitsiya risklarining taqsimlanishi (ajratilishi) va davlat mablag‘larining tejalishini ta’minlaydi.

Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini shakllantirish jarayonining amalga oshirilishini ikki asosiy jihat belgilaydi. Jumladan, investitsiyalar faqat quyidagi shartlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina amalga oshiriladi: manfaat (foyda); qulay shart-sharoitlar.

Innovatsiya faoliyati infratuzilmasiga (IFI) yo‘naltiriladigan investitsiyalarni shakllantirish mexanizmlari sohasidagi xalqaro tajribaning tahlili quyidagi bazaviy modellarni ajratib olishga imkon beradi:

- davlat IFI ob‘ektining moddiy-texnik bazasini barpo etishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtiradi va uning faoliyati bilan bog‘liq barcha joriy amaliyot xarajatlarini iste‘molchilarning to‘lovlari amaliy xarajatlarni qoplagunga qadar qoplaydi;

- davlat ijtimoiy-iqtisodiy samarani ta‘minlash maqsadida IFI ob‘ektining yaratilishi va faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtiradi;

- davlat ishtirokchi firmalar tomonidan to‘lanadigan ijara to‘lovlarini olish uchun IFI ob‘ektini barpo etishda investor sifatida ishtirok etadi;

- davlat IFI ob‘ektini keyinchalik xususiy investorlarga o‘tkazib yuborishni ko‘zda tutgan holda kapital va dastlabki xarajatlarni qoplaydi (3-5 yil davomida).

Sanab o‘tilgan so‘ngi model AQShga xos bo‘lib, unda innovatsiya faoliyatining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ham milliy, ham mintaqaviy miqyosda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, ko‘rinib turibdiki, tashqi mexanizm innovatsiya faoliyati infratuzilmasini shakllantirishga investitsiyalar ajratiladigan iqtisodiy va tashkiliy chegaralar belgilashdan iborat bo‘lishi lozim. Bu holatning mohiyatiga qaraladigan bo‘lsa, innovatsiya faoliyati infratuzilmasini shakllantirishning ushbu mexanizmini tashkiliy-iqtisodiy mexanizm deb atashga asos bo‘la oladi. Uni avvaldan belgilangan yo‘nalishdagi harakatni ta‘minlovchi bo‘g‘inlar tizimi deb tasavvur qilsak, bunday bo‘g‘inlar vazifasini innovatsion faoliyat tartibini belgilovchi me‘yoriy hujjatlar


o'taydi. Qonuniy-me'yoriy hujjatlar, standartlar, metodikalar, nizomlar, algoritmlar va hokazolar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda ilm-fan sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muammosi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, uning hal qilinishi ilm-fan sohasini bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishini, ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga amaliy tatbiq qilishni ko'zda tutadi.

Respublika innovatsiya tizimidagi dinamik jarayonlar ustida olib borilgan tahlillar uning ayrim sektorlaridagi uzilishlarni aniqlashga va infratuzilma ob'ektlarini shakllantirishga differensiyalashgan yondashuv zarurligini isbotlashga imkon berdi. Ularning faoliyatida aniqlangan o'ziga xos xususiyatlar ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmidan foydalanish kerakligidan dalolat bermoqda.

Bizning fikrimizcha, innovatsiya faoliyati infratuzilmasini shakllantirish mexanizmi quyidagi tamoyillarga asoslangan bo'lishi lozim:

- asosiy e'tiborni mavjud ilmiy-tadqiqot muassasalari, sanoat korxonolari va kredit-moliya tashkilotlariga qaratish;
- innovatsion loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq hatti-harakatlarni muvofiqlashtirishni va barqaror o'zaro aloqalarni ta'minlovchi infratuzilma ob'ektlarining yaxlit majmuasini barpo etish;
- infratuzilma ob'ektlari taraqqiyotining uzoq muddatli istiqbolini ko'ra olish zarurati;
- jarayonni boshqarish tizimini tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashuvi;
- iqtisodiy va ijtimoiy samara shaklidagi pirovard natijaga yo'naltirilganlik.



5-rasm. Innovatsiya faoliyatni rivojlantirish muammolari va ularni bartaraf etish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.

Mavjud innovatsiya faoliyati infratuzilmasini amal qilishi muammolari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, amaldgi xolat bugungi kundagi innovatsion korxonalar ehtiyojlariga to'liq javob bermaydi. Bu esa innovatsiya faoliyatini amalga oshirishga qulay shart-sharoitlar yaratib berishni ta'minlovchi infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishni talab etmoqda (5-rasm).

Milliy iqtisodiyotning innovatsion sektorini barqaror rivojlantirish uchun infratuzilma elementlarini barpo etish bo'yicha mavjud tashabbuslar va ularni moliyalashtirishning mavjud ko'lamini yetarli emas. Samarali innovatsiya faoliyati infratuzilmasini shakllantirish uning elementlari o'rtasidagi tizim hosil qiluvchi aloqalarni jonlantirish zarurati bilan belgilanadigan turli tashkiliy va iqtisodiy omillarga bog'liqdir.

Infratuzilmani shakllantirish mexanizmini quyidagi ketma-ket bosqichlardan kelib chiqqan holda amalga oshirish mumkin: shart-sharoitlarni yaratish – investitsion ta'minotni tashkil qilish – ekspertiza – infratuzilma ob'ektlarini barpo etish. Bosqichlarning har biri ularning amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan turli xil reglamentlarni taqozo etadi.

IM (innovatsion majmua) – ta'lim-fan-ishlab chiqarish jarayonlarini yagona bir tizimga birlashtiradigan kichik ilmiy-texnik tadbirkorlik va innovatsiya sohasida yirik innovatsion-texnologik va ilmiy-ishlab chiqarish majmuasidir.

Hozirgi jamiyatning rivojlanishi bosqichida oliy ta'lim muassasalarining innovatsion soha negizini mustahkamlashdagi roli ko'p marotaba oshadi. Innovatsion faoliyatning yuqori darajada rivojlangan sharoitlarda ham mahalliy budjet mablag'lari hisobiga, ham respublika budjeti mablag'lari hisobiga, ammo ko'pincha oliy ta'lim muassasi olib borayotgan innovatsion faoliyat hisobiga yetakchi oliy o'quv yurtini keyinchalik moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasasi o'z atrofida fundamental ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirgan holda sodir bo'layotgan tezkor texnologik jarayonlarga mos bo'lgan o'quv jarayonlarini shakllantirayotgan sifat jihatdan yanada yuqori darajadagi muhitni yaratishi mumkin.

Innovatsion faoliyatning shakllanishi innovatsion jarayonlarning asosiy rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqish, oliy maktablar bilan bevosita o'zaro bog'liqlikda innovatsion jarayonlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish tizimi (boshqaruv organ) ni yaratishni talab etadi.

Respublikada sodir etilayotgan innovatsion integratsion jarayonlarga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni tahlil qilish paytida quyidagi muammolar aniqlangan:

1. Integratsion jarayonlarning huquqiy-me'yoriy bazasini takomillashtirish. Birinchi darajali vazifalar sifatida davlat maqomiga ega Fanlar akademiyasi huzuridagi ilmiy muassasalarga davlat oliy o'quv yurtlarining ta'sischilari yoki birga ta'sis etuvchi sifatida ishtirok etishi hamda boshqa qo'shma integrallashgan tuzilmalarning faoliyatini samaradorligini oshirishga ko'maklashadigan tashkiliy-huquqiy shakllari to'g'risidagi masalalarni yechish huquqini berishni belgilash mumkin.

Qo'shma integral tuzilmalarning faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalarida ko'plab kamchiliklar mavjud. Bu, avvalombor, ayni damda Fuqarolik

kodeksida nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shakllardan birontasi ta'lim sohasining faoliyat ko'rsatish xususiyatlarini hisobga olmaydi.

Bunda integratsiyalashgan tuzilmalarga yuridik shaxs maqomini berish hollarida integratsiyalashgan tuzilmalarning faoliyatini ko'p kanallar bo'yicha moliyalashtirish imkoniyati, shu jumladan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mablag'lari ishtirok etishi imkoniyatlari to'g'risidagi masala nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ilmiy va ta'lim muassasalarining o'zida qo'shma integratsiyalashgan tuzilmalariga yuridik shaxs maqomini berish maqsadga muvofiq. Mazkur tuzilmalar qanday ustunliklarga ega bo'ladi va ta'lim xizmatlari bozorida qaysi holatni egallay olishi masalasini ko'rib chiqish lozim.

3. Integratsiyaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish. Ilmiy-texnik sohasidagi davlat mulkini boshqarish va ijtimoiy-ta'lim tajribalarini olib borish eng muhim masalalar sifatida ko'rsatilgan, uning asosida turli xil usul va shakllardan foydalangan holda integratsiya yotadi.

Davlat ilmiy markazlarining faoliyatini yanada takomillashgani, ularni davlat korporativ birlashmalar tarkibiga kiritilgani (ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgani) sayin ilmiy-texnik majmualarning yangi turini yaratishga e'tibor tobora oshib boraveradi.


Shuni ta'kidlash lozimki, vazirlik va idoralarning "fan-ta'lim" chizig'i, faqat bilvosita "fan-ishlab chiqarish" va "ta'lim-ishlab chiqarish" kabi chiziqlar bo'yicha integratsiya masalasini yechishga qaratilgan.

Bunda birinchi o'ringa ikkita asosiy vazifalar qo'yiladi: yuqori malakaviy kasbiy-mobil ishchilarni tayyorlash va kadrlarni kasbiy-malakaviy tayyorlash tarkibini iqtisodiyotning joriy va istiqbolli ehtiyojlariga muvofiqlashtirish. Bunda asosiy e'tibor nafaqat muhandis-texnik, balki ishchi mutaxassislarga, ular bo'yicha boshlang'ich va o'rta kasbiy tayyorgarligiga e'tibor qaratilishi mumkin.

"Fan-ishlab chiqarish" chizig'i bo'yicha integratsiyaga keladigan bo'lsak, asosiy kuchlarni iqtisodiyotning korporativ sektoriga, huquqiy-me'yoriy bazalari va

umumiy iqtisodiy sharoitlariga mos keladigan yirik integratsiyalashgan tuzilmalarni tashkil etish jarayonlariga qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

6-rasmda innovatsion klasterni shakllantirishning “ta’lim-fan-ishlab chiqarish” integratsion aloqasi chizmasi keltirilgan.



6-rasm. “Ta’lim-fan-ishlab chiqarish” integratsion aloqasini shakllantirish sxemasi.

Nazorat savollari:

1. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va uning asoslari nimalardan iborat?
2. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish zarurati va dolzarbligi?
3. Globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari nimalardan iborat?
4. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’limni tashkil etish xususiyatlari nimalar?
5. Ta’limda raqamli texnologiyalar
6. Masofaviy ta’limni tashkil etishda raqamli texnologiyalar nimalar?
7. Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion jarayonlarni amalga oshirish xususiyatlari?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 343-sonli Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi

“Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi “343-sonli qaroriga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

16. Maxkamova M.A. Raqamlashtirish nafaqat odamlar turmush tarzi, balki tafakkurini ham o’zgartiradi. Halq so’zi, 4 noyabr, 2020 yil, № 232 (7734).

17. Maxkamova M.A. Sistema globalnyx izmeneniy. Narodnoe slovo, 13 noyabr, 2020 god. № 239 (7710).

18. Maxkamova Ta’limda innovatsion menejment. Monografiya. - Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2019 – 164 b.

19. Teoriya innovatsionnogo menedjmenta. Monografiya. - Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2019 – 178 b.

20. Maxkamova M.A. Innovatsion menejment. O’quv qo’llanma. – T: Fan va texnologiya, 2013.

21. Peregudov L.V., Saidov M.X. “Menedjment i ekonomika vysshego obrazovaniya”. Uchb.pos – Tashkent. 2008 g.

22. Innovatsionnyy menedjment. Uchebnik. Pod. Red, prof. V.Ya. Gorfinkelya. – M.: “Vuzovskiy uchebnik”, 2009 g.

23. J. Tidd and J.Bessant. [Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change](#). Wohn Wiley and Son’s Ltd, Fourth edition, 2012.

24. V. Govindarajan and C. Trimble. [The Other Side of Innovation: Solving the Execution Challenge](#). Harward Business School Publishing, 2010.

IV. Internet saytlar:

30. <http://edu.uz> – O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi

31. <http://lex.uz> – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

32. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

33. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet

34. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi.

3-MAVZU: ZAMONAVIY TA'LIM SIFATINING ASOSIY MEZON VA KO'RSATKICHLARI. (2 soat)

Reja:

1. Xalqaro ta'lim sifati. Ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsiyalarning qo'llash yo'llari.
2. Ilmiy-texnik mahsulot va innovatsiyalar transferi.
3. Ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion faoliyatning tashkiliy shakllari.


Tayanch so'zlar: *innovatsion ta'lim, yangiliklar klassifikatsiyasi, ta'lim menejmenti, tuzilma, vazifalar, mezonlar, ko'rsatkichlar, innovatsion moyillik, innovatsion xususiyatlar.*

Key words: *innovation education, classification of innovation, education management, structure, tasks, criteria, indicators, innovation propensity, innovation features.*

Ta'limda innovatsion faoliyat maqsadga muvofiq tashkil etilgan o'quv jarayonlar texnologiyalarining majmui bo'lib, o'quv jarayonda innovatsion faoliyat doirasida ishlab chiqarish, ta'lim olish, bilim ko'nikmalariga ega bo'lish, texnik, tijorat, bilim ko'nikmalarining nazariy va mustaqil jarayonini tashkil etuvchi faoliyatga doir yangiliklarni qo'llash asosida olib boriladigan faoliyatdir. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat keng ma'noda o'qitishning yangi zamonaviy va bilim ko'nimalarini o'zlashtirishning yangicha yondashuvlarini o'z ichiga olgan faoliyat bo'lib, u ilmiy, texnik, texnologik, tashkiliy moliyaviy va tijorat faoliyatlarining majmui sifatida rivoj topadi.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda biz ta'limdagi innovatsiyalarning ikki xil xususiyati (tashki va didaktik) ga ko'ra tasniflashni lozim deb topdik (7-rasm).

Ta'lim jarayonini tashkil etish.



7-rasm. Pedagogik innovatsiyalarning tasnifiy parametrlari

Pedagogik innovatsiyalarning jadallik bilan amaliyotga kirib borishi natijasida zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalganligi an'naviylikdan farqli ravishda quyidagi muhim ahamiyatga ega jihatlarda o'z aksini topib bormoqda (8-rasm).

Ta'limning an'anaviy yo'nalganligi	Ta'limning innovatsion yo'nalganligi
<ul style="list-style-type: none"> ➤ Texnogen sivilizatsiya ➤ Ta'lim oluvchi – ob'ekt ➤ “Bilimli inson” ➤ Pedagogik idrok etish ➤ Pedagogik chora-tadbirlar ➤ Pedagog-vasiylik ➤ Birgalikdagi faoliyatning avtoritar uslubi ➤ Faoliyatli yondashuvga asoslanganlik 	<ul style="list-style-type: none"> ❖ Antropogen sivilizatsiya ❖ Ta'lim oluvchi – sub'ekt ❖ “Harakatlanuvchi inson” ❖ Pedagogik ijodkorlik ❖ Pedagogik munosabatlar ❖ Pedagog-menejer ❖ Birgalikdagi faoliyatning demokratik uslubi ❖ Faoliyat, muloqot va shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish orqali ijtimoiylashuvi

8-rasm. An'anaviy va innovatsion ta'limning qiyosiy tahlili

Innovatsion jarayonning dastlabki (birlamchi) umumlashtirilgan formulasi - quyidagi ko'rinishga ega:

$$FT— AT— ICh— L— Q — O' — SICCh— M— S.$$

FT— fundamental tadqiqotlar ;

AT— amaliy tadqiqotlar (kashfiyotlardan amalda foydalanish);

ICh — ishlab chiqish;

L— loyihalash;

Q — qurilish;

O' — o'zlashtirish;

SICCh — sanoatda ishlab chiqarish;

M— marketing;

S— sotuv.

Innovatsiya - bu innovatsion jarayon boradigan tashkilotlar, ulardagi innovatsion faoliyat va bu faoliyat bilan band bo'lgan tashkiliy ishlab chiqarish strukturasi uni boshqarish tamoyillari, uslublari, olinadigan iqtisodiy samaradorlikni

belgilaydigan va shu jarayonga bog'liq formalar to'plamidir.

Innovation set of forms of the process of innovative process leading organizations, focused on innovation and the organizational structure of production management principles, methods, and determine the economic efficiency.

Uning uchun quyidagilar taalluqli:

- ma'lum maqsadni qo'yish va bajarish mumkin bo'lgan strategiyani tanlash;
- sikl bosqichlari:
- olib boriladigan ishlarni rejalashtirish;
- yangilikni amalga oshirish uchun sharoitlarni aniqlash va tashkil qilish;
- ijro etish, modernizatsiyani amalga oshirish;
- innovatsiya ishlariga rahbarlik qilish.

Innovatsiyalar turkumlari.

Innovatsion bozor uchun yangiligi bo'yicha innovatsiyalar quyidagilarga bo'linadi:

- a) yangiligi tufayli jaxon miqyosida yaratiladigan tarmoq uchun;
- b) mamlakat miqyosida yaratidigan tarmoq uchun yangiliklar ishlab chiqish;
- d) alohida korxonalar uchun yangi xisoblangan ishlarni amalga oshirish.

Har qanday oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilotning ilmiy-innovatsion asosi bo'lib uning ilmiy-texnik salohiyati xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda ilmiy-texnik salohiyatni yoritish uchun alohida tashkil qiluvchilar (kadrlar, moddiy texnik tashkil qiluvchilar) tavsifi va moliyalashtirish ko'rsatkichlari (jami joriy harajatlar va kapital qo'yilmalar) ishlatiladi. Miqdoriy ko'rsatkichlar quyidagilarni qamrab oladi:

- ilm-fan sektorlari va tarmoqlari hamda milliy iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ITTKIga sarflangan harajatlar hajmi;

- ilm-fan sektorlari bo'yicha (fundamental, amaliy OO'Yu, aksionerlik jamiyati), ilm-fan tarmoqlari va fan mutaxassisliklari, shuningdek, milliy iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ITTKI sohasida bandlar soni.

Kadrlar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- ITTKI bilan bog‘liq shaxslarning umumiy soni;

- Faoliyat turlari (fundamental va amaliy tadqiqotlar, ishlanmalar) bo‘yicha personal soni; malakaviy guruhlar (yuqori malakali ilmiy xodimlar – fan doktorlari va nomzodlari, ilmiy darajasi bo‘lmagan ilmiy xodimlar, oliy va o‘rta maxsus ma‘lumotli ilmiy-texnik personal, yordamchi personal, ishchi kadrlar) bo‘yicha shaxslar soni;

Kadrlarning lavozimlar bo‘yicha miqdoriy taqsimoti.

Innovatsion infratuzilma tushunchasining tashkil qiluvchilari orasidagi texnologiyalarni va yangiliklarni uzatishga xuddi o‘sha marketing bo‘linmalari, patent-litsenziya bo‘linmalari ommaviylashtirish, reklama va ko‘rgazma qilish faoliyatlarini amalga oshiruvchi bo‘linmalarni kiritish mumkin.

Oliy o‘quv yurtlari amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyat

Fundamental tadqiqot	Tajriba ishlari	Marketing izlanishlari
Ishlab chiqarish tajribasi	Ilmiy tadqiqot ishlari	Seriyali ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish

Bugun ta‘lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma‘qullanmoqda:

- Faoliyat yunalishiga karab (pedagogik jarayondagi, boshkaruvdagi).
- Kiritilgan uzgarishlarning tavsifiga kura (radikal, modifikasiyalangan, kombinasiyalaigan).
- O‘zgarishlar kulamiga kura (lokal, modulli, tizimli).
- Kelib chikish manbaiga kura (shu jamoa uchun ichki yoki tashkaridan olingan).

Ta‘lim samaradorligi baholash ko‘rsatkichlari quyidagilar taaluqli:

- ta‘lim jarayoni sifati;

-ta‘lim sifati va ta‘lim olayotganlarning baholanishi.

- o‘qiyotganlar ehtiyojini qondirilganligi;

- bilimni ta'lim jarayonining bir qismi sifatida baholash.
- o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- ota-onalar bilan doimiy uzviy bog'likligi.

Hozirgi kunda fan-texnologiyalar va innovasiya faoliyatini rivojlanishining asosiy indikatorlari va tendensiyalarini tahlil qilish bo'yicha yagona metodologiya mavjud emas. Amaldagi usullar mavjud statistik va iqtisodiy tahlil uslabiyatiga asoslanadi.

Respublika miqyosida bugungi kunda sotilgan mahsulotlar umumiy hajmida innovasion tovar, ish va xizmatlar ulushi 2012 yilda 2,9 %, 2013 yilda 3,9%, 2017 yilda 5,8 % ni tashkil etgan. 2019 yilda sotilgan innovasion mahsulotlar ulushi 6,5% ni tashkil etgan, bu 2017 yildagiga qaraganda taxminan 0,7 foizga oshgan (3-jadval).

3-jadval.

O'zbekiston Respublikasida 2013-2019 yillarda innovasiya faoliyati rivojlanishining muhim ko'rsatkichlari dinamikasi

№	Ko'rsatkichlar	2013 y.		2015 y.		2017 y.		2019 y.	
		jami	sanoat	jami	sanoat	jami	sanoat	jami	sanoat
1.	Sotilgan mahsulotlar umumiy hajmida innovasion mahsulotlar ulushi, %	2,9	4,5	3,2	3,9	5,8	8,4	6,5	8,4
2.	Sotilgan innovasion tovar, ish va xizmatlar hajmining o'sish sur'ati, %	100	100	62,3	54,6	126,4	130,7	116,4	125,4
3.	Innovasiyalar uchun sarflangan umumiy xarajatlarda tashkilotlarning o'z mablag'lari ulushi, %	60,5	74,9	70,6	75,2	68,4	54,0	36,8	31,0
4.	Innovasiyalar uchun xarajatlar koeffisienti	0,014	0,012	0,005	0,004	0,003	0,005	0,026	0,043
5.	Innovasiyalar uchun xarajatlar hajmining o'sish sur'ati, %	100	100	121,4	63,8	73,0	122,4	72,0	91,1
6.	Innovasion faol korxonalar ulushi	0,13	0,37	0,07	0,25	0,07	0,23	0,35	1,29
7.	Har bir innovasion faol korxonaga to'g'ri keluvchi joriy etilgan texnologik innovasiyalar soni	2,2	3,5	4,4	3,5	3,8	3,9	1,7	1,6

8.	Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha hamkorlik darajasi	25,5	15,5	15,8	19,3	8,8	16,3	9,2	4,5
----	--	------	------	------	------	-----	------	-----	-----

2019 yilda respublikamizda 2171 ta korxonadan 18543,3 mlrd soʻmlik innovasion mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarilgan. Ushbu davrda ular tomonidan 1946 ta texnologik innovasiyalar joriy etilgan. Biroq, innovasion faol korxonalar ulushi 0,34 foizni, innovasiyalarni tegishli tarmoq yoki sohalarga joriy etish koeffitsienti esa atiga 1,2 ni tashkil etmoqda, xolos.

Umumiy eksport hajmida innovasion mahsulotlar eksportining ulushi 1,46 foizdan iborat, xolos.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, ilgʻor rivojlangan horijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 70-90 foizi innovasiya faoliyatini rivojlantirish hisobiga olinadi.

Yuqori texnologiyali tarmoqlar innovasion mahsulotlari ulushi 2017 yilda sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan yuqori texnologiyali mahsulotlar umumiy hajmining 11,1 % ni tashkil etgan. Shu bilan birga, oʻrtacha yuqori texnologiyali mahsulotlar umumiy hajmida innovasion mahsulotlar ulushi 15,3 % ni tashkil etgan.

Innovasion mahsulotlarni eng koʻp miqdorda eksportga chiqargan korxonalar - bu oʻrtacha yuqori texnologiyalar sektori korxonalarini boʻlgan. 2017 yilda innovasion sanoat mahsulotlari eksport hajmida oʻrtacha yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi 51,1 % ni, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi esa 6,9 % ni tashkil etgan.

Soʻngi yillarda metallurgiya, kimyo va neft-kimyo sanoati, engil va oziq-ovqat sanoati korxonalarining innovasion mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi ancha oshdi. Innovasion mahsulotlar ishlab chiqarish umumiy hajmida yoqilgʻi sanoatining ulushi kamaygan. Yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni tarmoqlar boʻyicha differensiyalash tendensiyasi kuzatildi. Innovasion mahsulotlarning katta qismini (80,0%) oxirgi 2 yilda oʻzlashtirilgan tovar, ish va xizmatlar tashkil etadi. Ilk bor oʻzlashtirilgan innovasion mahsulotlar 2018 yilda 18,5% ni tashkil etgan

bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019 yilga kelib 15,1 foizni tashkil etgan. Shuning yarmi xorijiy mamlakatlarga sotilgan.

Hozirgi kunda tarkibida ilmiy-tadqiqot muassasasi mavjud bo'lgan vazirlik va idoralarda 7599 nafar yuqori malakali ilmiy xodimlar ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanmoqda, shundan 1070 nafarga yaqini injener-texnik xodimlardir (4-jadval).

4-jadval

Tarkibida ilmiy-tadqiqot muassasasi mavjud bo'lgan vazirlik va idoralarning yuqori malakali ilmiy, injener-texnik xodimlar bilan ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumot (2019 yil 1 yanvar holatiga)

№	Tarkibida ilmiy-tadqiqot muassasasi mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar	Ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bandlar soni	Shu jumladan				Akademiklar	Fan doktorlari	Fan nomzodlari
			Ilmiy xodimlar	Boshqaruv xodimlari	Injener-texnik xodimlar	Boshqalar			
1.	Fanlar akademiyasi	3301	1586	50	578	876	26	260	595
2.	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	153	90	19	38	6	2	18	19
3.	Sog'liqni saqlash vazirligi	1790	684	59,5	274	2146	4	163	336
4.	Xalq ta'limi vazirligi	34	46	10	-	12	-	8	21
5.	Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi	2321	870	209	179	1046	8	97	260
	Jami	7599	3230	337,5	1069	4074	40	546	1231

I-IX Innovasion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkalarida 4200 dan ziyod innovasion g'oya va ishlanmalar, texnologiyalar namoyish etilib, umumiy qiymati 144,1 mlrd. so'mdan ziyod bo'lgan 4000 dan ortiq shartnomalar imzolandi.

Shartnomalarning amalga oshirilishi samarasida umumiy qiymati 2,2 trillion so'mlik 62 turdagi yangi mahsulotlar seriyalab ishlab chiqarilmoqda. 59 ta shartnoma doirasida mahsulotlarning tajriba-sinov va sanoat namunalari tayyorlandi.

Bundan tashqari, respublikaning nufuzli ilmiy tashkiloti hisoblangan Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ko'rildi.

Hozirgi kunda Fanlar akademiyasi tizimida 31 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi va 3 ta mintaqaviy bo'lim faoliyat ko'rsatmoqda. Fanlar akademiyasi tizimida jami

4387 nafar xodim, shu jumladan 1901 nafar ilmiy xodim, 300 nafardan ortiq fan doktori, 681 nafar fan nomzodi tadqiqot olib bormoqda. Akademiklar 63 kishidan iborat bo‘lib, ularning har biri tegishli korxonaga va tashkilotlarga birlashtirildi.

Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning natijalarini xalqaro ilmiy tahliliy ma’lumotlar bazalariga kiritilgan nufuzli ilmiy jurnallarda chop etish darajasi ancha past.

Misol uchun, 2015-2017 yillarda xorijiy nashrlarda jami 8388 ta maqola chop etilgan bo‘lsa (2007-2016 yillarda - 17 667 ta), ularning 475 tasi Web of Science, 326 tasi Scopus va 1543 tasi boshqa (asosan RINS) ma’lumotlar bazalariga kiritilgan jurnallarda chop etilgan. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Web of Science tizimiga kiritilgan jurnallarda chop etilgan maqolalar soni bo‘yicha tuzilgan reytingda

91-o‘rinni egallamoqda (5-jadval).

5-jadval.

2007-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzli ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish darajasi bo‘yicha faolligi ko‘rsatkichlari¹⁵

№	Vazirlik va idoralar nomi	Xalqaro nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar soni	Xalqaro Web of Science tizimiga kiritilgan jurnallarda chop etilgan maqolalar	
			Soni	foizda
1.	Fanlar akademiyasi	7443	171	2,29
2.	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi	3915	69	1,76
3.	Xalq ta’limi vazirligi	438	6	1,37
4.	Sog‘liqni saqlash vazirligi	828	44	5,31
5.	Qishloq va suv ho‘jaligi vazirligi	2601	48	1,84
6.	Boshqa vazirlik va idoralar tarkibidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari	2442	38	1,56
Jami		17 667	376	2,35

¹⁵O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligining ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Ilmiy hajmdor mahsulotlar eksporti bilan sanoqli ilmiy-tadqiqot muassasalari shug'ullanmoqda (3-4 ta). Yillik eksport hajmi o'rtacha 5-6 mln. AQSh dollaridan iborat.

Bu esa o'z navbatida mavjud ilmiy-texnologik salohiyatdan samarali foydalangan holda ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va ularning iste'molchilari o'rtasidagi yuqori innovasion faollikni ta'minlaydigan aniq mexanizmlarni yanada takomillashtirishni hamda ularni mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sur'atlariga to'liq moslashtirishni talab etmoqda.

Nazorat savollari:

1. Zamonaviy ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlari nimalar?
2. Xalqaro ta'lim sifati va unga qo'yilgan talablar?
3. Ta'lim sifatini ta'minlashda innovasiyalarning roli va qo'llash yo'llari?
4. Ta'limda ilmiy-texnik mahsulotlar va ularning turlari?
5. Innovasiyalarni tijoratlashtirish va ularning transferi nimalardan iborat?
6. Ta'lim sifatini ta'minlashda innovasion menejmentning mexanizmi va uning yo'nalishlari qanday?
7. Ta'lim sifatini ta'minlashda innovasion faoliyatning tashkiliy shakllari qaysilar?
8. Venchur moliyalashtirish nima va u qanday amalga oshadi?
9. Bilimlarni tijoratlashtirishni tushuntirib bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va

kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2018.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

14.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 343-sonli Qarori.

15.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

16. Maxkamova Ta’limda innovasion menejment. Monografiya. - Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2019 – 164 b.

17. Teoriya innovasionnogo menedjmenta. Monografiya. - Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2019 – 178 b.

18. Maxkamova M.A. Innovasion menejment. O‘quv qo‘llanma. – T: Fan va texnologiya, 2013.

19. Maxkamova M.A. Innovasion texnologiyalar boshqaruvi. Monografiya. – T.: Aloqa, 2011.
20. Maxkamova M.A. Organizasiya i upravlenie innovasionnoy deyatelnostyu. – T.: Iqtisodiyot, 2007.
21. Peregudov L.V., Saidov M.X. “Menedjment i ekonomika vysshego obrazovaniya”. Uchb.pos – Tashkent. 2008 g.
22. Innovasionnyy menedjment. Uchebnik. Pod. Red, prof. V.Ya. Gorfinkelya. – M.: “Vuzovskiy uchebnik ”, 2009 g.
23. J. Tidd and J.Bessant. [Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change](#). Wohn Wiley and Son's Ltd, Fourth edition, 2012.
24. V. Govindarajan and C. Trimble. [The Other Side of Innovation: Solving the Execution Challenge](#). Harward Business School Publishing, 2010.

IV. Internet saytlar:

35. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
36. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
37. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
38. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA INNOVASION FAOLIYATNING ASOSIY TURLARI (2-soat)

Amaliy mashg'ulot maqsadi:

Tinglovchilarda oliy ta'lim muassasalarida innovasiyalarning ilm-fan samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarini aniqlash, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishda qo'llaniladigan mezon va ko'rsatkichlar bo'yicha, jumladan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini baholay olish, innovasion faoliyatni tashkil etishda asosiy xususiyatlarini hisobga olish, ta'lim sifatini ta'minlashda innovasion menejmentining mexanizmi va uning asosiy yo'nalishlari bo'yicha malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Amaliy mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

Mashg'ulot rejasi bo'yicha nazariy materiallar tahlil qilinib, kichik guruhlar yoki juftliklarda ta'lim sifatini ta'minlash, uni oshirish bo'yicha, ta'limning zamonaviy xususiyatlaridan kelib chiqib, yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalangan holda berilgan topshiriqlar bajariladi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR:

Oliy ta'lim muassasalarida innovasiyalarning ilm-fan samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar:

- ilmiy salohiyat tarkibi, jumladan iste'dodli olimlar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, yuqori malakali injener-texnik xodimlar mavjudligi;
- ilmiy tadqiqot ishlari mavzusining dolzarbligi va amaliy ahamiyati;
- ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun ilmiy adabiyotlar va boshqa axborot resurslari bilan ta'minlanganligi;
- o'tkaziladigan tadqiqotlar va tadqiqotchilarni moddiy rag'batlantirish uchun moliyalashtirish manbalari;
- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, shuningdek qabul qilingan reja va chora-tadbirlar boshqaruvi va nazoratini amalga oshirish;
- ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni ta'minlovchi ilmiy-texnik va yordamchi xizmat

mavjudligi.

Innovation menejment mexanizmi quyidagilardan iborat:

1. Muassasada innovasiyani bashorat qilish (prognozlash). Texnikani kelajakda rivojlantirishning ehtimoli bo‘lgan, kelajagi bor bo‘lgan yo‘lini topish.

Innovasiyani bashorat qilish kelajakda texnika va texnologiyani qo‘llashda, mahsulotlarni ishlab chiqarishda qanday o‘zgarishlar bo‘lish ehtimolini va raqobatga qanday ta’sir o‘tkazishini bilish zarur.

Innovasiyani bashorat qilish uch bosqichda amalga oshirishni ifodalaydi:

1) bashorat ob’ektini aniqlash;

2) bashorat qilish usullarini tanlash (masalan: eksrtapolyasiya usuli, ekspert baholash usuli, modellashtirish metodlari va boshqalar)¹⁶.

3) bashoratni yoki istiqbolni ishlab chiqish va uni taxminiy baholash.

2. Holatni tahlil etish. Tashkilot faoliyatiga bevosita va bilvosita tashqi muhit omillari ta’siri va tashkilot ichidagi ishlar haqidagi ma’lumotlarni to‘plash. So‘ngra har xil darajadagi menejerlar to‘plangan axborotlarni turlarga ajratadilar va tahlil qiladilar. Innovasiya ko‘rsatgichlarini nazorat qilishning amaldagi mavjud rejaga (prognoz asosidagi) solishtiriladi, natijada tezda hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolarni aniqlash imkoniyati vujudga keladi.

3. Innovasiyaga bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlash va to‘g‘ri ifodalash chora-tadbirlari majmuini ishlab chiqish, innovasiyaga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish tashkilotning samarali amal qilish imkoniyatini beradi.

4. Innovasiya muqobilini tanlash mezonini aniqlash. Har xil innovasiyalarni solishtirish bilan ularning eng yaxshi muqobili tanlab olinadi (masalan, innovasiya xarajatlari, innovasiyaning hayot davri, undan olinadigan samara).

5. Innovasiya muqobilini ishlab chiqish – bu innovasiyaning har xil variantlari va modifikasiyalarini ishlab chiqish hamda tatbiq etishning yo‘llari bo‘lib, ular ichidan tashkilot xususiyatini hisobga olgan holda (maqsadi va tashqi muhitga nisbatan holati)

¹⁶ Ekstrapolyatsiya usuli fan va texnikada bashoratdan avvalgi davrda vujudga kelgan qonuniyatlarni kelajakda tarqatishni ifodalaydi.² Ekspert baholash usuli kelajakda shu sohada ishlaydigan yuqori malakali mutaxassislardan olingan so‘rovnoma asosidagi statistika ma’lumotlarini saralashni ifodalaydi. ³ Modellashtirish usuli mantiqiy, axborot matemateka–statistika modellarini o‘z ichiga oladi.

maqsadga muvofiq bo'lgani – menejer tanlab olish mumkinligini ifodalaydi

6. Innovasiya muqobillarining afzalligi va kamchiliklarini taqqoslash asosida tahlil o'tkazish. Taqqoslash uchun standartlar to'plami va baholash mezonini bo'lishi kerak. Ko'p hollarda tanlash kelishilgan variant natijasi bo'lib, bir nechta sifatli muqobillar yig'indisidan iborat bo'ladi. Hozirgi tezkor muhitda faoliyat yuritayotgan tashkilotning xavf darajasini hisobga olish kerak. Masalan, eng qulay variant emas, balki innovasiyaning yuqori muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritishi mumkinligi hisobga olinib muqobili tanlanadi.

7. Boshqarish qarorlarini ishlab chiqish va kelishish. Innovasiya bilan bog'liq bo'lgan boshqarish qarorlarini ishlab chiqish innovasiya bo'linmalarining tashkilotning boshqa bo'limlari va boshqaruvchi xodimlar bilan hamkorligiga qaratiladi. Innovasiyani boshqarish xususiyati – uning malakali kadrlar yordamida ishlab chiqilishi, qarorlarni qabul qilish va rejani tatbiq etishni tasdiqlash esa menejerlar tomonidan amalga oshirilishidir. Shu munosabat bilan innovasiyani amalga oshirishni maqsad qilib qo'ygan tashkilotlarda boshqarish qarorlari qabul qiladigan guruhlar tuziladi. U jamoada boshqarish turli bo'g'inlari nomuvofiqligini aniqlash va ularni tez va sifatli bartaraf etish imkonini beradi.

8. Boshqarish innovasiya qarorlarini tadbiq etishni boshqarish va resurslar majmualari, ijrochilar va ish muddatini aniqlashdan boshlanadi. So'ngra boshqarish innovasiya qarorini tadbiq etish dasturi ishlab chiqilib, uni bo'linmalar "maqsadlar daraxti"ga muvofiq bajarishlari zarur bo'ladi.

9. Natijalarni nazorat qilish va baholash. Innovasiya dasturini amalga oshirish jarayonida boshqaruvning barcha bosqichlaridagi menejerlar qarorlarning bajarilishini nazorat qiladilar. Zarur bo'lganda boshqaruvchilar yoki malakali kadrlar yordamga keladilar, xato topilganda o'zgartirishlar kiritiladi. Shunday qilib, innovasiyani boshqarish mexanizmi elementlarining oxiridan boshigacha teskari bog'liqlik vujudga keladi.

Innovasiya – boshqarishning maxsus ob'ekti bo'lib, salmoqli investisiya, malakali ilmiy–texnik xodimlar va keng ko'lamdagi marketing tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi. Shunday qilib, innovatsion menejment mexanizmini

boshqarish uchun bo‘limlar o‘rtasida boshqarish tarkibida to‘g‘ri va aksincha o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydigan tizimli yondashuv kerak bo‘ladi.

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN TOPSHIRIQLAR:

1. O‘zingiz faoliyat yuritayotgan OTMda amalga oshirilayotgan innovasion faoliyat turlarini aniqlang.
2. OTMda olib borilayotgan innovasion faoliyat turlari bo‘yicha ta‘lim sifatini aniqlash mezonlari asosida baholang.
3. OTMda ta‘lim sifatini oshirishga xalaqit berayotgan asosiy omillarni aniqlang va ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqing.
4. OTMda ta‘lim sifatini aniqlashda qanday ko‘rsatkichlarni qo‘llash imkoniyatingiz borligini aniqlang.
5. OTM bo‘yicha ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha reja shakltiring.

2-MAVZU: TA‘LIM SIFATINI TA‘MINLASHDA INNOVASION MENEJMENT SAMARADORLIGI.

(2 soat)

Amaliy mashg‘ulot maqsadi:

Tinglovchilarda oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini ta‘minlashda samarali boshqaruv yo‘llarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha rejalar ishlab chiqish, ta‘limda innovasion menejment usullarini qo‘llay olish va innovasion marketing asosida OTM imidjini oshirish, ta‘lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida marketing vositalarini qo‘llay olish va sifatni ta‘minlash maqsadida chora tadbirlar ishlab chiqish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish.

Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

Mashg‘ulot rejasi bo‘yicha nazariy materiallar tahlil qilinib, kichik guruhlar yoki juftliklarda ta‘lim sifatini ta‘minlash, uni oshirish bo‘yicha, ta‘limning zamonaviy xususiyatlaridan kelib chiqib, yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalangan holda berilgan topshiriqlar bajariladi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR:

OTMda innovasion siyosat uch yo'nalish bo'yicha o'tkazilishi mumkin:

1. Mazmunini yangilash, ya'ni bu erda kompetensiyani rivojlanishi nazarda tutilgan. Bu mazmun yaxshi tizimlashtirilgan va multimediya o'quv qo'llanmalar shaklida ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

2. Zamonaviy o'quv usullarini tadbqiq etish – o'zaro o'rgatuvchi va o'quv jarayoniga tadbqiq etuvchi kompetensiyani shakllanishining faol usullarini ko'llash.

3. Informasion, texnologik, tashkiliy va kommunikasion jihatlarni o'z ichiga sig'dirgan o'qitishning zamonaviy infratuzilmasini tuzish.

Ta'lim tizimida innovasion yo'nalishlar va ularga mos keladigan texnologiyalar zamonaviy dolzarb masalalarga ta'siri:

✓ Amaliy tadqiqotlarning shakllanish ko'nikmalari, professional echimlarni qabul qilishga yordam beradi;

✓ Bilimlarni samarali o'zlashtirish imkonini yaratadi ;

✓ Bilimlarni to'plashdan mustaqil ta'lim olish mexanizmlarini yaratish va tadqiqot faoliyati ko'nikmalariga o'tish jarayoni rivojlantirish imkonini yaratadi:

✓ Talabalarning qobiliyatlarini shakllantirish va ularda bilim ko'nikmalarini mustahkamlaydi;

✓ Ijodiy va kasbiy bilim qobiliyatini rivojlantiradi;

✓ Talabalarning sosial moslashuvi uchun psixologik shart sharoitlar yaratadi.

Innovasion menejment faoliyatni tartibga solish uchun tuzilgan tashkiliy tuzilma ilmiy-innovasion faoliyatni konsentrasiyalashtirishi va muvofiqlashtirishi lozim bo'ladi. O'z navbatida, mazkur tash-kiliy tuzilma muayyan talablarga javob berishi hamda alohida vazifalarni bajarishi zarur.

So'nggi yillarda ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha qilingan ishlar hajmi o'sib bormoqda, bu esa oliy maktab ishida muhim ijobiy omil hisoblanadi. Istiqbolda ham oliy maktabni byudjet tomonidan moliyalashtirish holatida sezilarli o'zgarishlar bo'lmasligini tushungan holda, O'zbekiston OO'Yulari tarmoqli vazirliklarning bevosita ko'magida o'zlarining moddiy bazalarini mustahkamlash bo'yicha faol ish olib bormoqdalar. Masalan, turli

moliyalashtirish manbalaridan, ichki va tashqi rezervlardan foydalanish, mablag'larni oqilona ishlatish va noan'anaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish evaziga oxirgi yillarda o'quv, ilmiy-ishlab chiqarish maydonlarini ancha kengaytirish, o'quv va ilmiy bo'linmalarni zamonaviy asbob-uskunalar va kompyuter texnikasi bilan ta'minlashga erishildi.

So'nggi yillarda moliyalashtirishning turli shakllari bo'yicha assignasiyalarni taqsimlashda asta-sekin yanada takomillashgan shakllarga – ilmiy-texnik dastur va grantlarni moliyalashtirishga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Dastur - resurslari, ijrochilari va amalga oshirish muddatlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-xo'jalik hamda boshqa maqsadli vazifalarni samarali hal etishni ta'minlovchi chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Program – understood as effective solution complex which provides resources, in terms of the implementation of the performers and the scientific research, production, socio-economic, organizational and economic objectives, and other measures.

XX asrning oxirlariga kelib texnologiya va bozorni o'zida mujassamlashtirgan yangi innovasiya jarayonining chiziqsiz modeli paydo bo'ldi. Ushbu model orqali innovasiya jarayonining izchilligi, xarakteri, uning teskari aloqasi o'z ifodasini topadi (9-rasm).



9-rasm. OTMda innovatsiya jarayonlarini amalga oshirish modeli

Innovation faoliyat ob'ekti intellektual mulk, yangi materiallar va tarkibiy qismlar, yangi mahsulotlar, yangi jarayonlar, yangi bozorlar, tovar va xizmatlarni siljitish yangi usullari, boshqaruvning yangicha tashkiliy shakllari hisoblanadi.

Innovatsiyalar yaratish mamlakatimizda doimo muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Innovatsiyalarni tijoratlashirish esa yoki mukammallashtirmagan, yoki umuman bo'lmagan. Biroq bugungi kunga kelib, raqobat kurashida innovatsiyalar ishlab chiqarishni emas, ularni amaliy qo'llashni tashkillashtira oladiganlar g'olib kelmoqda.

Respublika darajasida dasturni ishlab chiqish va bajarish uchun muammolarni tanlash quyidagi asosiy shartlarga rioya etgan holda amalga oshirilishi lozim:

- yirik tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va tarmoq iqtisodiyoti, alohida mintaqalar iqtisodiyoti, ta'lim tizimi va ijtimoiy sohani rivojlantirish samaradorligini oshirish

- yuqori ilmiy-texnik yutuqlarni keng miqyosda yoyish va ijtimoiy ishlab

chiqarish samaradorligini oshirish

- ilmiy-texnik dasturlar va loyihalarni moliyalashtirish

- umumiy va alohida dasturlar doirasidagi moliyalashtirish hajmlarini tasdiqlash

Ilmiy-texnik dastur va loyihalarni moliyalashtirishga assignasiyalarni rejalashtirish «erishilgan darajaga muvofiq» usulida amalga oshiriladi. Loyihalarni moliyalashtirish bosh tashkilotlar yoki dasturlar direksiyalari orqali, yoki bo‘lmasa, dasturda bevosita ishtirok etayotgan aniq ijrochilarning hisob raqamlariga mablag‘ o‘tkazish yo‘li bilan bajariladi.

Ilmiy-texnik mahsulotga bo‘lgan to‘lov qobiliyatiga muvofiq talabning davlat tomonidan kabi iqtisodiyotning nodavlat sektori tomonidan ham pasayishi ta’sirida innovasion faollik ham tushib boryapti. Tashkilotlar tayyorlanayotgan mahsulotga talabning pasayishi sharoitlarida, birinchi navbatda, ilmtalab mahsulotni ishlab chiqarish hajmlarini qisqartiradi, ko‘p hollarda esa, uni texnik jihatdan yanada soddaroq va kamharajatliroq qilib almashtiradi. Qoidaga ko‘ra, bunday mahsulot mahalliy bozordan tashqariga chiqa olmaydi.

Innovasion ta’limning rivojlanish prinsiplari:

- Ta’lim va amaliyotning o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlash, kadrlarni amaliyotda ishlashga tayyorlash;

- Ilm-fan yutuqlarini ta’limga keng joriy qilib borish:

- Ta’limning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash, hayot mobaynida uzluksiz ta’lim;

- Bitiruvchilarning korporativ hamkorligini ta’minlash, ta’lim muassasalari an’analarini shakllantirish va rivojlantirib borish;

- Ta’lim va tarbiyani qo‘shib olib borish, yuksak ahloqiy fazilatlarni tarbiyalash;

- Yuksak ma’naviy fazilatlarga ega bo‘lgan intelligensiyani tarbiyalash, jamiyatda oliy ma’lumotli mutaxassislarning yuqori nufuzini ta’minlash.

Innovasion tendensiyalar:

- Universitetlarda boshqaruv tizimining rivojlanib borishi, korporativ boshqaruv metodlaridan keng foydalanish;

- Ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish, masofaviy ta'limni joriy etish.

- Ta'lim muassasalarining mintaqaviy va xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi, ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikning rivojlanib borishi;

- Ta'lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarining ko'payib borishi, byudjetdan tashqari moliyalashtirish;

- Ta'lim sifatini boshqarishga xalqaro standartlar talablarini joriy etish.

Tizim sifatida innovatsiya tashkilotining tadrijiy rivojlanishi uning diversifikatsiyalashuv qobiliyatiga bog'liq. Aynan diversifikatsiya korxonada ichidagi va ular o'rtasidagi kamchiliklarni kamaytiradi. Har xil individual bozor talablariga bo'lgan sezuvchanlikning vujudga kelishi sifatida diversifikatsiya, dastlab, tovar turlari har xil mahsulotlarning samarasi asosida rivojlangan. Innovatsiya tashkilotlarida diversifikatsiyalashuv qobiliyati, birinchi navbatda, tashkilot ichidagi o'zgarishlarga (ishlab chiqarish quvvatlaridan har xil maqsadlarda foydalanish, axborotlarni korxonada uzatish, bilimlar, bir ishlab chiqarishdan ikkinchi ishlab chiqarishga o'tishda nou-xaudan foydalanish va hokazolarga) bog'liq.

Korxonaning turli-tuman diversifikatsiyalash shakllariga o'tish qobiliyati asosiy tarmoqlar, texnologiya va mahsulot turlariga qarab amalga oshadi. Innovatsiya tashkilotlarida diversifikatsiyalashuvning asosiy xususiyati innovatsion rivojlanishning lideri bo'lgan yangi texnologiya va yuqori texnologik ishlab chiqarishning har xil tarmoqlariga tayanishda ifodalanadi. Bunday yondashuv mahsulotning raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash va yangi raqobatda ustunliklarga ega bo'lishning zarur sharti hisoblanadi.

Korxonaning imkoniyatidan foydalanib etarli darajada daromadga ega bo'lgan korxonada, odatda, diversifikatsiyani amalga oshirmaydi. Bunda korxonaning o'sish salohiyati pasayadi. Lekin bozorning to'yinishi, ishlab chiqarishning kelajakda qisqarib borishi bilan va yangi texnologiyalarning vujudga kelishi bilan yirik korxonalar tarmoq doirasidan chiqib ketadilar va innovatsiya asosida tabaqalashgan (xilma-xil) mahsulotlarni ishlab chiqarishni taklif etadilar. Shunday qilib, korporatsiyaning o'zi

bozorlarni, fan sig'imi yuqori bo'lgan ishlab chiqarishni, investisiya oqimini bog'laydigan markaz bo'lib qoladi.

Yangi ishlab chiqarish va tarmoqlarning "o'zagi" raqobat strukturalarini yaratadi, ilmiy tadqiqot ishlanmalariga yirik investisiyalarni sarflaydi, natijada sotish miqdori oshib boradi. Diversifikasiya jarayoni korxonada "ichida" (ya'ni yaponcha yo'l) boshlanishi mumkin yoki tashqarida bir-biriga qo'shilishi, bir-birini yutib yuborish yoki sotib olish bilan (amerikacha yo'l) vujudga kelishi mumkin.

Innovasion faollik va iqtisodiyotning global miqyosda axborotlar bilan ta'minlanishi, kompaniya va korporasiyalarni tashkil etish XX asr davomida shakllangan tamoyillarni tubdan o'zgartirib yubordi. 1990 yillarda iqtisodiyotda markaziy organlar vakolatlarining qisqarib borishi (desentralizasiya) tendensiyasi dastlab kichik bo'linmalarda, mehnat jamoalari va ijtimoiy tashkilotlarda keng tarqaldi. Bu vaqtda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida ishchilar faoliyatini muvofiqlashtirishga harakat katta ahamiyatga ega bo'ldi va eng muhim vazifa iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish – ilmiy izlanishlar bilan band bo'lgan xodimni ijod qilishga o'rgatishdan tortib to yuqori texnologiya asosidagi ishlab chiqarishni tashkil etish va virtual kompaniyalarni yaratishdan iboratdir. Birinchi marta innovasiya faoliyatining tashkiliy shakllari o'z-o'zini boshqaradigan ishlab chiqarish assosiasiyalari doirasida vujudga keldi. Aynan, shu erda yuqori darajada ijodiy (kreativ) salohiyatdan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi va texnologik va sosial taraqqiyotni jadallashtirish mumkin bo'ldi

Intellektual kapital mulk ob'ekti sifatida ishlab chiqarish vositalaridan o'zining xususiyatlariga qarab farqlanadi: u jismoniy jihatdan xoli bo'lib, boshqa kishilarga yoki tashkilotlarga sotilganda yoki axborot sifatida berilganda bevosita bilimlar mulk egasida qoladi. Intellektual kapitalning bunday xususiyati yollangan aqliy mehnat ish kuchlarini o'qitish, bilim berish va salohiyatini oshirish uchun katta miqdorda investisiya oqimi jalb etilishini talab etadi. Shuning uchun bugungi kunda intellektual mehnatning muhim xususiyati – unga bir kishi yoki birgalikda egalik qilish hisoblanadi.

Intellektual mehnatga davlat va munisipial tashkilotlar, xususiy firma va ijtimoiy fondlar o'z mablag'larini sarflaydilar. Mavjud qonunlar ularga to'g'ri va egri soliqar,

foizlar ko'rinishida foyda olishni kafolatlaydi. Intellektual kapital uning egalariga daromad keltiradi. Mulk egasi va undan foydalanuvchi, asosiy qismi nomoddiy bo'lgan vositalarga egalik qiladigan bozor qonuni asosida o'ziga xos bo'lgan tovar mahsulotning egasi sifatida namoyon bo'ladi va mahsulotga bo'lgan talabning yuqori bo'lishidan manfaatdor bo'ladi. Davlat tasarrufida bo'lgan holat oddiy takror ishlab chiqarish jarayoniga to'siq bo'ladi. Ayniqsa, bunday holat bozor iqtisodiyoti sust rivojlangan davlatlarga xos.

Rivojlangan davlatlarda intellektual kapitalni yaratilish texnologiyasi, uning jang'arilishi hamda ishlab chiqarish vositalarining jismoniy va ma'naviy eskirishining ob'ektiv qonuniyatlari ushbu kapitalga katta miqdorda investisiyalarni talab etadi. Bu holda investisiyalar samaradorligini asosiy mezonni foydalanilayotgan kapitaldan olinadigan yuqori foyda normasi hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyot intellektual mulkning ma'lum ob'ektidan foydalanadigan yuqori texnologiyaga asoslanadi. Shuning uchun intellektual bozor qayta tiklanuvchi intellektual resurslarni qo'llaydigan iqtisodiyotning yuqori daromadli sohalari uchun sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Intellektual mulk – qilingan ixtiroviy buyum sifatida namoyon qilish yoki badiiy asar nusxasi sifatida istalgan shaklda taqdim qilingan hamda bu asarlarni oqibatda qayta tiklash imkonini beruvchi intellektual ijodiy faoliyat natijasini qo'llashning yagona huquqidir.

Intellektual mulk ob'ektidan foydalanish huquqi, avvalambor undan nusxa ko'chirish (takrorlash, takror ishlab chiqarish) natijasida real yoki patent daromadni olishni ifodalaydi. Texnik yoki badiiy echimni qayta ishlab chiqarish natijasida daromad manbai shakllanadi va ular monopoliya ko'rinishiga ega bo'ladi. Intellektual mulk mulk egasining monopol huquqini ifodalaydi. Intellektual mulkka egalik qilish huquqi monopol foydaga egalik qilish degan ma'noni anglatadi. Intellektual mulk tushunchasi, 1967 yilda Stokgolm konvensiyasi qarori asosida qabul kilingan. Aynan, shu vaqtda Xalqaro intellektual mulk tashkiloti (XIMT) tashkil etildi. XIMTni tashkil etishdan maqsad intellektual mulkka mintaqaviy, milliy tus berish va milliy qonunlarni kelishgan holda bir xil normaga keltirish edi (6-jadval).

Mualliflik huquqi ob'ektlari	Sanoat mulki ob'ekti	Ilmiy kashfiyotlar	O'ziga xos ob'ekt
Ilm-fan natijalari, komp'yuter dasturlari, ma'lumotlar bazasi, to'plam va boshqalar	Ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, "nou-xau."	Qonunlar	Tarmoqlar industrializatsiyasi
Adabiy asarlar: adabiyot asarlari, o'quv qo'llanmalar, ssenariy va boshqalar.	Tovar va xizmat ko'rsatish belgilari, tovar ishlangan joy nomi	Qonuniyatlar	Seleksiya yutuqlari
San'at asarlari: musiqali, kino, video, tasviriy san'at asarlari va h.k.	Firma nomlari, g'irrom raqobatni yo'qotish	Samaralar	Ma'naviyat

6-jadval. Intellektual mulk va uning turlari.

Intellektual mulk tarkibi bu tashkilot konvensiyasida aniqlab berilgan. Konvensiyaning 2-bandiga binoan intellektual mulk huquqiga quyidagilar ega bo'ladilar:

- adabiy, badiiy, ilmiy asarlar;
- artistlar ijro faoliyati;
- radio va teleko'rsatuvlar, ovoz yozish;
- inson faoliyatining barcha sohalariga tegishli bo'lgan ixtirolar;
- ilmiy kashfiyotlar;
- sanoat namunalari;
- tovar, xizmat ko'rsatishning belgilari, firma nomlari va tijorat belgilari;
- g'irrom raqobatdan himoya qilish.

Xalqaro huquqqa binoan intellektual mulk ikki qismdan tashkil topadi:

- a) sanoat mulki huquqi;
- b) adabiy ijod asarlariga bo'lgan huquq.

Sanoat mulkining ob'ektlari:

- 1) ixtiroga beriladigan patentlar;
- 2) foydali model guvohnomalari;
- 3) sanoat namunalari patentlari;
- 4) tovar, xizmat ko'rsatish belgilari guvohnomalari;
- 5) firma nomlari (yuridik shaxsning rasmiylashtirilishi haqidagi guvohnoma);
- 6) tovar ishlab chiqarilgan joy nomidan foydalanish huquqi xaqidagi guvohnoma;

7) “nou-xau”.

Avtorlik huquqi ob'ektlari:

1. Ilmiy maqolalar, shu jumladan, dissertasiya, monografiya, maqolalar, ilmiy - tadqiqot, konstruktorlik, texnologik loyiha ishlari, hisobotlari.
2. Adabiy, dramatik, musiqiy-dramatik, ssenariy asarlari;
3. Xoreografik asarlar va pantomimalar;
4. Matn va matnsiz musiqali asarlar.
5. Audiovizual asarlar, rassomlik asarlari, haykaltaroshlik, grafika, dizayn va tasviriy san'atning boshqa asarlari.
6. Tasviriy-amaliy san'at asarlari
7. Arxitektura, shaharsozlik, bog' va parklar yaratish san'ati.
8. Fotografiya san'ati va shunga o'xshash usullar bilan bajarilgan asarlar.
9. Geografik, geologik va boshqa xaritalar, geografiya va tipografiyaga taalluqli planlar, eskizlar va plastik asarlar.
10. Komp'yuter dasturlari.
11. Integral mikrosxema topologiyasi.

Sanoat mulki ob'ekti. O'zbekistonda sanoat mulki, obekt turlari va ularni huquqiy himoyalash yo'llari belgilangan:

1. Ixtirolar – qurilmalar, moddalar buyumlar, mikroorganizmlar shtamlari, o'simliklar va jonivorlar hujayralari; ko'rsatilgan ob'ektlarni yangi maqsadda qo'llash.

Ixtirolar ilmiy g'oyalar yangi texnik qarorlarda gavdalantirilgan holda yuqori texnika darajasi va mahsulot sifatini oshirishga yo'naltiriladi.

2. Foydali model mavjud qonun asosida ishlab chiqarish vositalari va iste'mol vositalarini, ularni tashkil etuvchi qismlardan amaliy holda foydalanishni ifodalaydi.

3. Sanoat namunasi tovarning tashqi ko'rinishini ifodalaydigan badiiy konstruktorlik qarori, texnik darajasi bilan birgalikda tovarning tashqi ko'rinishi mahsulotning raqobatbardoshligini belgilaydi.

4. Tovar belgisi. Tovar belgilari, xizmat belgilari, tovarlar ishlab chiqilgan joy nomlari, qonuniga binoan tovar belgisi “xizmat ko'rsatish belgilari” bitta yuridik (yoki jismoniy) shaxsning tovar va xizmatlari boshqa yuridik (yoki jismoniy) shaxs

mahsulotidan farqlash belgilari deb ko'rsatilgan.

Tovar belgisi mahsulotning unga tegishli kafolati va a'lo darajadagi reklamasi. Bunday belgiga ega bo'lish raqobat kurashida ustunlikka ega bo'lish, mahsulotni bozorda sotishni ko'paytirish imkoniyatini beradi. Tovar belgisiga egalik qilish, undan foydalanish va noqonuniy foydalanishni taqiqlash mumkin.

5. Tovar ishlab chiqarilgan joy nomi tovarni ishlab chiqarilganini ifodalaydigan geografik joylar nomidir (mamlakat, aholi punkti, joy). Bunga nafaqat yangi joy nomlari, balki tarixiy nomlar ham kiradi.

Tovar belgisi va tovar ishlab chiqarilgan joy nomi intellektual mulk ob'ektlari bo'lib, o'zining vazifalariga qarab mahsulotni markalarga ajratishga mos keladi va iste'molchiga mahsulotni kaysi xudud va qaerda ishlab chiqarilganligi haqida ma'lumot beradi. Shunga qaramasdan:

- tovar belgisi uning egasiga tegishli bo'lib, aynan shunday tovarni o'zga ishlab chiqaruvchilar bu belgilardan foydalana olmaydilar;

- tovar ishlab chiqarilgan joy belgisi shu erda joylashgan va shu er uchun mahsus bo'lgan tovarlar ishlab chiqarilayotgan, uni tayyorlash uchun shu erdan, tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanilgan ishlab chiqarishning barchasiga tegishli.

6. "Nou-xau"ning hozirgi kunda texnik, tijoriy, boshqaruv, moliyaviy va boshqa ko'rinishlari bo'lib, ular ishlab chiqarish amaliyotida qo'llaniladi va tijoriy ahamiyatga ega. "Nou-xau" sanoat mulki ob'ekti sifatida chegara bilmaydi va davlat tomonidan ro'yhatdan o'tkazilmaydi. Texnik va texnologik xarakterdagi "nou-xau" patentlangan ixtiro, tovar belgisi yoki sanoat namunasiga kirishi mumkin. Bu holda patent huquqi tarkibiga "nou-xau" ga egalik qilish huquqi xam kiradi. Bunda "nou-xau" ga egalik qilish huquqi alohida bitim asosida amalga oshiriladi. "Nou-xau" moddiy va nomoddiy holatda qanday mavjud bo'ladi? Birinchi holatda "nou-xau" chizmalar, hujjatlar, fotolavhalar, kompyuter dasturlari va hokazolar, ko'rinishida bo'ladi. "Nou-xau"ning bunday ko'rinishlari texnik axborotlar yoki texnik hujjatlar deyiladi."Nou-xau"ning nomoddiy shakliga xodimlarni o'qitishga sarflanadigan bilimlar, mutaxassislariga beriladigan maslahatlar, ishlab chiqarish asbob-uskunalarni kuzatish va sozlashda yordam berish va hokazolar kiradi. "Nou-xau"ning bunday shakli texnik yordam, texnik va boshqaruv

xizmatlari deb ataladi.

Intellektual mulk ob'ektini huquqiy himoya qilishni tartibga solish innovasiya jarayonlarini samarali boshqarishni anglatadi. Patent va mualliflik huquqini himoya qilish qonunining mexanizmi innovasiya korxonalariga raqobatda ustunlikni taminlash, innovasiya natijalaridan foydalanish uchun sharoit yaratish, innovasiya mahsulotlarini sotish natijasida shunga muvofiq ravishda foyda olishni bildiradi.

Mulkni huquqiy tartibga solish intellektual mulk ob'ektidan foydalanish muhofazasini va huquqiy himoyasini ta'minlaydi. O'zbekistonda korxonalar intellektual mulki ob'ektlarini huquqiy jihatdan tartibga soladigan asosiy normativ hujjatlariga:

«Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar ishlangan joy nomi haqida», «Mualliflik huquqi va shunga o'xshash huquqlar haqida», «Komp'yuter dasturlari va ma'lumotlar bazasini himoya qilish haqida»gi Qonun va qarorlar kiradi. Bundan tashqari, intellektual mulk munosabatlarini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va intellektual mulkni himoya qilish yuzasidan tuzilgan xalqaro bitimlar tartibga soladi.

Demak, quyidagi xulosalar:

1. Intellektual mulk – intellektual mulk natijalariga jismoniy va huquqiy shaxslarning egalik qilishi.
2. Intellektual mulk ob'ektidan foydalanish korxonalar va tashkilotlarga yuqori iste'mol qilish xususiyatlariga ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish va shu asosda yuqori raqobatdoshlikka erishish imkoniyatini beradi.
3. Intellektual mulk ikki qismdan iborat: sanoat mulki va badiiy ijod asariga huquqiy egalik qilish.
4. Intellektual mulkning har bir qismini o'zining qonunlari himoya qiladi va tartibga soladi: sanoat mulkini patent qonuni himoya qilsa, badiiy mulk mualliflik huquqi yordamida himoya kilinadi .
5. Intellektual mulk huquqini himoya qilish korxonalariga innovasiya tovarlarini samarali sotish imkonini beradi.
6. Intellektual mulk ob'ekti yangiliklar bozoriga tijorat va notijorat ko'rinishda

beriladi. Tijorat ko‘rinishida berilgan ob‘ekt lisenziya bitimi asosida amalga oshadi.

7. Lisenziya bitimlari texnologiyani bozorga olib chiqishning asosiy shakli bo‘lib, fan va texnika sohasining intellektual faoliyatidan kelib chiqib, ular ma‘lum muddatga beriladi.

8. Intellektual mulk ob‘ektini baholash, hisobga olish amortizasiya miqdorini belgilash, buxgalterik hisoboti, O‘zbekiston Respublikasi korxonalarining nomoddiy aktivlari tarkibiga kiradi va “nomoddiy aktivlarni hisobga olish” haqidagi buxgalterlik hisobi asosida amalga oshiriladi.

Munosabatlar marketingi modelini “kommunikasiya - foydalilik -individuallashtirish – bitiruvchi” ketma-ketligida tasvirlash mumkin.

Birinchi bosqich- kommunikasiya, avvalambor kabul komissiyasi tomonidan ma‘lumotlar yigish bo‘yicha katta miqyosdagi tashkiliy ishlarni bajarishni nazarda tutadi. Shuningdek, bu ta‘lim olish jarayonida talabalar talablarining o‘zgarishi tahlili hamda bitiruvchilar to‘g‘risida ma‘lumotlar yig‘ishni ham qamrab oladi va bu ish uzluksiz davom etadi.


Ikkinchi bosqich - foydalilik. Ta‘kidlash joiz, talaba ta‘lim maskaniga faqat tahsil olish uchun kelmaydi. Ko‘pgina ta‘lim muassasalari buni yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham reklamalarda sport to‘garaklari, boy madaniy hayot va boshqalar to‘g‘risida ma‘lumotlar ko‘plab beriladi.

Uchinchi bosqich talaba hayotini individuallashtirishni (ham o‘qish, ham yashash ma‘nosida) nazarda tutadi.

To‘rtinchi bosqich oldingi bosqichlarda amalga oshirilgan harakatlarning natijasi va bitiruvchining talabalikdan keyingi hayotiga qaratiladi.

O‘zaro aloqalar marketingi konsepsiyasi ta‘lim sohasining barcha ishtirokchilarining manfaatlarini bir-biriga boglaydi. Natijada ta‘lim xizmatining sifati va oliy o‘quv yurtlari (OO‘Yu)ning raqobatbardoshligi ortadi.

O‘zaro aloqalar marketingi konsepsiyasi o‘z tarkibiga bir-biri bilan o‘zaro aloqador uchta kategoriya: OO‘Yu, professor-o‘qituvchilar jamoasi va iste‘molchini qamrab olgan. Ma‘lumki, davlat, korxonalar va talaba asosiy iste‘molchi sifatida qaraladi.



9-rasm. Ta'lim xizmatlari marketingi modeli¹⁷.

F.Kotler va K.F.A.Foks bergan ta'rifga ko'ra, ta'lim xizmatlari marketingi deyilganda "oliy o'quv yurtlari (OO'Yu)ning intilishlarini ro'yobga chiqarish maqsadida maqsadli bozorlarda qadriyatlarni ixtiyoriy ravishda ayirboshlashni yuzaga chiqarishni puxta o'ylab ishlab chiqilgan dasturlarni o'rganish, rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish" tushuniladi. OO'Yu uchun bu - o'zaro manfaatli aloqalarni uyg'unlashtirish maqsadida ta'lim muassasalari bilan iste'molchilar o'rtasida ayirboshlash munosabatlarini o'rnatish yo'li bilan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashdir.

Shunday qilib, marketing konsepsiyasi ikki xil bozor: mehnat bozori va ta'lim xizmatlari bozoriga nisbatan qo'llaniladi. Aynan shu yo'sinda ish yuritish ta'limni modernizatsiya qilishning uch asosiy tamoyili: ta'limning hammabopligi, ta'lim xizmatlarining sifati va oliy ta'lim muassasasi faoliyatining samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirishning amaliy ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'lim marketingining iqtisodiyotdagi ahamiyati benihoya kattadir, u quyidagi uch jihati bilan ajralib turadi:

1) *iqtisodiy rivojlanishda ta'limning asosiy ahamiyati.* Zamonaviy texnologiyalar jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga yuqori talablar qo'yadi. Shunday ekan ularning tarqalishi tizim va aholining bilimlilik darajasiga bog'liq bo'ladi. Shunga mos ravishda, marketing ta'limda ilg'or g'oyalarni tarqatish bilan bog'liq.

¹⁷ А.А. Носова, Т.Уе. Яцевич, "Маркетинг как инструмент обеспечения качества образовательных услуг ВУЗа" -// Устойчивое развитие экономики: состояние, проблемы, перспективы: сборник трудов VIII международной научно-практической конференции, УО "Полесский государственный университет", г. Пинск, 17 октября 2014 г. / Министерство образования Республики Беларусь [и др.]; редкол.: К.К. Шебеко [и др.]. – Пинск : ПолесГУ, 2014. – С. 160-162.

2) *ta'limning butun iqtisodiyot tarmog'i va har bir alohida ta'lim muassasasi sifatida rivojlanishi.* Ta'lim xizmatlari va mahsulotlari assortimenti qanchalik keng bo'lsa, ularning sifati va ularga erishish imkoniyati, jamiyat hayoti darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Shunga mos ravishda ta'lim tizimi rivojlanishi bevosita marketing dastaklarini qo'llashga bog'liq bo'ladi.

3) ta'lim muassasalari odatga ko'ra, byudjet mablag'lari va ta'lim xizmatlarini ko'rsatganlik uchun olinadigan to'lovlar hisobiga faoliyat yuritadi. O'tish iqtisodiyotida byudjet mablag'larining cheklanganligi to'lov ta'lim xizmatlari marketingini rivojlantirishni talab qiladi.

Ta'limda marketing elementlaridan foydalanishning zarurligini tushunish, avvalo rahbar va mutaxassislar orasida, ya'ni "marketing – bu zamonaviy bozor munosabatlari qatnashchilari tafakkurida ularning yashash uslubi bilan birga kechadigan muhim element" ekanligini tushunish zarur.

Ta'lim xizmatlari va mahsulotlari iste'molchilari ehtiyojlariga ko'ra qayta mo'ljal olish – bu aksariyat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan tarkibiy va texnologik o'zgarishlardir. Bu ta'lim muassasi xodimlari faoliyatida psixologik qayta qurishni talab etadi.

Bunday o'zgarishlar uzoq davom etadi, hattoki agarda ta'lim muassasasi yangi va muhim strategik maqsadlarni belgilagan bo'lsa ham, ya'ni an'anaviy usullarga qaytish bo'lgan qiziqish yuqori. Shunday qilib, har bir ta'lim muassasida hal etilishi lozim bo'lgan birinchi navbatdagi vazifa - yangi ta'lim xizmatlari va mahsulotlari bilan jamoani va tashkilot ishini marketingli mo'ljal olishga moslashtirish hisoblanadi.

Ta'lim xizmatlari va mahsulotlari bozorida raqobatning o'sib borishini hisobga olgan tarzda, potensial talabni baholash uchun bozorni tadqiq qilishning marketing usullariga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi.

Ta'lim tizimida marketing tadqiqotlarining maqsadi istiqbolli ta'lim ehtiyojlarini aniqlash, ularning qoniqtirilganlik darajasini baholash, iste'molchilar xulq-atvori gipotezasini tekshirish va prognozlashtirishdan iborat. Ushbu nuqtai-nazardan ta'lim ehtiyojlarini tahlil etishda marketing tadqiqotlaridan samarali

foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mos ravishda ikkinchi hal etishi lozim bo'lgan vazifa - marketing tadqiqotlarini olib borish va bozor istiqbollarini o'rganish bo'lib hisoblanadi.

Marketingning klassik elementlarini faollashtirib, bozorni segmentlashni amalga oshirish, marketing kommunikasiyalari yordamida xizmatlarni yaxshilash va ta'lim muassasasi imkoniyatlari va o'rganilgan ta'lim ehtiyojlari borasidagi muammolarni kelishilgan tarzda hal etish talab etiladi. Va, nihoyat, marketingli boshqarish jarayonini ta'lim ehtiyojlarining ta'lim muassasasi imkoniyatlari va marketing modelini shakllantirish bilan muvofiqlashtirish sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim sifatini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan ta'lim dasturi, marketing elementlari yordamida jamiyat va ta'lim bozorining real va talab etiladigan ta'lim natijalari orasidagi farqni qisqartiradi. U o'zida quyidagilarni namoyon etadi:

Ta'lim xizmatlari marketingining to'rtta asosiy xususiyati bor:

- ko'p sonli marketing munosabatlari ishtirokchilari, ularni to'rtta katta guruhga ajratish mumkin: mijozlar, sheriklar, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar;
- ko'p maqsadlilik: ishlab chikarishda foyda maksimallashtiriladi, ta'lim maqsadini ifodalash esa anchagina murakkab;
- tovarlar emas, balki xizmatlar ishlab chiqarilganligi sababli marketing strategiyasini o'zgartish talab etiladi;
- xizmat ko'rsatishga jamoatchilik tarafidan katta e'tibor va bozordan tashqari tazyiqlar ko'rsatiladi.

Ta'lim xizmatlari bozori (TXB)ni doimiy tadqiq etish uning asosiy elementlari - talab, taklif va baholar dinamikasini tahlil etish marketing sohasidagi strategiyasini to'g'ri tanlash imkoniyatini beradi. Bu esa ta'lim muassasasining faoliyatini boshqarish samaradorligi bilan bevosita bog'likdir. Ta'lim xizmatlari marketing faoliyatining bosh vazifasi ta'limga bo'lgan talabni aniqlashdan iborat. Ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab, bir tomondan, shaxsning oliy ma'lumot, diplom olishga, ikkinchi tomondan, tegishli mutaxassislik bo'yicha malaka olishga bo'lgan

ehtiyojidan kelib chiqadi. Oliy ma'lumot olishga talabgorlar soni har doim o'zlarining ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini haqiqatda qondirish imkoniyatiga zga bo'lganlardan ortiq bo'lib kelgan. Bu nomutanosiblik, birinchidan, aholining to'lov qobiliyati, ikkinchidan, mazkur talabni to'liq qondira oladigan oliy o'quv yurtlari sonining cheklanganligi bilan bog'liqdir.

Tovar va xizmatlarning boshqa turlariga nisbatan ta'lim va ta'lim xizmatlari juda ko'p omillarga bog'likdigi bilan keskin ajralib turadi. Shuning uchun ham ta'lim xizmatlari ishlab chiqaruvchilari va ularning iste'molchilari o'rtasidagi munosabatlarga marketing yondoshuvi nuqtai nazaridan baho berish juda o'rinli deyish mumkin.

Agarda marketing yondoshuvini bir xil darajada ham davlat, ham nodavlat ta'limiga kerak deb karalmas ekan, bu ularning har ikkalasi uchun ham salbiy oqibatlarni keltirib chikarishi mumkin.

Birinchidan, davlat ta'lim muassasalari davlat tomonidan ko'rsatiladigan (juda ham katta miqdorda bo'lmasa ham) yordamga ishonib ish yuritar ekan, yana uzoq vaqt bozorni tadqiq etish, o'zining ta'lim xizmatlarini unga bo'lgan talablarga moe ravishda loyihalashtirish va siljitish bilan jiddiy shug'ullanishga urinib ham ko'rmaydi.

Ikkinchidan, xususiy ta'lim, davlatning moliyaviy ko'magisiz qolgani holda o'z e'tiborini o'quvchilarning moliyaviy jihatdan badavlatroq (elita) guruhiga, ta'limning "tez etiladigan" va "tez tugatiladigan" turlari hamda ko'rinishlariga, o'zining bozor strategiyasida ta'limning sifatiga hissa qo'shmaydigan jihatlariga qaratishga majbur bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini kompleks baholash uchun raqobatbardoshlikni baholash ko'rsatkichlari taklif etildi. Bu ko'rsatkichlarni hisoblash uchun quyidagi beshta guruhga tegishli: moliyaviy, marketing, sifat, ijtimoiy va funksional indikatorlar qo'llaniladi.

Oliy ta'lim muassasalari tizimining sifati omillariga quyidagilar kiradi:

1. Ta'lim marketingi xizmatlari sifati, OO'Yuning sifat siyosati;

2. OO'Yu rahbariyatining ma'mur menejeolik mahorati, OO'Yuning moliyalashtirish holati, OO'Yuga kiradigan abituriendlarning sifati;

3. O'qituvchi sifati, bitiruvchi sifati, ARM va kutubxona xizmati sifati, OO'Yuning moddiy-texnika ta'minoti sifati.

Ta'lim xizmatlari bozori – milliy bozorning muhim elementidir. Shu bois, ta'lim xizmatlari bozorining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rnini o'rganish ahamiyatlidir. Ta'lim xizmatlari ta'lim tizimi muassasalari tomonidan taklif etiladi va ta'lim xizmatlari bozorida unga bo'lgan talab shakllanadi. Ta'limning iqtisodiy vazifasi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga malakali ishchi kuchini tayyorlash va takror ishlab chiqarishda qatnashishda namoyon bo'ladi. Barkamol avlodni shakllantirish jarayonida oliy ta'lim tizimining o'rni beqiyos.

Ta'lim xizmatlarining bozorining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ularning har xil ne'mat turlariga tegishli ekanligi;
- ne'mat sifatida cheklanmaganligi;
- iste'mol qiymatiga egaligi, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni qondiruvchi o'ziga xos tovar ekanligi (moddiy tavsifga ega emasligi, saqlash va yo'q qilib tashlashning mumkin emasligi);
- ta'lim xizmatlarining individual tavsifga ega ekanligi;
- ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va iste'mol qilish jarayonining bir vaqtning o'zida ro'y berishi;
- iste'molchilarning ta'lim xizmatlarining ko'rsatilishi jarayonida bevosita ishtirok etishi;
- ta'limga sarflanadigan xarajatlardan oladigan samarani miqdor jihatidan baholashning qiyinligi;
- ta'lim xizmatlariga talabning yuqori darajada egiluvchanligi.

Xizmatlar uchun umumiy bo'lgan xususiyat bu ularning nomoddiyligidir, ya'ni ularni jamg'arib bo'lmaydi. Inson ta'lim xizmatlarini iste'mol etib, bilim, malaka, ko'nikma va shaxsiy imkoniyatlarni jamg'aradi, ya'ni o'zida shakllantiradi.

Ta'lim xizmatlarining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, mazkur xizmatlarning iste'molchilariga nisbatan muayyan talablar qo'yiladi (masalan oliy ma'lumot olish uchun ma'lum darajada bilimga ega bo'lish va uning mavjudligini isbotlash talab etiladi).

Marketing nuqtai nazaridan qaraganda ta'lim xizmatlarining muhim xususiyati ularning bir vaqtning o'zida taqdim qilinishi va iste'mol etilishidir.

Ta'lim xizmatlari sohasidagi marketing munosabatlarining sub'ektlari bo'lib ta'lim xizmatlarining iste'molchilari, ta'lim muassasalari, ta'lim xizmatlarini bevosita taqdim etuvchilar, ta'limni boshqarish organlari hisoblanadi. Ta'lim xizmatlari bozorining boshqa sub'ektlari, masalan, yakka tartibda faoliyat olib boruvchi pedagoglar ham marketing elementlaridan u yoki bu darajada foydalanadilar. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ular o'z xizmatlarining iste'molchilari bilan doimiy aloqada bo'ladilar, ya'ni ularning talab va ehtiyojlaridan boxabar bo'ladilar, reklama faoliyatini olib boradilar va h.k.

Bozor raqobati sharoitida marketing oliy ta'lim sohasini ham qamrab oluvchi inson faoliyatining turli sohalariga keng joriy etiladi. Ta'limdagi marketing birinchi o'rinda ijtimoiy samarani yaratishga qaratiladi.

Ta'lim marketingi xizmatlari sifatini oshirishda OTMlarda bitiruvchilarni ishga joylashtirish va ularning bandligini qo'llab-quvatlash maqsadida quyidagi ikki bosqichdan iborat uch darajali tizimni taklif qilamiz. Birinchi bosqichini bitiruvchi ta'lim olgan mutaxassislik kafedralari tashkil etadi. Bu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- kafedralarning respublikadagi turli mulkchilik shaklidagi korxonalar bilan aloqasini mustahkamlashga erishiladi;

- mehnat bozori kon'yunkturasi talablariga javoban mutaxassislik fanlar dasturlariga tezkor o'zgartirishlar kiritiladi;

- kafedralarda mavjud professor-o'qituvchilar jamoasi ta'lim dasturlarini hisobga olgan holda, ish beruvchilar talablariga binoan qo'shimcha ta'lim xizmatlarini amalga oshiradi.

Respublikamizdagi OTMlarda bitiruvchilarning ishga joylashishlariga ko'maklashish OTM marketing bo'limlariga yuklatilgan. Bu bo'limlar vazifalari bitiruvchilarning mehnat bozoridagi o'rni, bu yo'nalishdagi dolzarb muammolarni aniqlash va jamoa oldidagi vazifalarni rejalashtirish va amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, qator tashkiliy ishlarni bajaradi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, marketing bo'limlarida bitiruvchilarni ishga joylashtirishning yangi shakllari va ish o'rinlari topishning innovasion modellarini amaliyotga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi bosqich ta'lim xizmatlari marketinggi va ish bilan bandlikka ko'maklashish markazlari bo'lib, ushbu markazlarni mavjud "Marketing bo'limi" qoshida tashkil etish o'rinlidir. Ushbu markaz bitiruvchilarni ishga joylashtirish sxemasini quyidagi tarzda tashkil etishi maqsadga muvofiq:

- mehnat bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
- malakaviy amaliyotni o'tkazish bo'yicha shartnomalar tuzish;
- mutaxassislik kafedralari o'z mutaxassisligi bo'yicha mehnat bozorini o'rganishi va bitiruvchilarga ehtiyoj haqidagi ma'lumotlarni ushbu markazlarga etkazish;
- talabalarning o'qish davrida va malakaviy amaliyotlarini o'tash davrlarida bo'lajak ish joylarini aniqlashga ko'maklashish;
- ish o'rinlarini tanlash mutaxassislik va kasbiy salohiyatga mos holda amalga oshirilishi lozim.

Uchinchi darajada OTMlar bitiruvchilarini ishga joylashtirish davlat tomonidan boshqariladi. Davlat standartlarida o'quv rejalariga qator yangi tanlov fanlarining kiritilishi natijasida buyurtmachi korxonalar bilan aloqani yaxshilash, amaliyotlarni ularda o'tkazishga va mehnat bozoriga moslashgan mutaxassislar tayyorlashga erishiladi. Yosh mutaxassislarning ish bilan bandligini boshqarish ularning o'z mehnat qobiliyatini to'liq namoyon qilishi uchun munosib ish o'rinlariga ehtiyoji va jamiyatning ishchi kuchiga talablari mosligini ta'minlashdan iborat.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish

muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha marketing strategiyasini ishlab chiqishda o'sish strategiyasidan foydalaniladi. U jadval ko'rinishida quyida o'z ifodasini topgan. O'sish strategiyasi uch xil turga bo'linadi.

Intensiv o'sish strategiyasi, bunda ta'lim muassasalarida bozorga chuqurroq kirib borish, unda foydalanilmay qolgan imkoniyatlardan foydalanish hisobiga o'sish nazarda tutiladi.

Integrasion o'sish strategiyasi, bunda tarmoqning boshqa sub'ektlari bilan hamkorlik (vertikal va gorizontal integrasiya) aloqalari amalga oshiriladi.

7- jadval.

Ta'lim muassasasining o'sish strategiyasi imkoniyatlari.

Strategiyalar	1.Kirib borish strategiyasi-xizmatlar hajmini o'sishi	2.Integrasiya strategiyasi -strategik alyanslar yaratish	3.Diversifikasiya strategiyasi -xizmatlar nomenklaturasini kengaytirish
1	Ta'lim xizmatlari bozoriga chuqurroq kirib borish	Kasb-hunar kollejlari va akademik liseylar bilan to'g'ridan to'g'ri hamkorlik asosida regressiv integrasiya	Konsentrik diversifikasiya (OO'Yularida turli faoliyat sohalari uchun mutaxassislar tayyorlash)
2	Ta'lim xizmatlari bozorini kengaytirish	Progressiv integrasiya	Gorizontal diversifikasiya (korxonalar buyurtmasi asosida kadrlar tayyorlash)
3	Yangi shakllar bilan dasturni takomillashtirish	Gorizontal integrasiya (boshqa OO'Yu bilan hamkorlik)	Konglomerat diversifikasiya(tubdan boshqa xizmat turlarini ko'rsatish, pullik ta'lim xizmatlari)

Diversifikasiya strategiyasi, ta'lim muassasalarida xizmatlar turlarini kengaytirish orqali o'sishga erishish, tubdan boshqa xizmat turlarini ko'rsatish, pullik ta'lim xizmatlari va hokazolar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim marketingi strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga olib keladi.

Innovasiya marketingi konsepsiyasi bozorni o'rganish va korxonaning raqobatchilik strategiyasini aniqlashning asosi hisoblanadi. Innovasiya marketingi majmui innovasiya strategiyasini ishlab chiqish, bozorni tahlil etish va operativ

marketingni o'z ichiga oladi va bir-biridan farq qiladigan ettita bosqichdan iborat. Innovasiya marketingining muhim ko'rinishlariga strategik va operativ marketing kiradi.

Strategik innovasiya marketingining asosiy maqsadi – yangilikni bozorga kiritishning strategiyasini ishlab chiqish. Shuning uchun strategik marketing tadqiqotlarining asosini bozor kon'yukturasini tahlil etish bilan bozor segmentini ishlab chiqish, talabni tashkil etish va vujudga keltirish, xaridorlar harakatini modellashtirish tashkil etadi. Innovasiya marketingi strategiyasi mavjud bo'lgan tovarlarga qarab ajratiladigan bozor segmenti bilan aniqlanadi. Marketing strategiyasining asosi yangi tovarga bo'lgan iste'molchilarning munosabatini o'rganish asosida talabni tahlil etish va bashorat qilishdan iborat. Strategik tadqiqotlar jarayonida innovasiya loyihasi rahbari qanday, kimlarga, qanday sifatdagi mahsulotni ishlab chiqishni aniqlab oladi. Shuning uchun, marketing strategiyasi uni amalga oshiradigan menejerlar, ijtimoiy xizmat ko'rsatish xodimlari va iste'molchilar bilan (so'rovnomalar olib borish, telefon orqali bog'lanish, tanishtirish ishlarini olib borish) aloqalarni o'rnatishni talab etadi.

Innovasiya strategiyasini ishlab chiqishning boshlang'ich bosqichida marketing tamoyillarining birinchi vazifasi – bozorni o'rganish. Bunday tadqiqotlarning ilk bosqichida umumiy iqtisodiy tadqiqotlar o'tkaziladi. Tahlilning bunday turi odatda korxonaning "tashqi muhitni" o'rganish bilan bog'liq bo'lgan makroiqtisodiy: yangilikka bo'lgan talabni, shu jumladan, aholi va uning o'sish sur'atlari, kishi boshiga to'g'ri keladigan daromadlar va ularning iste'moli, iste'mol baholari indeksi, «iste'molchilar savatchasi», inflyasiya sur'atlari va shunga o'xshash omillarni tahlil etish imkonini beradi. Bundan tashqari, mahsulot eksporti va importi bilan bog'liq bo'lgan, ularga kvotalar belgilash, standartlarga cheklovlar qo'yish, majburiyatlar, soliq, subsidiya va hokazolar bilan bog'liq bo'lgan huquqiy shartlar va amaldagi qonunlarni o'rganish ham marketing strategiyasining vazifasi hisoblanadi. Bunda yangi mahsulot ishlab chiqarayotgan milliy ishlab chiqarish darajasi tahlil etiladi: importning mavjudligi va mumkinligi, mavjud bo'lgan eksport darajasi, import mahsulotlar o'rnini bosadigan tovarlarning mavjudligi va yangiliklar kiritish darajasi va hokazolar.

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN TOPSHIRIQLAR:

1. Siz faoliyat yuritayotgan OTMning asosiy rivojlanish strategiyalarini aniqlang.
2. Ta’lim muassasasining o’sish strategiyasi va ularning imkoniyatlari nimalardan iborat ekanligini aniqlang.
3. Siz faoliyat yuritayotgan OTMning SWOT taxlilini amalga oshiring.
4. OTM faoliyatida marketing xizmatlarini asosiy yo‘nalishlarini aniqlang va unga baho bering.
5. OTM faoliyatidagi kamchiliklar va zaif tomonlarini qanday bartaraf etish bo‘yicha taklif yoki chora-tadbirlar ishlab chiqing.

3-MAVZU: TA’LIM SIFATINI TA’MINLASHDA INNOVASION FAOLIYATNING JAXON TAJRIBASI. (4-soat)

Amaliy mashg‘ulot maqsadi:

Tinglovchilarda xorij tajribalari asosida halqaro ta’lim sifati va sifat standartlarida qo‘llaniladigan mezon va ko‘rsatkichlar bilan tanishtirish asosida xalqaro sifat standartlarining zamonaviy boshqaruv uslubiyotlarini qo‘llash, jumladan OTMda SMTni qo‘llash, texnopark, toexnopolis, biznes inkubator kabi innovasion tashkilotlarni yo‘lga qo‘yish, venchur moliyalashtirishni amalga oshirish, innovasion loyihalar tavakkalchiligida risklarni kamaytirish, Xalqaro standartlashtirish tashkilotlari va sifatni baholash tizimi bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish.

Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

Mashg‘ulot rejasi bo‘yicha nazariy materiallar tahlil qilinib, kichik guruhlar yoki juftliklarda ta’lim sifatini ta’minlash, uni oshirish bo‘yicha, ta’limning zamonaviy xususiyatlaridan kelib chiqib, yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalangan holda berilgan topshiriqlar bajariladi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR:

O'zbekiston ta'lim sohasida bozor islohotlarini amalga oshirib, xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi bilan integrasiya jarayonlarini aniq maqsadlarga muvofiq ravishda olib bormoqda.

The implementation of market reforms in education sphere in Uzbekistan in accordance with the processes of integration the education system of foreign countries with specific purposes.

Hamdo'stlik mamlakatlaridan Rossiya, horijiy davlatlardan Singapur, Buyuk Britaniya, Italiya bilan oliy ta'lim sohasida hamkorlik aloqalarini amalga oshirdi. 2006 yilda Rossiyaning M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universitetining Toshkentdagi filiali ochildi. Universitet Rossiya MDU davlat standartlari asosida psixologiya, xalqaro programmalashtirish va iqtisod yo'nalishlarida bakalavriat ta'limi yo'lga qo'yildi. Xalqaro standartlarga mos ravishda o'quv dasturlarining tuzilganligi, ta'lim sifatining yuqori darajada ekanligi, ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi hamda eng ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib borilishi universitet bitiruvchilarining mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi. Universitetning zamonaviy kompyuter texnika va texnologiyalari bilan jixozlangan auditoriyalari ta'lim jarayonini samaradorligiga ta'sir etib, ta'lim sifatini jaxon standartlariga mos ravishda boshqarilishi ta'minlanmoqda.

Yangi talim turlarini joriy etish maqsadida masofaviy ta'lim tizimiga asos solinib fandlardan ko'p video ma'ruzalar ishlab chiqilmokda va videokonferensiyalar tashkil etilmoqda. Universitet tayanch oliy o'quv yurti sifatida, chet elda o'qib kelgan mutaxassislarni jalb etgan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar universitetlari ta'lim standartlari, o'quv rejalari, fanlar bo'yicha o'quv dasturlari o'rganildi.

Respublika universitetlarida chet elda o'qib kelgan mutaxassislarni jalb etgan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar universitetlari ta'lim standartlari, mutaxassisliklar, yo'nalishlar, o'quv rejalari, fanlar bo'yicha o'quv dasturlari

o'rganilib, halqaro standartlar talabiga mos holda zamonaviy ta'lim standartlari, adabiyotlar, o'quv rejalar, o'quv dasturlar tayyorlanmoqda.

At the University of the Republic with the participation of experts who have studied abroad are preparing educational programs, modern educational standards and literature, study plans in accordance with the experience of Universities of developed foreign countries.

O'zbekiston Respublikasida tayyorlanayotgan yo'nalishlar va mutaxassisliklar standartlari, o'quv rejalar, dasturlari bilan solishtirilib tahlil etildi va uning asosida mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi, fanlar bo'yicha dasturlar takomillashtirildi. Ortirilgan tajribalar asosida darsliklar va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda xorijda va respublikada chop etilgan o'quv qo'llanma, darsliklar, boshqa oliy o'quv yurtlari olimlarining ilmiy izlanishlarining qiyosiy tahlili berildi. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar Respublikada qabul qilingan hukumatning eng so'nggi qarorlari, me'yoriy hujjatlari va boshqa instruktiv ma'lumotlar bilan boyitildi, adabiyotlar ro'yxatiga 2005 yildan keyin Rossiya va xorijiy mamlakatlarda chop etilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalar VEB saytlar kiritildi, glosariylar boyitildi.

Xorijdagi ilg'or g'oyalarni va ta'lim usullarini utkazish uchun universitetning xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan aloqalari faollashmoqda. Janubiy Koreya, Gollandiya, Rossiya, Avstriya, Angliya, AQSh, Yaponiya davlatlarining etakchi professorlari universitetga kelib ingliz tilida mashg'ulot o'tishmoqda. Xalqaro Biznes, Xalqaro Iqtisodiy Munosabatlar fakultetlarida mashg'ulotlar ingliz tilida o'tilishi tashkil etilgan. Muntazam ravishda professor-o'qituvchilar uchun pedagogik (keys) texnologiyalarni yaratish bo'yicha seminar treninglar o'tkaziladi. Mashg'ulotlarni interaktivligini oshirish maqsadida axborot texnologiyalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'lash bo'yicha o'qituvchilar va talabalar uchun maxsus o'quv qo'llanmalar yaratildi.

Jahon oliy ta'lim tizimi tajribasi. Jahondagi ko'plab mamlakatlarda oliy

o'quv yurtlari o'rta umumiy ta'lim tizimidan keyingi, navbatdagi ta'lim bosqichi hisoblanadi. Oliy ta'lim maktablarining ko'pchiligida o'qish muddati 2 yil yoki undan ko'proq bo'lib uch siklda yoki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich ta'limi 3-4 yil (yoki ko'proq) davom etadi va bitiruvchilarga bakalavr diplomi beriladi (AQSh, Angliya, Yaponiya, Avstarliyada). Fransiyada birinchi bosqich oliy maktabni bitiruvchilarga metriz Belgiyada lisans unvoni beriladi.

The first stage of of study for 3-4 years (or more) and graduates receive a bachelor's degree (US, UK, Japan, and Australia).

Ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablariga birinchi siklni tugatgan bitiruvchilarning 10-25 foizi qabul qilinadi.

The second stage – Higher Education Institutions accept 15-25 percent which have finished the first cycle.

Masalan ko'rsatkich AQShda - 20, Buyuk Britaniyada -15, Avstraliyada – 7, Avstriyada -10, Yaponiyada - 6 foizni tashkil qiladi. Bu davrda tanlangan yo'nalish bo'yicha ixtisoslashtirilgan umumiy fundamental bilimlar o'qitiladi (Angliya, Ispaniya, AQSh). GFR, Fransiya, Belgiya kabi mamlakatlarda esa ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablari talabalari ancha mukammal va muayyan maqsadga yo'naltirilgan bilimlarni egallaydilar. Lekin hali ular tor profildagi yuqori malakali mutaxassis unvonini olish uchun ikkinchi sikldagi o'qishlarini yana ixtisoslashtirilgan kurslarda 1-2 yil davom ettirishlari mumkin. Muayyan ixtisosliklar bo'yicha maxsus imtihonlar 3 yillik amaliy ish faoliyatidan keyin ham topshirilishi mumkin. Oliy maktablarining ikkinchi bosqichida o'qish 1-2 yil davom etadi. Bu siklni bitirgan talabalarga magistr unvoni beriladi (AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliya).

Fransiya va Belgiyada magistr unvoni ma'lum mutaxassisliklari chuqur o'rganuvchi kurslarning bitiruvchilariga ham beriladi. Magistrlik ta'limining o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'quv dasturlarini individual-lashtirilganligidir. Bunda

o'quv dasturlari talabalar va ularning ilmiy rahbarlari tomonidan tuziladi va kafedralar, dekanatlar tomonidan tasdiqlanadi. Magistraturani bitirgan yoshlar doktoranturaga kirishga huquqiga ega bo'ladilar.

Uchinchi bosqichi oliy ta'limning bu - doktoranturadir. Bunga asosan ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablarini muvaffaqiyatli bitirgan talabalar qabul qilinadi.

The third stage of the higher education – doctorate. Generally accepted those students who have successfully completed the second stage of education in higher education.

O'qish muddati mutaxassislik turiga ko'ra 1-3 yil. Doktoranturaga birinchi sikl oliy ta'lim maktablarini bitirganlar ham kirishi mumkin. Lekin bu holda o'qish muddati 3-5 yilgacha uzaytiriladi.

Birinchi sikl oliy ta'lim qoidalariga binoan mutaxassislik bo'yicha umumiy bilimlar berishga yo'naltirilgan. Ta'limni alohida ixtisoslarga bo'lib tashkil qilish, odatda, 3-kursdan boshlanadi. Tor mutaxassislar bo'yicha kadrlar tayyorlash faqat uchinchi sikldagina amalga oshiriladi. Ko'p bosqichli oliy ta'lim tizimining bunday o'ziga xos xususiyatlari anglo-amerikacha va fransuzcha modellarda jahon bo'yicha keng tarqalgan. Oliy ta'limning anglo-amerikacha tizimi AQSh, Buyuk Britaniya, Hindiston, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Isroil va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Birinchi sikl oliy o'quv yurtlaridagi o'qish muddati turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, AQSh da 4 yil, Buyuk Britaniyada 3 yil. Magistrlik darajasini olish uchun yana 2 yil o'qish lozim (ayrim ixtisosliklar bo'yicha 1-1,5 yil). AQShdagi qator muhandislik oliy maktablarida bakalavrluk diplomini 5 yillik tizimdan keyin olish mumkin. Tibbiyot sohasida birinchi doktorlik diplomini (stomatologiya, veterinariya sohalari bo'yicha) olish uchun esa 8 yillik ta'lim joriy qilingan. Yaponiyada esa bakalavrluk darajasini 4 yillik ta'limdan so'ng olish mumkin (tibbiyot mutaxassisliklari esa bundan mustasno), magistrlik darajasiga teng diplomni olish uchun yana 2 yillik ta'lim dasturini o'tash lozim.

Ta'lim tizimidagi qo'llaniladigan modellar. Oliy ta'limning fransuz modeli Fransiyadan tashqari Belgiya, Shvesariya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarda joriy

qilingan. Bu tizim talabalarning sinchiklab tanlash asosida qabul qilishni ko'zda tutadi. Talabalar dastlabki 1-3 yilda umumiy dasturlar orqali ta'lim olish bilan bir qatorda bo'lajak tor ixtisosliklarni tanlashda faol ishtirok etadilar.

Ko'p bosqichli fransuz oliy ta'lim modelining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Fransuz universitetlarida ta'limning dastlabki ikki yilida qator mutaxassisliklar uchun yagona o'quv dasturlari mavjud.

2. Universitetning 2-kursini tugatib, tegishli guvohnoma olgan talaba shu universitetning 3-kursini o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha o'qishni davom ettirishi yoki boshqa universitetga o'tishi va yoki o'qishni elitar o'quv yurtlari (Grande Ecole- katta maktab, Ecole Normale- oddiy maktab)da davom ettirishi mumkin.

3. Universitetning 3-kursini bitirgan talabalar "lisans" diplomini oladilar. Bunday diplomni olgan talabalar o'qishlarini 4-kursda davom ettirish yoki o'qishni tashlab o'z mutaxassisliklari bo'yicha amaliy ish bilan shug'ullanish huquqlariga egadirlar. 4-kursni tamomlagan talabalar esa "metriz" diplomini oladilar.

4. "Metriz" diplomi uning egasiga to'liq oliy ma'lumot olganligidan dalolat beradi.

5. Fransiyada magistrlik diplomining yagona nusxasi yo'q.

Shuningdek, fransuz oliy ta'lim tizimidagi ikkinchi sikl ta'limning maxsus atamasi, nomi ham yo'q. ikkinchi sikl deyilganda odatda 4 yillik birinchi sikl oliy ta'limidan so'ng keladigan navbatdagi bosqich tushuniladi xolos. Fransuzcha oliy ta'lim modelining ikkinchi sikli 1-2 yillik ta'limni o'z ichiga olib, uni bitiruvchilar tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha chuqur bilimlarni o'rganganliklari haqida maxsus ixtisos diplomini oladilar.

Mutaxassislikni bildiruvchi diplom (masalan, 2 yillik o'qishdan keyin beriladigan texnologiya sohasidagi universitet diplomi) oliy ta'lim tizimidagi 3 siklli ta'lim tizimining birini bitirganlikdan dalolat beradi. Masalan, ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtining 5 yillik kursini bitirgan talaba muhandislik diplomini olsa

universitetning dastlabki 1 siklini tamomlagan talaba yana 3 yillik kursni bitirgandan so'nggina shunday diplom egasi bo'lishi mumkin.

6. Ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida ma'lum soha mutaxassislik diplomini beruvchi yoki doktoranturaga kirish huquqini beruvchi 1 yillik qayta tayyorlov kurslarining keng tarmog'i faoliyat ko'rsatadi.

Germaniyada esa oliy ta'lim keng miqyosda biron kasbga yo'naltirilgani bilan (xuddi Rossiyadagidek) anglo-amerikacha v afransuzcha modellardan farq qiladi. Bu erda, xatto, oliy ta'limning sikllarga bo'linishi ham mavjud emas. Ta'lim jarayoni 4 yildan 6 yilgacha muddatda amalga oshirilib, bularning hammasi anglo-amerikacha va fransuzcha oliy ta'lim tizimi talablariga unchalik mos kelmaydi. Olmon oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladigan 5-6 yillik oliy ta'lim xalqaro standart normalariga ko'ra anglo-amerikacha va fransuzcha oliy ta'lim tizimining birinchi sikliga (bakalavr darajasiga) mos keladi xolos. Shu sababli keyingi yillarda german oliy o'quv yurtlarining diplomlari ahamiyatini ko'tarish maqsadida oliy ta'limning dastlabki bosqichini qisqartirish ya'ni 4 yillik qilib belgilash haqida takliflar kiritilyapti.

Oliy ta'lim tizimi ichki tuzilmalari:

Oliy ta'lim tizimini tashkil qilishdagi va tarkibidagi qator milliy xususiyatlar boshqa Evropa mamlakatlarida ham mavjud.

Daniya universitetlari 4 yillik oliy ta'limdan so'ng o'z bitiruvchilariga asosiy daraja xisoblangan nomzodlik diplomini beradilar. Lekin bunday diplom muhandislik mutaxassisliklarini egallovchilarga 5 yillik ta'limdan so'ng, tibbiyot mutaxassislariga 8 yillik oliy ta'limdan so'ng beriladi. Magistr diplomini olish uchun yana 1-2 yil o'qish lozim bo'ladi. Oliy texnika maktabi bitiruvchilariga (3-4 yil) muhandislik ixtisosligi bo'yicha diplom beriladi (lekin muhandis-quruvchi diplomini olish uchun esa 5 yil o'qish lozim bo'ladi).

Irlandiyada gumanitar fanlar va tijorat sohasida 3 yillik, tibbiy fanlar va turli muhandislik mutaxassisliklari uchun 4 yillik, qishloq xo'jaligi, stomatologiya, veterinariya sohalari uchun 5 yillik, tibbiyot bo'yicha 6 yillik o'quv dasturlarini o'zlashtirib bakalavrlilik darajasiga ega bo'lish mumkin. Magistraturaga bakalavr

diplomi bilan kirilib, u erdagi ta'lim muddati quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi: gumanitar fanlar va tijorat -1 yil; pedagogik fanlar-2 yil; muhandislik fanlari-1,5-2 yil ; tabiiy fanlar - (kimyo) va tibbiyot – 4-6 yil.

Gresiyada oliy ta'lim asosan 4 yillik bo'lib, ayrim sohalar bo'yicha o'qish muddati biroz uzunroq; muhandislik va stomatologiya – 5 yil, tibbiyot – 6 yil. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari universitet maqomida bo'lmagan Pedagogik Akademiya deb ataladigan 4 yillik oliy o'quv yurtlarida tayyorlanadi. O'rta maktab o'qituvchilari esa universitetlarda tayyorlanadi.

Shvesiyada ham oliy o'quv yurtlari 4 yillik, magistraturada o'qish muddati esa 1 yil. Shunday qilib oliy ta'limni tashkil qilishdagi Evropa mamlakatlari o'rtasidagi bir xil yondoshuv uning ko'p bosqichliligida, ta'lim muddatlarini belgilashda, oliy ta'liming asosan yoshlarni (ba'zan kattalarni ham) jalb qilishda ko'zga tashlanadi.

Lotin Amerikasi mintaqasi bo'yicha yoshlarni oliy ta'lim maktablariga jalb qilinishi haqidagi raqamlar e'tiborga molikdir, bu mintaqada 18-23 yoshlardagi aholining 27 foizi oliy o'quv yurtlarida o'qiydi. Bu ko'rsatkich Argentina va Urugvayda 44 foiz, Venesuela, Kosta-Rika, Panama, Peru, Ekvador va Chilida 25 foiz, Braziliya va Meksikada 15 foizni tashkil qiladi.

Oliy o'quv yurtlarning kadrlar tayyorlashdagi innovasion faoliyati

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim sohasidagi olib borayotgan davlat siyosatlari quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi:

Xususiy oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish, ularni rivojlantirish borasidagi amaliy ishlar davlatlar tomonidan qo'llab quvvatlamoda (chunki bu sohaga davlat va mahalliy byudjet ko'magidan tashqari, yirik xususiy sarmoyalarni ham jalb qilish imkonini beradi) Bunday yondoshuv ayniqsa AQSh, Yaponiyava Fransiyada ko'zga yaqqol tashlanadi.

Oliy o'quv yurtlari davlat tasarrufida bo'lgan davlatlar alohida ajralib turadi (Germaniya, Avstriya, Daniya, Gresiya). Bu davlatlarda xususiy oliy o'quv yurtlari cherkov tasarrufida bo'lib, ular 2-3 foizni tashkil qiladi.

Xususiy oliy o'quv yurtlar tizimi keng rivojlanayotgan mamlakatlar (AQSh, Yaponiya, Fransiya). Ularning mavjudligi davlat tasarrufidagi oliy o'quv yurtlari obro'siga putur etkazmaydi.

Yuqoridagi barcha mamlakatlardagi xususiy oliy o'quv yurtlar moliyaviy jihatdan davlat tomonidan qo'llab quvvatlanadi.

Xususiy oliy o'quv yurtini tashkil qilish – bu ko'p sarmoya talab qiladigan tadbir. Bu borada to'plangan tajribalarning dalolat berishicha, faqat iqtisodiy baquvvat firmalar (alohida shaxslar) yoki baquvvat ijtimoiy tashkilotgina o'rta darajadagi xususiy oliy ta'lim maktabi faoliyatini tashkil qila oladi.

Xususiy va davlat tasarrufidagi oliy ta'limni tashkil qilish borasidagi tamoyillarni alohida mamlakatlar misolida aniq tahlil qilaylik.

AQSh ta'lim tizimi. 2010 yilda dunyodagi 10 ta eng yuqori reytingli OTMlari orasiga 8 tasi AQSh universitetlari va institutlari kirgan. AQSh oliy ta'lim muassasalari soni bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. Oliy ma'lumotlilar (bakalavr darjasiga ega va undan yuqorilar) ulushi 28 foizni tashkil etadi. AQShdagi eng qadimiy universitet Garvard 1636 yilda tashkil topgan. AQSh hukumati OTMlarni boshqarmaydi (FBR va boshqa tashkilotlar uchun mutaxassislar tayyorlaydigan 8 ta OTMlardan tashqari). Eng nufuzli universitetlari: Garvard, Priston, Yel, Kolumbiya, Pensilvan, Braunovskiy, Kornelskiy universitetlari va Dartmut kolleji. Amerika Qo'shma Shtatlarida bolalar 6 yoshdan 17 yoshgacha 12 yil o'qiydilar.

Amerika oliy o'quv yurtlariga kirish uchun belgilangan sinov (test)lar ikki xil bo'ladi: SAT(Sxolastik aptityud test); AKT (Amerikan kollej test) sinovlari. SAT sinovlari murakkabroq bo'ladi. Mashhur universitetlarga kirishu chun SAT sinovlarini topshirish shart bo'ladi.

Oliy o'quv yurtiga kirish uchun har bir abituriyent matematika va ingliz tilidan sinov (test) topshiradi. Amerikada talabalar matematika va ingliz tilidan kirish sinovlarini 10-12 sinflarda o'qib yurgan vaqtlarida, o'zlariga qulay paytda topshira oladilar. Bunday testlar Amerikada har yili 3-4 marta o'tkaziladi.

Maktabgacha ta'lim: 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadi. 3 yoshdan 5 yoshgacha maktabgacha tarbiya muassasalarida.

- Boshlang'ich maktab. Bu bosqich 1-5 - sinflarni o'z ichiga oladi.
- To'liq bo'lmagan o'rta maktab. Bu bosqich 6-8 -sinflardan iborat.
- Yuqori maktab. Bu bosqich 9-11-sinflar bo'ladi. Mazkur yuqori maktab bilan Oliy ta'limni aralash-tirmaslik kerak.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi.

Barcha ta'lim muassasalari Ta'lim va personalni boshqarish vazirligiga qarashli. Koreyslar uchun sifatli ta'lim olish muvaffaqiyatli karera qilishida muhim ahamiyatga ega, shu sababli yuqori ustuvorlik nufuzli OTMLariga o'qishga kirishga qaratiladi.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi quyidagilardan iborat: maktabgacha ta'lim, majburiy emas; 6 yillik boshlang'ich ta'lim, 6 yoshlik bolalar uchun; o'rta maktab, 3 yil o'qish muddati; yuqori bosqichli o'rta maktab, 3 yil davom etadi; oliy ta'lim. Boshlang'ich maktabda bolalar koreys tili, matematika, etika, jamiyatshunoslik, tabiatshunoslik, xorijiy tillar(sh.j. ingliz tili)ni o'rganishadi, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at va musiqa bilan shug'ullanishadi. Janubiy Koreyada oliy ta'lim OTMLarining quyidagi turlari bo'yicha namoyon etiladi: universitetlar, kollejlari, pedagogik institutlar, kunduzgi va sirtqi universitetlar. Koreya OTMLari, shuningdek, davlat va xususiyga bo'linadi:

Janubiy Koreyada oliy ta'lim tizimi quyidagi tuzilmaga ega: bakalavr darajasi - 4 yil o'qigandan keyin, tibbiyot fakultetlari uchun - 6 yil; magistr darajasi - magistraturada o'qish 2 yil; doktor darajasi - 4 yil o'qish va tadqiqot ishlarini olib borish; bitiruv imtihonlari va dissertasiya himoyasidan keyin fan doktori darajasi beriladi.

Xorijiy talabalardan OTMLarga kirishi uchun o'rta ma'lumot to'g'risidagi attestat va ingliz tilini bilish to'g'risidagi xalqaro sertifikat IELTS(5,5 ball) yoki TOEFL(500 ball) talab etiladi.

Yaponiya ta'lim tizimi. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. Yaponiyada 600 mingdan ortiq ilmiy xodimlar

bo‘lib, ixtirolar uchun taxminan 270 mingga yaqin patent olingan. Bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha Yaponiya hozir dunyoda 1-o‘rinni egallaydi. Yaponiyadagi ilmiy-tadqiqot faoliyatining o‘ziga xos tomoni shundaki, unga ketadigan harajat yalpi milliy mahsulotning 3 foizini tashkil etadi, bu esa rivojlangan mamlakatlar orasida eng yuqori ko‘rsatkich demakdir.

Universitetlarga yuqori va o‘rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o‘quvchilar qabul qilinadi. U erda 460 ta universitet bo‘lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munisipial, 31 tasi xususiydir. 1-toifadagi universitetlarda har bir o‘qituvchiga 8 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to‘g‘ri keladi.

Universitetlarga qabul qilish quyidagicha o‘tkaziladi: turar joyda, buning uchun eski yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo‘yicha test sinovlaridan o‘tiladi. Bu sinovlardan o‘tgan o‘quvchilar universitetlarga yo‘llanma oladilar va yana sinovdan o‘tadilar.

Xususiy universitetlarga esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri test topshiriladi. Bir qator xususiy universitetlar o‘zining uzluksiz shahobchasiga ega (bog‘chadan boshlab hamma bosqichlarni qamrab oladi).

Universitetdan talabalarni chetlashtirish mumkin emas. Lekin o‘qish muddatini cho‘zish mumkin (4 yillik o‘qish 5-6 yilgacha cho‘zilib ketishi mumkin). Oliy ta’lim tizimi quyidagi turlarni o‘z ichiga oladi: to‘liq sikldagi universitetlar (4yil), tezlashtirilgan universitetlar sikli (2yil), kasb ta’lim kollejlari, texnika institutlari.

Fransiya. Bu erda 77 ta universitet mavjud bo‘lib, ulardan 5 tasi katolik cherkovi tasarrufida. Shunga qaramasdan, oliy o‘quv yurtlarining uchdan bir qismi turli tuman muassasalar, assosiyalar, fondlar va cherkovlar tasarrufida bo‘lib, davlatdan mustaqildirlar. Xususiy sektor tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan fransuz oliy o‘quv yurtlarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: 75 foiz oliy o‘quv yurtlari biznes va menejment bo‘yicha, yoki 45 foizi umuman savdoga oid mutaxassislar tayyorlaydilar. Xususiy sektor tasarrufidagi injener-texnik xodimlar tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlar 35 foizni tashkil etadi.

Davlat tasarrufidagi bir profilli oliy o‘quv yurtlari instituti deb atalsa (masalan injenerlik sohasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlovchilar), xususiy

sektordagi shunday oliy o'quv yurtlari "Masshtab" deb ataladi. Bunday xususiy "Masshtab"lar davlat institutlaridan talablar miqdorining kamligi bilan ajralib turadi.

Xalqaro standartizasiya nima va u qanday faoliyatlarni bajaradi? Sifatni zamonaviy boshqarishdagi asosiy xujjat bu standartlashtirishdir. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) ta'rifiga ko'ra standartlashtirish - shunday jarayonki, ma'lum sohada tartiblashtirish maqsadida qoida va talablarni o'rnatish, umumiy maksimal iqtisodga erishishda xavfsizlik va funksional shartlarga rioya qilishdir.

Sifatni zamonaviy boshqarishdagi asosiy xujjat bu standartlashtirishdir. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) ta'rifiga ko'ra standartlashtirish shunday jarayonki, ma'lum sohada tartiblashtirish maqsadida qoida va talablarni o'rnatish, umumiy maksimal iqtisodga erishishda xavfsizlik va funksional shartlarga rioya qilishdir.

The main document on modern quality management is standardization. According to definition of the International Organization for Standardization (ISO) standardization is process arrangement of norms and rules in concrete area for achievement of the maximum economic security and functional requirements.

Standartlashtirish quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Turli mamlakatlarda insonlar tomonidan yaratiladigan ob'ektlarni tartiblashtirish (mahsulot, xizmatlar, ishlar, jarayonlar);
2. Tartiblashtirilgan ob'ektlarga quyiladigan talablarni normativ xujjatlarda tasdiqlash;
3. Bu normativ xujjatlarni qo'ldash qoidalarini o'rnatish.

Xalqaro standartlashtirishni ahamiyati nimadan iborat.

Xalqaro standartlashtirish:

1. Murakkab mahsulotlar elementlarini o'zaro almashtirishni ta'minlaydi;
2. Turli mamlakatlarda ishlab chiqarilgan bir xil mahsulotlar sifatini bir-biriga yaqinlashtiradi;

3. Ilmiy texnikaviy axborotlarning o‘zaro almashinuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

4. Xalqaro savdoga ta’sir etadi;

5. Xalqaro tashkilotlar ishtirokchilari ilmiy texnikaviy taraqqiyotining tezlashtiradi.

Xalqaro standartlashtirishning tamoyillari qanday?

Ular quyidagilar:

1) Standartlashtirishning kompleksliligi.

Komplekslilik tamoyili-tegishli talablarga javob beradigan mahsulot sifatini belgilovchi omillarni tizimlashtirish va optimallashtirish holda bir-biriga bog‘lash asosida normativ hujjatlarni o‘rnatish tasdiqlash va qo‘llash.

2) Standartlashtirishning ilgari rivojlanishi. Bu tamoyil mahsulot sifatiga bo‘lgan talablarning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi, mahsulotni takomillashtirish bilan bog‘liq. Zamonaviy texnika vositalarini ishlab chiqilishi, masofaviy boshqarish, innovasion texnologiyalar yangi ob’ektlarni paydo bo‘lishi, yangi standartlarning qabul qilinishini taqozo qiladi.

3) Tavsiflash (klassifikasiya).

Tavsiflash tamoyili standartlanuvchi ob’ektning tavsiflash belgilarini ajratishni va zanjirlashni nazarda tutadi.

Umumiy va xususiy tavsiflash amalga oshiriladi.

Standartlashtirishning qanday turlari mavjud?

Standartlashtirishning ikki turi mavjud: amaldagi va rasmiy.

Amaldagi standartlashtirish jamiyat hayotidagi tarixan shakllangan narsa (masalan, kalendar, yozuv, hisob va b.).

Rasmiy standartlashtirish-maqсадga yo‘naltirilgan ravishda amalga oshiriladi, o‘rnatilgan tartibda normativ hujjat tayyorlanadi. Ma’lum soha, tovar, xizmat turiga tegishli normativlarni aniq foydalanish muddati ko‘rsatiladi.

ISO-o'zi nima? – Xalqaro standartlashtirish tashkiloti.

ISO – What is it? – International Standard Organization

Xalqaro standartizasiya sohasida juda ko'p tashkilotlar faoliyat olib boradi. Ular orasida xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) International Standard Organization bu sohada nufuzli hisoblanadi. U 1946 yilda BMTning standartlarni muvofiqlashtirish qo'mitasi qarori bilan tashkil etilgan. Rasmiy faoliyatini 1947 yilning fevral oyidan boshlab, 33 mamlakat bilan hamkorlikda ish olib bordi.

ISO-nodavlat tashkilot bo'lib, BMTning konsultativ maqomiga ega. ISO Nizomiga ko'ra asosiy maqsad “Jahon miqyosida standartlashtirishga yordam berish” deb aniqlangan.

ISO-qanday faoliyat bajaradi?

ISO-Nizomi tashkiliy strukturani asosiy organlar faoliyatini va ish usullarini belgilaydi. ISOning asosiy faoliyati bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- 1) Xalqaro standartlarni ISOning barcha a'zolari kelishuviga ko'ra qabul qilish ;
- 2) Yangi mukammalashgan standartlarni joriy etishga ta'sir o'rkazish (yordam berish);
- 3) Texnik qo'mitalar va tashkilot a'zolari to'g'risida axborot almashinuvini tashkil etish;
- 4) Boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatish.

Sifat menejmenti tizimi-ISO-9001 quyidagilarni nazarda tutadi:

- 1) Samarali tashkiliy strukturani tuzishni;
- 2) Boshqaruv normalarini, jarayonlarni optimallashtirishni;
- 3) Tashqi muhit ta'siriga nisbatan strukturaning tezkor javobini va mobilligini oshirishini ta'minlash. Masalan, jahon bozorida innovatsion mahsulot paydo bo'ldi, u dastlabki sinovdan o'tmoqda, standartlashtirish normalariga javob beradi. Uning narxi juda baland. Yuqori narx iste'molchilarning aksariyat segmenti talabini qoniqtirmaydi, shunda boshqa raqobatchi firma xuddi shunday tovarni past tannarx

bilan ishlab chiqishga erishadi va bozorni egallashga xarakat qiladi. Shunday paytda yangi standartlar ishlab chiqiladi.

Ta'lim tizimi sifatiga hozirgi davrda dunyoning barcha mamlakatlarida katta ahamiyat berilmoqda. Davlat rahbarlari ta'lim tizimini boshqaruv organliri, OTMni boshqaruv rahbarlari ta'lim sifatiga bitiruvchilarning yuqori malakasiga, bilim darajasiga katta ahamiyat bermoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshlik borib-borib kadrlarni yuqori malakasiga, chuqur bilim darajasiga bog'liqligi hammaga ayondir. Har bir ish beruvchi, davlat, nodavlat va xususiy tashkilotlar bilimli kadrlarni olishga intiladi. Shuning uchun ham hozir ko'p firmalar, chet el korxonalari, vazirliklar, qo'shma korxonalar tanlov asosida ishga qabul qilinishini yo'lga qo'ygan.

Ta'lim tizimida sifatni takomillashtirish uchun quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

1) OTMga sifat menejment tizimini joriy etish va umumiy loyihalash algoritmini ko'rib chiqish;

2) DST va ISO 9001-2008 talablariga asosan OTMlar bazaviy sifat menejmenti tizimi tarkibini ishlab chiqish.

3) OTMga sifat menejmenti tizimini tashkiliy strukturasi va hujjatlar strukturasi ishlab chiqish.

Ta'lim muassasasini sifat menejmenti tizimi quyidagilarni tasdiqlash mumkin:

- Normativ-texnik bazani;
- Ta'lim sifati borasida siyosatni;
- Maqsadlarni aniqlashni;
- OTMda sifat menejmenti tizimi jarayonini tashkiliy strukturani shakllantiradi;
- Ma'lum faoliyatni bajarish bo'yicha javobgarlik va vakolat doirasini aniqlash.

Ta'lim muassasasi sifat menejmenti tizimi quyidagi maqsadlarga ko'rsatilgan ravishda joriy etiladi.

- a) SMTni hujjatlar bazasi bilan ta'minlash;

b) OTMda SMTni joriy etish bilan bog'liq jarayonlarni optimal boshqarishni engillashtirish va yuqori sifatga erishish;

v) Standartlarda qo'yilgan talablarga mos ravishda ta'lim sifatini yuqori darajada olib borish va takomillashtirish;

g) Ta'lim xizmati iste'molchisida olayotgan bilimi va malakasiga ishonch hosil qilish;

d) rahbariyat SMTni joriy etishdan kutiladigan samara, uni ta'lim xizmati bozorida yuqori pozitsiyani egallashiga va barqaror raqobatbardoshlikka erishishiga olib kelishiga ishonch hosil qilishi;

SMT hujjatlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Sifat siyosati sohasida rasmiylashtirilgan va aniq maqsadlari ko'rsatilgan hujjatlarning majmuasi;

- Sifat bo'yicha yo'riqnomalar;

- Metodologik ko'rsatmalar (DST va ISO 9001-2008 bo'yicha majburiyatlar), proseduralarini bajarish;

- Bo'limlar va lavozimlar bo'yicha instruksiyalar, ko'rsatmalar;

- Ishchi yo'riqnomalar;

- Tashkiliy-farmoyishli hujjatlar;

- Sifat bo'yicha yozishmalar (shartnomalar, bayonnomalar, jurnal va x.k.)

- Tashqi normativ hujjatlar.

DST va ISO 9001-2008 talablariga mos ravishda ta'lim tizimida sifat ko'rsatkichlarini ta'minlanishi OTMdan katta mas'uliyat va majburiyatni talab etadi. SMTni joriy etish jarayoni tavsiflangan identifikasiyalangan jarayonlar monitorini olib borilib ular taxlilini utkazish amalga oshiriladi. Talim tizimini rivojlanish dasturlarida kuyilgan vazifalarni SMTni joriy etish orkali bajarish bugungi kunning dolzarb muammolari bo'lib xisoblanadi.

Oliy malakali kadrlarni tayyorlash buyicha davlat buyurtmalarini nodavlat va xususiy sektor talablari asosida olib borilishi bitiruvchilarni ish bilan taminlash jarayonini uz vaktida amalga oshirishda yordam beradi. Talim xizmati bozorida marketing izlanishlarni joriy etish maqsadlari ravishda kadrlar tayyorlash bozor

iqtisodiyoti sharoitining talabidir. Bitiruvchining raqobatbardoshligini yuqori darajada ko‘tarish abutrientlar tanlovini kuchaytirish ularning kasbiy mahoratini rag‘batlantirish ta’lim muassasini jahon ta’lim jarayonlariga integrasiyasini yo‘lga qo‘yish SMTning asosiy talablaridan biridir.

2. Sifat menejmenti tizimli shakllanishi bosqichlari.

1- bosqich-tayyorlov bosqichi.

2-bosqich- sifat menejmenti tizimini shakllantirish bo‘yicha asosiy ishlar.

3-bosqich- sifat menejmenti tizimini sertifikasiyalash.

Stages of Quality Management System:

1- stage - the preparatory stage.

2-stage - the basic conditions for the formation of a quality management system.

3-stage - certification of quality management systems.

Birinchi bosqich quyidagi qadamlardan iborat:

- talim sifatini ichki monitaring dasturini ishlab chiqish;

- ta’lim sifatini boshqarish bo‘yicha boshqaruv tashkiliy tarkibiy strukturasi ishlab chiqish;

- tizimni joriy qilish bo‘yicha ishchi guruxni tizish;

- sifat bo‘yicha vakolatlanuvchi lavozimlarni yangilash

- sifat bo‘yicha uslubiyotchilarni tayyorlash, ichki auditorchilarni tayyorlash,

yuqori rahbariyatni o‘qitish.

Ikkinchi bosqich quidagilardan iborat.

- OTM(oliy ta’lim muassasalari)ning sifat soxasida maqsadini aniqlash va siyosatini ishlab chiqish;

- OTM strukturasi (tarkibi), xodimlarning lavozim majburiyatlari, vazifalarini va ishchi yo‘riqnomalarni ishlab chiqish;

- Sifat menejmenti tizimi (SMT) jarayonini joriy qilishni yo‘lga qo‘yish;

- SMT-ni xujjatlar to‘plamini yaratish;

- SMT xujjatlar to‘plamini OTM faoliyatiga joriy etish;

- OTMning SMTsini tahlil etish;

- Ichki auditni o'tkazish;
- Tahlil va auditdan so'ng o'tkaziladigan tadbirlarni tayyorlash va joriy etish (kamchiliklarni to'g'irlash, hatolarni aniqlash bo'yicha);
- SMT bo'yicha istiqboldagi ishlarning reja-dasturini tayyorlash.

Uchinchi bosqich quyidagilardan iborat:

- Sifat menejmenti tizimining tashqi auditi;
- Ko'rsatilgan kamchiliklarning bartaraf etish;
- Sertifikasiya.

Sifat menejmenti tizimini joriy etilganda rahbar bu jarayonni doimo kuzatib, nazorat etib borishi lozim, uning natijarini baxolash kerak. Ichki monitoring va audit hulosalarini rahbariyat chuqur tahlil qilishi va ularda ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'irlash bo'yicha tegishli tadbirlarni ishlab chiqishi kerak.

Xorijiy amaliyotda innovasiya jarayonlarini tashkil etishning quyidagi turlari mavjud:

- ma'muriy-xo'jalik;
- dasturiy-maqсадli;
- tashabbuskor.

Ma'muriy-xo'jalikda – ishlab chiqarish markazlashgan bo'lib, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishga qaratilgan, ishlab chiqarish yirik va o'rta korporasiyalar tomonidan kompleks boshqariladi. Ular mikroelektronika, biotexnologiya, nanatexnologiya va boshqalar tarmoqlardagi ilmiy – texnikaviy yorib o'tish vazifalarini bajaradilar va ITTKIning tashkil etishning dasturiy-maqсадli shakliga egalar. Maqsadli ilmiy-texnikaviy dasturlarni muvofiqlashtiruvchi boshqarish shakli dastur ishtirokchilari ishi o'z tashkilotida faoliyatini dasturni boshqarish markazi bilan kelishgan holda olib borishni nazarda tutadi. Yirik vazifalarni hal qilish maqsadida tuzilgan (odatda bunday tashkiliy tuzilma vaqtinchalik bo'ladi) yangi tashkilotlarning samaradorligi ham yuqori dasturiy maqsadli bo'ladi. Bu sof dastur maqsadli tuzilma hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar va har xil mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan yangi texnikalarni, mahsulotlarni loyihalashtirish va ishlab chiqish o'rtasida aloqalarni mustahkamlash maqsadida sanoatda injenerlik markazlari

tashkil etiladi.

Shuningdek universitet – ishlab chiqarish va universitet tadqiqot markazlari tuzilishiga ham katta e'tibor qaratiladi. Bunday markazlarni, tadqiqot rejasini ishlab chiqadigan kengashlar boshqaradilar va buyurtmachilar bilan shartnoma asosida ITTKI olib borishni tashkil etadilar. Sanoati rivojlangan davlatlarda fundamental fanlar bilan ishlab chiqarishni bog'laydigan tashkilot texnopark va texnopolislar hisoblanadi.

Texnopolisda fan, texnika, tadbirkorlik birlashadi, fan, tadbirkorlar mahalliy va markaziy davlat organlari o'rtasida mustahkam hamkorlik o'rnatiladi. Ilmiy tadqiqot majmui texnopolis asosini tashkil etadi.

Texnopolis – universitetlar va ilmiy-texnika markazlari bilan o'zaro aloqada, yangi ilg'or mahsulotni ishlab chiqarish yoki uchun, fan sig'imi yuqori bo'lgan yangi texnologiyalarni yaratish maqsadida tuzilgan ilmiy-sanoat majmui.

Texnoparklar – sanoat kompaniyalarining ularning ilmiy-texnikaviy bo'linmalari bilan yirik to'plamlari. Bunda o'quv jarayoni bilan bog'langan fanlar bo'lmaydi, texnopolisga nisbatan ilmiy-texnikaviy sektor texnoparklarda ancha kuchsiz darajada bo'ladi.

Texnopolisda ilmiy-tadqiqot kompleksi unda rivojlanayotgan korxonalar va tarmoqlarning aqliy markazi hisoblanadi. U texnologiyaga fundamental ilmiy tadqiqotlar asosida yorib o'tuvchi tubdan o'zgarishlarni tayyorlab beradi. Texnopolis shunday qilib ilmiy-tadqiqot va sanoat sohalarini bir-biri bilan bog'liqligini mustahkamlash va engillashtirish, ilmiy tadqiqot natijalarini tezda o'zlashtirish va tijorat maqsadida undan foydalanishni ta'minlaydi. Yirik texnika muammolari echimini hal qilish uchun tuzilgan vaqtinchalik markazlar ma'muriy-xo'jalik va maqsadli-dasturiy usullar yordamida ilmiy-texnika taraqqiyotini rivojlantirishni boshqarishni bog'laydigan oraliq ko'rinish hisoblanadi. Maqsadga erishilgandan so'ng markaz tarqatib yuboriladi. Innovasiya faoliyatini rivojlantirishning ilg'or shakllaridan – inkubatorlardir. Biznes-inkubator yoki texnologiyalar inkubatori innovasiya infratuzilmasi elementi bo'lib, har hil innovasiya shakllari vujudga kelishi va oyoqqa turish davrlarida turli xizmatlar ko'rsatadigan majmua hisoblanadi. Xizmatlar maslahat berish, axborotlar bilan ta'minlash, asboblarni, binolar va hokazolarni ijaraga berishdan iborat. «Inkubasiya davri» mijoz firma uchun

odatda bir yilga cho'ziladi, undan so'ng xizmatlar ko'rsatish to'xtatiladi va firma faoliyatini mustaqil davom ettiradi.

Inkubatorlar eng ko'p tarqalgan davlat - AQSh. Bu davlatda 600ga yaqin inverterlar milliy biznes inkubator assosiasiyasiga birlashgan. AQShdagi inkubator faoliyatining tarkibi keng tarqalgan va har xil sohaga ixtisoslashgan, masalan, faqat dasturiy ta'minot yoki faqat biotexnologiya sohalariga tegishli innovasiya tadbirkorligidagi inkubatorlar mavjud.

Inkubatorlar g'oyasini yanada rivojlantirish texnoparklar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Innovasiya jarayonlarini tashkil etishning tashabbuskorlik shakli yakka ixtirochilar, tashabbuskor guruhlar hamda kichik korxonalariga texnik va boshqa yangilik kiritishdagi ishlarni o'zlashtirish uchun, ilmiy-texnikaviy, konsultativ boshqarish va ma'muriy tuzilgan yordam berishni moliyalashtirishdan iborat. Bunday iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarning ahamiyati ayniqsa noaniqligi kuchli bo'lgan ilk davrlaridagi innovasiya jarayonining xususiyatidan kelib chiqadi.

Xorij amaliyoti tashabbuskorlik shaklining yuqori samaradorligini ko'rsatadi. AQShda olib borilgan tadqiqotlar band bo'lgan kishilarning soni 300 tagacha bo'lgan yangi mahsulotni yaratish va ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik innovasion firmalar ITTKIga sarf qilingan har bir dollardan katta korxonalariga nisbatan (band bo'lganlar soni 10 ming kishidan ortiq bo'lgan) 24 barobar ko'proq yangilik, har bir band bo'lganga 2,5 baravardan ortiq yangilik kiritilganligini ko'rsatgan. Ko'pgina yirik firmalar innovasiya faoliyatini faollashtirish maqsadida tashabbuskor bo'lgan va amaliyotga jiddiy yangilik kiritish imkoniyatiga ega bo'lgan xodimlariga tashkiliy iqtisodiy sharoitlarni yaratib beradilar.

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TOPSHIRIQLAR:

1. OTMda Sifat Menejmenti Tizimini joriy etish uchun qanday imkoniyatlar borligini aniqlang.
2. Xorij tajribasi asosida Siz faoliyat yuritayotgan OTMda ISO standartlari asosida sertifikatini olish imkoniyatlari yoki sifat menejmentini qo'llashga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni aniqlang.
3. Ta'lim sifatini ta'minlashda eng nufuzli OTMlar va va ularning reytingini

dalillar asosida tuzing.

4. OTMlarda innovasion tashkilotlarni tashkil etish – ta’lim sifatini oshirish tajribalari (texnopark, texnopolis, biznes inkubator, tajriba meta markazlari) bo‘yicha ish rejasini tuzing.

5. Siz faoliyat yuritayotgan OTMda innovasion faoliyatni venchur moliyalashtirish imkoniyatlarini aniqlang. OTMga investisiya kiritish uchun qanday imkoniyatlar borligini aniqlang.

6. Ta’limda innovasiyalarni qo‘llashning jaxon tajribasidan qaysilari Sizga ma’qul va nima uchun?.

7. Xalqaro sifat standartlarini OTMda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlang.

8. Sizning OTMda ta’lim jarayonida sifat menejmenti tizimining qaysi tamoyillari mavjudligini aniqlang va Standartlashtirish bo‘yicha reja tuzing.

4-MAVZU: OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVASION LOYIHALARNI ISHLAB CHIQUISH (2 soat)

Amaliy mashg‘ulot maqsadi:

Tinglovchilarda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini innovasion faoliyatni tashkil etish asoslari, xorij OTMlarida innovasion faoliyatni tashkiliy turlari bo‘yicha, innovasion loyihalarni ishlab chiqish, uning tarkibi, amalga oshirish, ularni iqtisodiy baholash, innovasion loyihalarni boshqarish, innovasion loyihalarning samaradorligini ta’minlash, innovasiyalar transferi, innovasiyalarni tijoratlashtirish va ta’limda innovasiyalarni qo‘llashda investisiyalash bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish.

Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

Mashg‘ulot rejasi bo‘yicha nazariy materiallar tahlil qilinib, kichik guruhlar yoki juftliklarda ta’lim sifatini ta’minlash, uni oshirish bo‘yicha, ta’limning zamonaviy xususiyatlaridan kelib chiqib, yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalangan holda berilgan topshiriqlar bajariladi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR:

Innovasion loyiha – ilmiy tadqiqot, tajriba, konstruktorlik, ishlab chiqarish,

moliyaviy, tijorat tadbirlarining majmui ifodalangan (resurslar, muddat va bajaruvchilar bilan bog'liq bo'lgan), aniq ilmiy texnika vazifalarini (muammolarini) samarali hal qilishni ta'minlash, qayd etilgan hujjat miqdor ko'rsatkichlarida ifodalangan va innovasiyani amalga oshirishga olib keladigan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan maqsadlar hamda unga erishish yo'llari tizimi.

Innovasiya loyihasining asosiy elementlari:

- loyiha maqsadini o'zida aks ettirgan aniq maqsadlar va vazifalar;
- innovasiya muammolari echimini topish va qo'yilgan maqsadni amalga oshirishning loyihadagi tadbirlar majmui;
- loyihadagi tadbirlarni maqsadga erishish uchun resurslar va ijrochilar bilan bog'lash, belgilangan vaqtda, qiymat va sifat doirasida tashkil etishni amalga oshirish;
- loyihaning asosiy ko'rsatkichlari (umumiy) alohida bo'g'inlarning maqsadi mavzui, tadbirlar, ishtirokchilar, shu jumladan, uning samaradorligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar.

Maqsadlar va ilmiy-texnika taraqqiyotining xilma-xilligi innovasiya loyihalarining turlicha bo'lishini asoslaydi.

Innovasiya turlarining umumiy ko'rinishi ishlab chiqilmagan. Innovasiya loyihalarini quyidagi belgilariga qarab ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi: loyihani tatbiq etish vaqti, loyiha maqsadining xarakteri, ehtiyojlarni qondirish turlari, innovasiya turlari, qabul qilinadigan qarorlar darajasi.

Innovasiya loyihalarini ishlab chiqish vaqti, uni amalga oshirish va maqsadga erishishiga qarab uch turga bo'linadi: uzoq muddatli (strategik, amalga oshirish vaqti 5 yildan oshadi), o'rta muddatli (amalga oshirish muddati 3 – 5 yilgacha), qisqa muddatli (3 yildan kam). Loyiha maqsadi xarakteriga qarab: pirovord, innovasiya loyihasi echimi hal qilingan, oraliq, murakkab muammoning bir qismi hal qilingan bo'lishi mumkin. Ehtiyojlarning qondirilishiga qarab loyiha mavjud ehtiyojlarga yoki yangilariga qaratilgan bo'ladi. Innovasiya turiga qarab innovasiya loyihalari quyidagilarga bo'linadi:

- tubdan yangi bo'lgan yoki takomillashgan mahsulotni ishlab chiqish;
- tubdan yangi yoki takomillashgan ishlab chiqarish usuli;

- yangi bozorni yaratish;
- xom ashyoni yoki detal, butlovchi qismlarning yangi manbalarini topish;
- boshqarish tarkibini qaytadan tashkil etish.

Qarorlarni qabul qilish darajasiga qarab innovasiya loyihalarini quyidagi tarkibga kiritish mumkin:

- respublika ilmiy-texnika dasturiga;
- mintaqa innovasiya loyahasiga, (vazifalar mintaqa ilmiy-texnika dasturiga kiritiladi);
- tarmoq (tarmoq ichidagi) innovasiya loyihalari, vazifalar vazirlik va idoralar miqyosidagi rejaga kiritiladi.
- ayrim innovasion korxonalarining (IK) innovasiya loyihalari, vazifalar IKning rejasiga kiritiladi.

Innovasion loyihalarning belgilariga qarab turlarga bo‘linish chizmasi 1-rasmda ifodalangan. Innovasiya loyahasining u yoki bu turga kiritilishi uni yaratishda va boshqarishda o‘ziga xos bo‘lgan majmua usullardan foydalanishni anglatadi.

Innovasion loyihalarning mazmuni. Innovasiya loyihalarining mazmunini ko‘rib chiqishda uning uchta qirrasiga: innovasiya faoliyati bosqichlari, vujudga kelishi va amalga oshirish jarayoniga, tashkil etish elementlariga e’tibor berish kerak.


Innovasion loyiha mazmunini ko‘rib chiqish asosida uni vujudga kelishi va amalga oshirish jarayoni yotadi. Ya’ni innovasiya loyahasining hayot davrlarining texnologik konsepsiyasi, innovasiya loyahasining ma’lum vaqt oralig‘ida vujudga kelishini bildiradi.

Innovasion loyiha – yangi yoki takomillashgan mahsulot ishlab chiqarishda ilmiy-texnika g‘oyalari bozorga tatbiq qilish, yangi yoki takomillashgan texnologik jarayonlarni amaliyotda qo‘llashga, yoki ijtimoiy tamoyillarga yangicha yondashishni o‘z ichiga olgan innovasiya faoliyatining barcha bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Innovasiya faoliyati bosqichlarini amalga oshirish nuqtai nazaridan loyihaga: ilmiy tadqiqot ishlari (ITI), loyiha-konstruktorlik va tajriba-eksperiment ishlari, ishlab chiqarish jarayonini o‘rganish, ishlab chiqarishni tashkil etish va uni amalda yuritish, yangi mahsulotlar marketingi hamda moliyaviy tadbirlar kiradi.

Loyihani ishlab chiqish. Bu jarayon loyihada ko'zlangan maqsadga erishish qarorlarini qabul qilish, ma'lum vaqtda ular o'rtasida – resurslar, vazifalar, tadbirlarni amalga oshiruvchilarning bir-biriga bog'liqligini amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda quyidagilar amalga oshadi:

- loyiha maqsadlarini amalga oshirishning har xil variantlari taqqoslanadi va ularning ichidan tatbiq etishning eng samarali yo'li tanlab olinadi;
- innovasiya loyihasini tatbiq etish rejasi ishlab chiqiladi;
- loyiha ustida ishlaydigan maxsus tuzilma tarkibini tuzish masalasi hal qilinadi (loyiha jamoasi tuziladi);
- loyiha ishini bajaruvchi salohiyatli mutaxassislar tanlab olinadi va shartnoma hujjati rasmiylashtiriladi.

Loyihani amalga oshirish. Bu – bosqichda taqvim rejaning bajarilishi nazorat qilinadi, o'zgarishlar kiritiladi va loyihani amalga oshirish muntazam nazorat qilinadi.



1-rasm. Innovatsiya loyihalarining turlari

Loyihani tugatish. Bu loyiha natijalarini buyurtmachiga topshirish va shartnomani (kontrakt)ni yopish jarayonidir. Shu bilan innovasiya loyihasining hayotiy davri yakuniga etadi.

Innovasiya loyihasining pirovard maqsadi va vazifalarini (muammoni saralash va asoslash bosqichlarida) doimo aniq miqdor ko'rsatkichlarida belgilab bo'lmaydi. Shuning uchun loyihani ishlab chiqishda, dastlab, uning pirovard maqsadini aniq miqdorda belgilash va uni amalga oshirish davrlari, vazifalarning har xil variantlarini aniqlab olish kerak bo'ladi.

Innovasiya loyihasi ko'rib chiqilayotganda tashkil etish elementlariga qarab, uni ikki qismga ajratiladi: loyihaning vujudga kelishini boshqaradigan organ va uni amalga oshiruvchi ishtirokchilar.

Shu maqsadda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- loyihadagi mahsulotni xarid qilish mumkin bo'lgan iste'molchilari aniqlanadi;
- yangi mahsulotni eskisi bilan almashtirish va uni iqtisodiy jihatdan zarur ekanligi tahlil etiladi;
- loyihani amalga oshirishda xomashyo, energiya resurslari, ehtiyot qismlar va boshqalar bilan ta'minlash uchun tarmoq tarkiblarining imkoniyati o'rganiladi;
- loyihada pirovard mahsulotdan yangi sohalarda foydalanish imkoniyati o'rgatiladi.

Mahsulotni bozorga chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari o'rganiladi.

Loyihani rejalashtirishni boshqarish (dasturlash, dasturni bo'laklarga ajratish) loyihani amalga oshirishni tashkil etishning dastlabki jarayoni hisoblanadi. Rejalashtirishning asosi – barcha ishlar majmuini, ko'zlangan maqsadga erishishni amalga oshiradigan ishtirokchilarni birlashtirishdir.

Innovasiya loyihasini amalga oshirish – vaqt mobaynida va bo'laklarga bo'lib bajarish zarur bo'lgan, resurslar va ishtirokchilarni balanslashtirgan, ilmiy-texnika, ishlab chiqarish, tashkiliy va boshqa tadbirlarni bir-biriga bog'lagan holda maqsadga yoki qo'yilgan vazifalarni bajarishga yo'naltirishni anglatadi. Shunday qilib rejada kimga qanday vazifani yuklash va qachon bu vazifani bajarish, qanday resursdan foydalanish kerak degan ko'rsatmalar aks etadi. Odatda, reja kompleks innovasiya

dasturi sifatida amalga oshadi.

1. Innovasion loyiha – ilmiy tadqiqot, tajriba, konstruktorlik, ishlab chiqarish, moliyaviy, tijorat va boshqa tadbirlarning majmui ifodalangan, aniq ilmiy-texnika vazifalarini samarali hal qilishni ta'minlash, qayd etilgan hujjat, miqdor ko'rsatkichlarida ifodalangan va innovasiyani amalga oshirishga olib keladigan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan maqsadlar va unga erishish yo'llari tizimi.

2. Innovasiya loyihalari quyidagi belgilariga qarab sinflarga bo'linadi:

–loyihani amalga oshirish muddatiga qarab (uzoq, o'rta, qisqa muddatli);

–qarorlarni qabul qilish darajasiga qarab (umumdavlat, prezident, mintaqa, tarmoq, alohida korxonalar);

–innovasiya turiga qarab (yangi mahsulot, yangi texnologik jarayon, yangi xomashyo manbai, yangi bozor, yangi boshqarish tarkibi);

–ehtiyotlar turiga qarab (yangi ehtiyotlar, mavjud ehtiyotlar);

–loyihaning maqsadi, xarakteriga qarab (pirovard oraliq)

3. Innovasiya loyihalarini amalga oshirish bosqichlari:

–innovasiya g'oyasining vujudga kelishi;

–innovasiya loyihasini rejalashtirish va uning bajarilishini nazorat qilish;

–innovasiya loyihasining tugatilishi.

4. Innovasiya loyihalarini boshqarishni rejalashtirishning sinflarga bo'linishi quyidagi ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin:

–turiga qarab: strategik, operativ;

–mazmuniga qarab: mahsulot mavzuli miqdor kalendarli, texnik -iqtisodiy, biznes-reja;

–darajaga qarab: yaxlit loyiha, tashkilot-ijrochilar loyihasi, alohida ish turlariga qarab.

5. Innovasiya loyihasini tugatishning asosiy bosqichlari – loyihani topshirish va bitimni (shartnomani) tugatish.

6. Innovasiyani ishlab chiqish va uni joriy etish jarayoniga kompleks yondashuv tarzda bo'linmalar hamda ijrochilar ishlarining muvofiqlashuvini talab etadi. Bu talablarni bajarish uchun menejmentning yangi ob'ekti bo'lgan maqsadli dasturlarga

o'tish kerak. Maqsadli dastur asosiy maqsadga birlashtirilgan va umumiy menejment yordamida amalga oshadigan ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va tashkiliy tadbirlarning rejali kompleksi.

7. Maqsadli dastur tizimi uchta tashkiliy darajadan iborat:

- yuqori daraja – texnik direktor va ilmiy-texnik kengash;
- o'rta daraja – maqsadli dastur menejerlari;
- quyi daraja – maqsadli dastur alohida bosqichlarining mas'ul ijrochilari.

8. Dastur menejmenti tizimi maqsadi – menejerlarga har qanday sharoitda texnik talablar asosida joriy vaqtdagi loyihani ishlab chiqish, taqqoslash, kelajakdagi harakatni tanlash va uning ishning pirovard natijalariga ta'sirini baholash imkoniyatini aniqlash.

Innovasiya loyihasining vazifalaridan biri - ishlab chiqilgan tadqiqotlar va ishlanmalar rejasini iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb nazariy va amaliy vazifalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan loyiha tadqiqotini anglatadi. Loyiha tadqiqotida texnik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini asoslab beradi.

G'oyalar, fikrlar, va texnik qarorning roli ilmiy-texnikaviy ahamiyatiga ko'ra har xil darajada bo'ladi:

- Zamonaviylashtirish amalga oshganda, o'xshash konstruksiya yoki mavjud texnologiya tubdan o'zgaraydi, (ishlab chiqarishni kengaytirish, uning turlari o'rtasida uyg'unlik o'rnatish, stanok, avtomobilning unumdorligini oshirish uchun yuqori quvvatli dvigatel o'rnatish);

- novatorlik bunda yangi mahsulot konstruksiyasi eskisidan tubdan farq qiladi (yangi sifat o'zgarishi amal qiladi, masalan, avval hech qayerda ishlatilmagan yangi avtomatlashtirish vositasi kiritiladi);

- ilgarilab ketayotgan bunda, konstruksiya ilgarilab ketgan texnik qarorlarga asoslanadi (samolyotsozlikda germetik kabinalarni avval hech qayerda, qo'llanilmagan-tuboreaktiv dvigatellarni kiritish);

- pioner, ilg'or, avval mavjud bo'lmagan materiallar, konstruksiya, texnologiyalar asosida vazifalarning bajarilishi yoki tubdan yangi bo'lgan vazifalarning

vujudga kelishi (kompozit materiallar, dastlabki radiopriyomniklar, elektron soatlar, shaxsiy kompyuterlar, raketalar, atom stansiyalar, biotexnologiyalar).

Loyihaning ahamiyatlilik darajasi (uning murakkabligi, davomiyligi, ijrochilar tarkibi, ko‘lami, innovasiya jarayoni o‘lga siljish natijalarining) loyihani boshqarish mazmuniga ta’sir qiladi.

Innovasiya loyihasi qarorlarini bajarish ko‘lami nuqtai nazaridan ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Monoloyihalar – loyiha bitta tashkilot yoki bitta bo‘linma tomonidan bajariladi va bir turdagi innovasiya maqsadini amalga oshirish bilan farqlanadi (konkret asbob yoki texnologiya yaratiladi), loyiha belgilangan vaqt va belgilangan moliyaviy doirada amalga oshadi, loyihani muvofiqlashtiruvchi yoki rahbar talab etiladi.

2. Multiloyihalar – kompleks dastur asosida amalga oshirilgan, murakkab innovasion maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan o‘nlab monoloyihalar birlashtiriladi (ilmiy-texnikaviy kompleksni yaratish, yirik texnologik muammolar echimini topish, harbiy-sanoat majmuidagi bitta yoki bir nechta korxonada konversiyani amalga oshirish uchun muvofiqlashgan bo‘linmalarni tashkil etish va h.k.).

3. Megaloyihalar – bir-biri bilan maqsadlar daraxti asosida bog‘langan qator multi va yuzlab monoloyihalarning bir-biriga birlashtirgan ko‘p maqsadli dastur majmui bo‘lib, markazdan moliyalashtirishni va muvofiqlashtiruvchi markaz tomonidan boshqarishni talab etadi. Megaloyiha asosida loyihaning maqsadlari bo‘lgan tarmoqni texnik jihatdan qaytadan jihozlash, mintaq va respublikada konversiya va ekologiya muammolari echimlarini hal qilish, mamlakat mahsulot va texnologiyalarning raqobatbardoshligini oshirishga erishiladi. Megaloyihaning vujudga kelishi va uni amalga oshirish bir qancha tarmoq, mintaq, moliya-sanoat guruhlar, yirik korporasiyalar, davlatlararo kuchlarning birlashuvini talab etadi. Bajarilayotgan ishning hajmi va loyiha ishlarining davomiyligiga qarab qisqa muddatli (1 – 2 yil), o‘rta muddatli (5 yilgacha) va uzoq muddatli (5 yildan ortiq) loyihalarga bo‘linadi. Loyihaning bosqichlari va davrlari uning tarmoqqa hamda funksional ko‘rinishiga qarab aniqlanadi.

Innovasiya loyihasining asosiy qismlari quyidagilardan iborat:

- muammo (g'oya)ning mazmuni va dolzarbligi;
- marketing tadqiqotlari va muammoni tarkibiy qismlarga bo'lish asosiga qurilgan loyiha maqsadlari daraxti;
- loyihaning maqsadlari daraxtini amalga oshirish tadbirlari tizimi, loyihani kompleks asoslash;
- loyihani amalga oshirishni ta'minlash, loyiha ekspert xulosasi, loyihani amalga oshirish mexanizmi va motivasiya tizimi.

Investisiya g'oyalarining vujudga kelish bosqichi deganda, o'ylangan rejani amalga oshirish tushuniladi. Bu bosqichda investisiya ob'ekti va sub'ektini, g'oyani ishlab chiqaruvchining maqsadiga qarab uning shakli va manbalarini aniqlash zarur.

Investisiya sub'ektlari tijorat tashkilotlari va undan foydalanuvchi boshqa xo'jalik yurituvchilar hisoblanadi.

Investisiya ob'ektlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yangi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan va xizmat ko'rsatadigan, qurilayotgan, rekonstruksiya qilinayotgan, kengaytirilayotgan korxonalar, binolar, qurilmalar (asosiy fondlar);
- bitta vazifa (dastur)ni amalga oshirishga yo'naltirilgan, qurilayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan ob'ektlar majmui.

Investisiya ob'ekti deganda, mavjud joylardagi ishlab chiqarish va tashkilotlar doirasida yangi mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqarish dasturi tushuniladi.

Investisiya loyihasida quyidagi investisiya shakllaridan foydalaniladi:

- pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari (maqsadli omonatlar, aylanma mablag'lar, qimmatbaho qog'ozlar, masalan, aksiya va obligasiyalar, kreditlar, qarzlar, garovga qo'yilgan tovarlar va hokazolar);
- er, binolar, inshootlar, mashina va qurilmalar, o'lchash va sinash vositalari, asbob va anjomlar, ishlab chiqarishda foydalaniladigan barcha likvidlikka ega bo'lgan boshqa mulklar;
- baholashda pulga ekvivalent bo'lgan barcha mulkka egalik qilish huquqlari.

Investisiya imkoniyatlarining tadqiqotlar bosqichi quyidagilarni nazarda tutadi:

- tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni dastlab eksport va importni hisobga olgan holda oldindan o‘rganish;
- mahsulot (xizmat)larning o‘tgan yildagi, joriy yildagi va kelajakdagi narx darajalarini baholash;
- loyihani tashkiliy-huquqiy shaklda va ishtirokchilarning tarkibiga qarab amalga oshirish takliflarini tayyorlash;
- yaxlitlashtirilgan normativlar va taxminiy tijoriy samaradorlik asosida kutilayotgan investisiya hajmini baholash, TIA bo‘linmalari va loyiha samaradorligini tahliliy baholash;
- investision imkoniyatlarni natijalarini asoslash;
- loyiha-tadqiqot ishlari shartnoma hujjatlarini tayyorlash.

Investisiya imkoniyatlari tadqiqotidan maqsad - haqiqiy sarmoyador uchun investisiya takliflarini tayyorlash. Agar investorlarga ehtiyoj bo‘lmasa, loyihalar tashkilotning o‘z mablag‘lari hisobiga amalga oshirilsa, unda loyihaning (TIA)ni tayyorlash bo‘yicha ishlarni moliyalashtirish haqida qaror qabul qilinadi. Loyihaning TIA bosqichi to‘liq ajmda quydagilarni nazarda tutadi:

- keng ko‘lamda marketing tadqiqotlarini olib borish;
- mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) dasturini ishlab chiqish;
- boshlang‘ich asoslash- ruxsat berish hujjatini tayyorlash;
- texnik qarorlarni, shu jumladan bosh rejani ishlab chiqish;
- shahar qurilishi, arxitektura va qurilish qarorlarini ishlab chiqish;
- muhandislik ta’minoti atrof muhit muhofazasi va fuqaro mudofasi tadbirlari;
- qurilishni tashkil qilish bayoni;
- fuqaro uy-joyi qurilishi haqidagi ma’lumotlarni to‘plash;
- korxonani boshqarish tizimini, ishchilar va xizmatchilar mehnatini tashkil etish;
- moliyaviy-smeta hujjatlarini tayyorlash: korxonada faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish xarajatlarini baholash, kapital xarajatlarni hisoblash, aylanma mablag‘larga bo‘lgan talabni hisoblash, loyihani moliyalashtirish manbalarini hisoblash, xorijiy vositalarga bo‘ladigan talabni mo‘ljallash, investisiya sharoitlari, aniq investorni tanlash, kelishuvlarni rasmiylashtirish;

- loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xavfni baholash;
- loyihani amalga oshirish muddatlarini rejalashtirish;
- loyihaning tijoriy samaradorligini baholash (byudjet investisiyalaridan foydalanilganda);
- loyihani amalga oshirilishining tugatish shartlari.

Demak innovasion loyixalarni amalga oshirish uchun quyidagilar zarur:

1. Innovasiya loyihalarini boshqarish innovasiya loyixasini tayyorlashning butun tizimini, innovasiya loyixasi sarflari va resurslar bilan ta'minlash, innovasiya loyihalari samaradorligini baholashni ham hisobga olganda qamrab oladi.

2. Innovasiya loyihalari vazifalari echimini hal qilish nuqtai nazaridan, monoloyiha, multiloyiha va megaloyihalarga bo‘linadi.

3. Innovasiya loyihalarini yaratish va amalga oshirish quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

- innovasiya g‘oyalarining vujudga kelishi;
- investisiya imkoniyatlarini tadqiq etish;
- loyiha (biznes-reja)ni texnika iqtisodiy asoslash;
- shartnoma va loyiha hujjatlarini tayyorlash;
- qurilish va montaj ishlari;
- ob‘ektni ekspluatasiya qilish;
- iqtisodiy ko‘rsatkichlar monitoringini o‘tkazish.

4. Innovasiya loyihalari ijtimoiy-iqtisodiy, bozor parametrlari, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy tavsiflar va ularni baholash mezonlari asosida amalga oshadi.

5. Innovasiya faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlariga quyidagilar kiradi: ITTKIga qo‘shish, xarajatlarini xususiy sektor, imtiyozli soliq tizimini qo‘llash, ilmiy-texnikaviy ishlanmalarga imtiyozli kreditlar berish, innovasiya korxonalarini tashkil qilish uchun davlat mulki yoki erini tekinga yoki imtiyozli bahoda berish.

6. Innovasiya loyixasining samaradorligi iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va boshqa qiymatda baholash mumkin bo‘lgan natijalarni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘rsatkichlar yordamida davlat investisiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

7. Innovasiya loyihasini amalga oshirishni boshqarishdagi asosiy yo‘nalish biznes – reja asosida innovasion loyihani amalga oshirish bosqichma – bosqich jarayoni va tartibidir.

8. Investor tomonidan tavsiya etilayotgan innovasiya loyihalarini saralashda ularni umumiy ko‘rsatkichlar tizimi yordamida taqqoslash mumkin ekanligiga e‘tibor berish kerak.

9. Innovasiya faoliyatining ichki va tashqi ishtirokchilariga venchur, injiniring firmalari, konsorsiumlar va kichik innovatorlar kiradi.

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN TOPSHIRIQLAR:

1. O‘zingiz faoliyat yuritayotgan OTMning innovasion salohiyatini aniqlang.
2. OTMda innovasion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlang.
3. Innovasion loyihani amalga oshirish uchun strategik dastur tuzing.
4. Innovasion loyihani ishlab chiqing va uni amalga oshirishning SWOTtahlilini o‘tkazing (Hisoblab chiqing).
5. Innovasiyalarni tijortalashtirish uchun qanday chora-tadbirlarni taklif eta olasiz? Eng muhimlarini aniqlang.
6. OTMga investisiya kiritish va undan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlang.
7. OTmlargi investisiya jalb qilishda masofaviy ta‘lim shakllari raqamli texnologiyalarini aniqlang.

V. GLOSSARIY

V. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Biznes-inkubator (<i>Business incubator</i>) -	korxonada (bo'lim, laboratoriya)ning biznesning yangi shakllarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi tarkibiy bo'linmasi.	A business incubator is a company that helps new and startup companies to develop by providing services such as management training or office space.
Davlatning innovasion siyosati (<i>State innovative policy</i>) –	davlatning ishlab chiqarishga mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarish va shu asosda mamlakat tovarlarini sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida ta'sir ko'rsatish shakllari, usullari va yo'nalishlari yig'indisi.	a set of forms, methods and directions of influence on the production of the state in order to produce new types of products and on this basis to expand the markets for the sale of domestic goods.
Venjur (Venture) – (ing. venture –	jur'at qilmoq, tavakkal qilmoq) sarmoyalar-sarmoyalarni xatarli kiritish.	to dare, to take a risk) investments- risky investment.
Innovasiya (<i>Innovation</i>)	Keng qamrovli bo'lib, u ishlab chiqarish jarayoniga mukammal, yangi, ilgari bo'lmagan texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi.	A set of assignments intended for comprehensive assessment of skill and competence level of students
Innovasion muhit (<i>Innovation environment</i>)	innovasilarni yaratilishi, amalga oshirilishi va ilgari surilishini o'rab turuvchi holat	a situation that surrounds the creation, implementation and promotion of innovations
Innovasion potensial (<i>Innovative potential</i>)	deganda, o'zaro bog'liqlikda bo'lgan turli xil resurslarning umumiy yig'indisi tushuniladi.	A type of a study activity that increases activeness, interest of students in getting knowledge based on the modeling of processes, events, objects that are being studied

Innovasion soha <i>(Innovative sphere)</i>	innovasion mahsu-lotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni, o'z ichiga innovasiyalarni yaratish va tarqatishni oluvchi faoliyat sohasidir	is a field of activity that includes producers and consumers of innovative products (works, services), including the creation and distribution of innovations
Innovasion faoliyat <i>(Innovation activities)</i>	deganda, iqtisodiy faoliyat sohasidagi jarayonlarni radikal tarzda o'zgartirishga yordam berishi mumkin bo'lgan biron bir yangilikni yaratish.	to create any innovation that can help radically change the processes in the field of economic activity
Innovasion loyiha <i>(Innovation project)</i> –	bu loyiha maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnik, tashkiliy, rejaviy va hisoblash – moliyaviy hujjatlarning yig'indisidir.	it is a set of technical, organizational, planning and calculation-financial documents required to achieve the project objectives.
Innovasion menejment <i>(Innovation management)</i> –	tashkiliy boshqaruvchilikning o'ziga xos turi bo'lib, unda innovasion faoliyat rejasi va dasturlarini ishlab chiqish va joriy etishni boshqarish amalga oshiriladi.	is a specific type of organizational management, which manages the development and implementation of innovative action plans and programs.
Innovasiyalarning biznes jarayoni <i>(Business process of innovations)</i>	vaqtda va joyda ishlashning boshi va oxirini ko'rsatilishiga ega tartibga solingan majmuasi.	an ordered set with a display of the beginning and end of the work in time and place.
Bazaviy (fundamental) innovasiyalar <i>(Fundamental innovations)</i> -	yirik kashfiyotlarni amalga oshiradi va texnika rivojlanishining yangi avlodi va yo'nalishlari shakllanishining asosi bo'ladi;	makes major discoveries and becomes the basis for the formation of new generations and directions of technical development
Ijodiy loyihalar Creative projects	Individual yoki hamkorlik asosida ijodiy xarakterga ega yangi ta'lim	The projects intended to creat new educational products (activity report,

	<p>mahsulotlari (ijodiy hisobot, ko'rgazma, dizayn, videofilm, nashr ishlari – kitob, almanax, buklet, albom, bosma va elektron jurnal, kompyuter dasturlari kabilar)ni yaratishga yo'naltirilgan loyihalar</p>	<p>exhibition, design, videofilm, publishing works: books, literary miscellany, pamphlets, albums, printed and electronic journals, computer programmes) that have creative characteristics based on cooperation and individual activity</p>
<p>Innovasion ta'lim Innovative education</p>	<p>Talabada yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalarni, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim</p>	<p>Education that allows to develop skills and qualities of a student</p>
<p>Innovasion faoliyat Innovative activity</p>	<p>Yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualar muammolarni echishga qaratilgan faoliyat</p>	<p>An activity carried out for solving a set of problems that occur as a result of rejecting new developing ideas or inappropriateness of new social requirements to traditional standards</p>
<p>Innovasiya Innovation</p>	<p>Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat</p>	<p>An activity aimed at changing the internal structure of a certain system</p>
<p>Interfaol ta'lim Interactive education</p>	<p>Talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim</p>	<p>The education based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knowledge</p>
<p>Ishbilarmonlik o'yinlari Business games</p>	<p>Ma'lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to'g'ri, oqilona</p>	<p>Activities organized in order to master skills in running a certain activity, process or</p>

	uyushtirishga doir ko'nikma, malaka va sifatlarni o'zlashti-rish maqsadida tashkil etiladigan o'yinlar	relationships and their effective and proper organization
Loyiha Project	Aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli	A result of an action aimed at developing the essence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its effectiveness
Loyiha metodi A method of project	O'quv jarayonini individuallashtirish, talabaning o'zini mustaqil namoyon qilishini rejalashtirish, o'z faoliyatini oqilona tashkillash-tirish va nazorat qilish imkoniyatini beradigan ta'lim metodlari majmui	A set of educational methods that allow individualization of educational process, independent planning of students' performance, control and proper organization of an activity
Tadqiqot loyihalari Projects of research works	Ilmiy izlanish xarakteriga ega loyihalar	Projects that have scientific study characteristics
Ta'lim jarayonini loyihalashtirish Projecting the educational process	O'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyati	A targeted educational activity organized in order to develop students' skills in carrying out independent actions to plan and organize activities and its assessment
Ta'lim innovatsiyalari Educational innovations	Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar	Forms, methods and technologies that are used for innovative solutions to existing problems in learning process or educational sphere and that guarantee effective results

<p>Ta'lim tizimini modernizatsiyalash</p> <p>Modernization of educational system</p>	<p>Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, jamiyat va davlatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish yo'lida uzluksiz ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi</p>	<p>Improving or developing an existing mechanism in order to provide sustainable development of continuous educational system that meets students' needs and interests as well as society's social, economic and cultural and country's skilled personal needs</p>
<p>Texnologik model (pasport)</p> <p>Technological model (passport)</p>	<p>Ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat</p>	<p>A document that reveals main indicators of education or spiritual and educational events and their technological characteristics</p>
<p>Tyutor</p> <p>Tutor</p>	<p>O'quv kurslari uchun interfaol metodlarni tanlovchi, ma'ruza o'qituvchisi bilan talaba o'rtasida ta'limiy aloqani o'rnatuvchi ustoz, murabbiy</p>	<p>A teacher, coach who uses interactive methods for courses and establishes learning communication between a student and lecturer</p>
<p>Fasilitator</p> <p>Facilitator</p>	<p>Masofaviy ta'lim xizmatidan foydalanayotgan guruhlarining faoliyatini natija-sini muammoning ilmiy echimini topishga yo'naltiruvchi, guruh-larda yuzaga keladigan muloqotni rivojlan-tiruvchi, shuningdek, guruhlar faoliyatini xolis, samarali baholovchi pedagog</p>	<p>A teacher who helps to search for scientific solutions to the problem of the results of activities of groups that use distance learning services, and who develops communication occurring in groups, effectively and objectively assesses activity of groups</p>
<p>Franchayzing</p> <p>Franchising</p>	<p>O'zaro hamkor universitetlarning bir-birlariga o'zlari tomonidan tashkil etiladigan masofaviy ta'lim kurslarini tashkil</p>	<p>Rights that are given by partner universities to other universities for carrying out distance learning courses</p>

	etish huquqining berishi	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim Student-centered education	Talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliya-tini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing particular characteristics and abilities and personality of a student by considering his thinking and action strategies
Shaxsni rivojlantirish Developing an individual	Individida vaqt nuqtai nazaridan jismoniy va ruhiy o'zgarish-larning sodir bo'lish jarayoni	A process of occurring physical and psychological changes in an individual
Edvayzer Advisor	Bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarining talabalar tomonidan individual, mustaqil bajarilishi vaqtida metodik yordam bera-digan maslahatchi	An advisor who assists in an independent accomplishment of a thesis, course projects by students
O'yin texnologiyalari (o'yin ta'limi) Game technologies (game learning)	Ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'nal-tirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'nal-tirilgan ta'lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri	One of the types of education (pedagogical technologies) aimed at creating a process of emotional and assessment activity as well as skills and competence that are the forms of mastering various social experiences by a student
O'quv loyihasi Learning project	1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va echish, natija (echim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni echishga qaratilgan o'quv harakati vositasi; 3)rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni	1) a method of organizing an independent learning activity carried out by students for searching, studying and solving the problems and representing a result in the form of a product; 2) means of learning activities carried out by students for accomplishing the practical assignments based on theoretical

	boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan didaktik vosita	knowledge; 3) a didactic mean that develops, educates, increases knowledge and develops skills, competence
Hamkorlik taʼlimi Cooperation education	Oʻquv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda oʻzlashtirishlari, oʻzaro rivojlanishlari, “peda-gog-talaba(lar)” muno-sabatining hamkorlikda tashkil etili-shini ifodalovchi taʼlim	Education based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning process
Hamkorlik taʼlimi texnologiyalari Cooperation education technologies	Oʻquv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda oʻzlash-tirishlari, oʻzaro rivojlanishlari, shuningdek, “pedagog-talaba(lar)” munosa-batining hamkorlikda tashkil etilishini taʼminlovchi taʼlimiy xarakterdagi texnologiyalar	Educational technologies that allow to establish relationships based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning process
Inkubator (Incubator) (lot. Inkubore –	joʻjalarni bosib chiqarish)-korxonalar (boʻlim, laboratoriya) ning biznes (yaʼni tadbirkorlik)ning yangi shakllari yoki texnologiyalarning yangi turlarini ishlab chiqish bilan shugʻullanuvchi tarkibiy boʻlinmasi.	printing of chickens) - a structural unit of the enterprise (department, laboratory) engaged in the development of new forms of business (ie entrepreneurship) or new types of technologies.
Innovation jarayon (Innovation process)	oʻz ichiga innovation faoliyatni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan moddiy, moliyaviy, aqliy, axborot, ilmiy-texnik resurslarni oluvchi resurslarning har xil turlari majmuasi.	a set of different types of resources, including material, financial, intellectual, informational, scientific and technical resources necessary for the

		implementation of innovative activities.
Innovation xatar (<i>Innovation risks</i>) –	sarmoyalarni yangi mahsulotlar va yangi texnologiyalarni amalga oshirishga juda katta (odatda kapital kiritmalarga nisbatan 1000 % dan ko'proq) foyda olish niyatida va bu operatsiyalar, mahsulotlar, texnologiyalarni amalga oshirishning juda qisqa (1 oydan ko'p bo'lmagan) muddatga ixtiyoriy kiritish bilan bog'liq xatar.	intends to invest very large (usually more than 1000% of capital investments) in the implementation of new products and new technologies, and the risk associated with the voluntary introduction of these operations, products, technologies in a very short period (not more than 1 month).
Intuisiya (lot. Intuery –	diqqat, e'tibor bilan qarash) – bevosita, xuddi tasodifiydan mantiqiy o'ylab ko'rmasdan muammoning to'g'ri echimini topish qobiliyati.	attention, attention) - the ability to find the right solution to a problem directly, as if by accidental logical thinking.
Integrasiya – (lot. Interatio - takrorlash) -	o'xshashlar, seriyasida qandaydir matematik operatsiyalarni qo'llanishi oluvchi natija.	similar, the result of the application of some mathematical operations in the series.
Ilmiy (ilmiy-texnik) yo'nalish (<i>Scientific (Scientific-technical) line</i>) –	fanning qandaydir sohasi rivojlanishi-ning muhim masalalarini hal qilishga qaratilgan yirik mustaqil ilmiy ish.	a large independent scientific work aimed at solving important issues in the development of any field of science.
Innovasiya (<i>Innovation</i>) –	bozorda sotilayotgan yangi yoki takomil-lashtirilgan mahsulot, amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon ko'rinishida amalga oshirilgan innovation faoliyat-ning yakuniy natijasi.	a new or improved product sold in the market, the end result of an innovative activity carried out in the form of a new or improved technological process used in practical activities
Innovasiyalar benchmarking	boshqa tadbirkorlar biznesini o'zining	to study the business of other entrepreneurs in

<i>(Innovation benchmarking)</i> –	innovasiyalarini ishlab chiqish uchun asosiy ta’riflarini aniqlash maqsadida o’rganish.	order to determine the basic definitions for the development of their innovations.
Innovasiyalarning diffuziyasi <i>(Innovation diffusion)</i> (lot. Diffusion	tarqalish, olib ketish)- bir marta o’zlashti-rilgan innovasiyalarni tarqalishi.	spread, take away) - the spread of once mastered innovations
Innovasion faoliyat <i>(Innovation activity)</i> –	yakunlangan ilmiy – texnik yutuqlar va ishlab chiqishlar natijalarini amalga oshirish yoki bozorda sotilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlardagi boshqa ilmiy – texnik yutuqlar, amaliy faoliyatda foydalanadigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga qaratilgan jarayon, hamda uning bilan bog’liq qo’shimcha ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqishlar.	implementation of the results of completed scientific and technical achievements and developments or other scientific and technical achievements in new or improved products sold in the market, the process aimed at a new or improved technological process used in practice, as well as additional research and development.
Innovasion infratuzilma <i>(Innovative infrastructure)</i> (lot. Infra – oyida + struktura – tuzilma qurilma)	-innovasion faoliyatni amalga oshirishga ko’maklashuvchi tashkilotlar (muassasalar), ya’ni bo’ysunish va yordamchi xarakterga ega bo’lgan, innovasiyaga xizmat qiluvchi va innovasion jarayonni me’yoriy o’tishi sharoitlarini ta’minlovchi tashkilotlar (muassasalar) majmuasi. Infratuzilmaning tarkibiga innovasion texnologik markazlar, texnologik inkubatorlar, texnoporklar, o’quv – o’yin markazlar va	a set of organizations (institutions) that facilitate the implementation of innovative activities, ie a set of organizations (institutions) of a subordinate and auxiliary nature, serving innovation and providing conditions for the normal transition of the innovation process. The infrastructure includes innovative technology centers, technology incubators, technology parks,

	boshqa ixtisoslashgan tashkilotlar kiradi.	training and entertainment centers and other specialized organizations.
Innovation muhit (<i>Innovation environment</i>).	innovasilarni yaratilishi, amalga oshirilishi va ilgari surilishini o'rab turuvchi holat	a situation that surrounds the creation, implementation and promotion of innovations
Innovation spiral (<i>Innovative spiral</i>) (lot. spira –	burilish, qaytarish qaerdadir)- insoniyatni tug'ilishi tongidagi qayndaydir boshlang'ich nuqtadan doimiy ravishda tezlashib boruvchi o'ramlarni qiluvchi egri chiziq, ular vaqtda doimiy ravishda tezlashib boradilar.	turn, return somewhere) - a curve that makes the wraps that are constantly accelerating from the starting point of humanity on the morning of their birth, they are constantly accelerating over time
Innovation dastur (<i>Innovation program</i>) –	resurslar, ijrochilar va ularni amalga oshirish muddatlari bo'yicha kelishilgan va tubdan yangi mahsulotlar texnologiyalarni o'zlashtirish va tarqatish bo'yicha masalalarni samarali hal qilinishini ta'minlovchi innovasi-on loyihalar va tadbirlarning majmuasi	a set of innovative projects and activities agreed upon in terms of resources, executors and terms of their implementation, and ensuring the effective solution of issues related to the development and dissemination of radically new products and technologies.
Innovation kontur (<i>Innovative contour</i>)	(tashqi ko'rinishi) – milliy xo'jaliklarni jahon iqtisodiyotiga integrasiyalariga ko'maklashuvchi yangi texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish sohasi. Bu texnologiyalarga informatika, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqalar kiradilar.	(appearance) - the creation and adoption of new technologies that promote the integration of national economies into the world economy. These technologies include computer science, healthcare, environmental protection, and more.

Innovasion soha <i>(Innovative sphere)</i>	innovasion mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni, o'z ichiga innovasiyalarni yaratish va tarqatishni oluvchi faoliyat sohasidir.	is a field of activity that involves the creation and distribution of innovations, including producers and consumers of innovative products (works, services).
Kuchaytirilgan (takomillashgan) innovasiyalar <i>(Enhanced (improved) innovations) -</i>	odatda kichik va o'rta kashfiyotlarni amalga oshirishda, ilmiy-texnik siklni tarqatish va barkaror rivojlanish davrida ustunlik qiladi;	usually prevails in the implementation of small and medium-sized discoveries, in the period of dissemination of the scientific and technical cycle and sustainable development;
Novasiya – <i>(novation)</i>	oldin bo'lmagan qandaydir yangilik. Fuqarolik huquqi bo'yicha novasiya tomonlarning ular tomonidan tuzilgan katta majburiyatni boshqa majdburiyat bilan almashtirilishi haqidagi bitimini bildiradi.	something new that has never happened before. Civil law innovation refers to an agreement between the parties to replace a major obligation entered into by them with another obligation.
Psevdoinnovasiyalar <i>(Subinnovations)</i>	texnika va texnolo-giyaning eskirgan avlodini qisman kuchay-tirishga qaratiladi.	aimed at partially strengthening the outdated generation of machinery and technology.
Standartlashtirish <i>(Standardization) -</i>	shunday jarayonki, ma'lum sohada tartiblashtirish maqsadida qoida va talablarni o'rnatish, umumiy maksimal iqtisodga erishishda xavfsizlik va funksional shartlarga rioya qilishdir.	such a process is the establishment of rules and requirements for the purpose of sorting in a particular area, the observance of safety and functional conditions in achieving the overall maximum economy.
Ta'lim sifati <i>(The quality of education)</i>	o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.	verification of the content and results of training in accordance with the requirements of

		state educational standards.
ISO (<i>International Standard Organization</i>)	xalqaro standartlashtirish tashkiloti	international standardization organization

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 343-sonli Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi «Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 2001 yil 16 avgustdagi «343-sonli qororiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

16. Maxkamova M.A. Raqamlashtirish nafaqat odamlar turmush tarzi, balki tafakkurini ham o'zgartiradi. Halq so'zi, 4 noyabr, 2020 yil, № 232 (7734).

17. Maxkamova M.A. Sistema globalnykh izmeneniy. Narodnoe slovo, 13 noyabr, 2020 god. № 239 (7710).

18. Maxkamova Ta'limda innovatsion menejment. Monografiya. - Toshkent, «Fan va texnologiya», 2019 – 164 b.

19. Teoriya innovatsionnogo menedjmenta. Monografiya. - Toshkent, «Fan va texnologiya», 2019 – 178 b.

20. Maxkamova M.A. Innovatsion menejment. O'quv qo'llanma. – T: Fan va texnologiya, 2013.

21. Maxkamova M.A. Innovatsion texnologiyalar boshqaruvi. Monografiya. – T.: Aloqa, 2011.

22. Maxkamova M.A. Organizatsiya i upravlenie innovatsionnoy deyatelnostyu. – T.: Iqtisodiyot, 2007.

23. Peregudov L.V., Saidov M.X. «Menedjment i ekonomika vysshego obrazovaniya». Uchb.pos – Tashkent. 2008 g.

24. Innovatsionnyy menedjment. Uchebник. Pod. Red, prof. V.Ya. Gorfinkelya. – M.: «Vuzovskiy uchebник », 2009 g.

25. J. Tidd and J.Bessant. [Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change](#). Wohn Wiley and Son's Ltd, Fourth edition, 2012.

26. vV. Govindarajan and C. Trimble. [The Other Side of Innovation: Solving the Execution Challenge](#). Harward Business School Publishing, 2010.

IV. Internet saytlar:

27. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

28. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
29. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
30. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet.
31. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.